




S. R. Mirzayeva,
Sh. R. Samarova, O. U. Avlayev

UMUMIY PSIXOLOGIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S. R. Mirzayeva, Sh. R. Samarova, O. U. Avlayev

UMUMIV PSIXOLOGIYA

DARSLIK

TOSHKENT – 2022
«Yangi chirchiq book»

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 159.9
KBK: 88
M-54

KIRISH

Inson psixologiyasini biliш asosida shaxsni shakllantirishga uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlasga jiddiy e'tibor qaratish mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

S. R. Mirzayeva, Sh. R. Samarova, O. U. Avlayev, /Umumiy Psixologiya: Darslik/- Toshkent: «Yangi chinchiq book», 2022.-296 bet.

Umumiy psixologiya darsligi inson shaxsidagi psixologik holatlar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi dashtabki bilimlar majmuasini berishga qaratilgan. Darslikda psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari. Ong taraqqiyoti va ongsizlik. Valeologik ong. Shaxsning shakllanishi. Shaxs faoliyati va ijtimoiy xulq motivlari, shaxsning individual xususiyatlari, shaxsning biliш jarayonlari, shaxsning hissiy-irodoviy sohasi, Muloqot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi hamda mehnat psixologiyasini nomli bo'llimlardan iborat. Shuningdek nazariy materiallarni yaqqol ifodalash maqsadida chizma grafik, jadvallardan o'rinni foydalanilgan.

Darslikdan olyi ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar, magistrantlar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sonaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Taqrizchi: Pedagogika fanlari doktori, professor J.E.Uarov
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent SH.S.Shoyimova

Ma'sul muharrir: Psixologiya fanlari doktori, professor D.G.Muxamedova

Darslik O'zbekiston Respublikasi Olyi va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdaги 302-soni buyrug'iiga asosan nashrga tavsija etildi.

Aynan mazkur masalalarni keng doirada tadbiq qilish zamон talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Albatta buning uchun insonlar psixologiyasini biliш, ularda kechadigan psixologik o'zgarishlarni anglagan holda yondashishni talab qilmoqda. Bu jarayonda o'z mavbatida psixologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojni ortib borishini ko'rishimiz mumkin. Chunki insonlar haqidagi bilimlarni qo'ga kiritish uchun avalo psixologik bilimlardan xabardor bo'llishi lozim. Shu bois yozilgan darslik shaxs psixologiyasiga doir dashtabki bilim, ko'nikma va malakalarni tushuncha va tushuvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

ISBN 978-9943-9395-2-3

© S. R. Mirzayeva, va b., 2022
©«Yangi chinchiq book», 2022

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI, VA TADQIQOT METODLARI

REJA:

- 1.1. Psixologiyaning fan sifatidagi umumiy tasnifi.
- 1.2. Psixologiya fanning tarixi.
- 1.3. Psixologiya fanning asosiy metodlari.
- 1.4. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'mni.
- 1.5. Zamонави psixologiya fanning asosiy sohalari.
- 1.6. Psixologiyada psikoanalizing o'mni va ahamiyati.

Asosiy tushunchalar: Psixologiya, psixolog, psixologiya tarixi, psixologiya fanini asosiy vazifalari, psixoanaliz.

1.1. Psixologiyaning fan sifatidagi umumiy tasnifi

Biz bugungi kunda psixologiya fanini qiziqarti fan deb bilmogdamiz, aslida juda murakkab fan hisoblanadi. Shu boisdan psixologiya fani haqida ko'plab psixolog olinlar o'zlarining ilmiy fikrlarini bildirib o'tgan. Psixologiya milodimindan 300 yil oldinroq, gerek faylasufi, naturalist Aristotel "Fanni o'rganish-xotira, shaxsiyat, ruhiyat, his-tuyg'u nazariyalari" degan nom bilan boshlagan. Lekin bugungi kunda uning nazariyaligiga (kulgilii) shubha bilan ham qarab keladi. Masalan; ovqat insomning uyqusini keltiradi, bizning yuragimiz atrofimi insomiy hislatlar qamrab olgan-deb yozgan¹, horizgi kunida psixologiya barcha sohalari bilan bog'liq tarzda ham o'rganilmoqda.

Djeyms U, Kalatning "Psixologiyaga kirish" nomli kitobida psixologiyani o'rganishda 3 ta asosiy aspektlarga e'tibor qaratilgan. 1) xulq-atvorning barcha xususiyatharini o'rganish; 2) xulq-atvorning genetik tomonidan o'rganilishi; 3) xulq-atvor ijtimoiy muhit ta'sirida o'zgarib borishi. Djeyms U, Kalatning fikricha psixologiya keng qamrovli fan bo'lib, u o'ziga shaxsing hissiyotlarini, idrok etishi, xotirasi, och qolishi, chandashi, e'tibor berishi, bola rivojlanishining bosqichlarini ya'n ni yosh davrlariga qarab xulq-atvorning o'zgarib borishini va boshqada ko'p aspektlarning o'zaro ta'sirini ham o'ganib boradigan fan deb aytilib o'tgan. Psixologiya faniga shaxs xarakterini va tajribalarni o'rganuvchi tizim sifatida qarashimiz mumkin. Shaxsning xarakteri o'zgaruvchan xususiyatga ega. Masalan:

Xilma-xil bo'lib, u eng avalo, psixik faoliyatning asosiy qonunini belgilash, uning rivojlanish yo'llarini aniqlash, har bir psixik prosessning asosida qanday mexanizm borligi, uning o'zgarish jarayonlarini oshib berish masalalarini o'rganadi. Psixologiya psixik faoliyatning u yoki bu sharoida qanday ro'yobga chiqqanligini o'rganish bilangina shug'ultanib qolmasdan, bu jarayonlarni qanday boshqarib borish masalalarini ham ilmiy asosda o'rganadi. Shuning uchun ham ilmiy


¹(David G. Myers Psychology © 2010 by Worth Publishers).

Ushbu rasmda siz ko'rib turgan 1 xil chiziq ahamiyatsizdek ko'rindi. Yaxshilib qarasangiz 1 - chiziq uzun ko'rindi 2 - chiziq esa kalta ko'rindi. Psixologiyada karakter tushunchasiga juda ko'p ta'riflar mavjud. Shunday bo'lsada 1 chiziq xarakterming cheksiz, o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatadi. 2 chiziqda esa biz tujriba jarayonidagi ma'lum xarkerini ko'rishimiz mungkin.

Insomiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida odam o'zini hayajonlantirgen, tuajubga solgan savollarga javob izlash imkoniyati vujudga kelgan. Buning natijasida "Insom o'ziga o'zi ta'sir o'tkaza oladimi?", "O'zgalargachi?", "Insom qanday fikravdi?" kabi turli-tuman muammolar echimini qidirishga harakat qiladi. Psixologiya o'z nima?

Insom o'zini o'rab turgan ijimoiy muhida yashaydi va harakat qiladi. U har qanday ethiyoja muhitojdir va uni qanoatantirishga va qondirishga intiladi. Tevarak-atrofdagi muhitudan har xil axborotlar hamda ma'lumotlarni qabul qiladi va o'zini shunga muvoqiqlashtirishga harakat qiladi. Dunyodagi real obrazlarni miyusida ongli shakllantirishga kirishadi, shunga qarab o'zining shu muhida qunday harakat qilish kerakligi to'g'risida u yoki bu voqeaga qanday yondashish uchun rejalari tuzadi. O'zining oldiga qo'ygan maqsadlarini o'z harakat natijalariga solishtirib ko'radi, o'z boshidan juda katta hissyl holatni kechiradi. Hayot fioliyatidagi ba'zi kamchilik va xatoliklarni to'g'rilash yo'llarini axtaradi. Buning uchun o'yaydi, fikr yuridi, hayajonlanadi. Ba'zan o'zini tuta olmay pessimizmga berilib ketadi. Yoki o'zini tutib oladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishiga butun kuchini qaratadi. Mana shu holatlarning hammasi kishining psixik faoliyatini hisoblanadi. Ana shu psixik faoliyat qonunlarini o'rganuvchi fan psixologiya fiodir.

Psixologiya fanning o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan muammolari juda xilma-xil bo'lib, u eng avalo, psixik faoliyatning asosiy qonunini belgilash, uning rivojlanish yo'llarini aniqlash, har bir psixik prosessning asosida qanday mexanizm borligi, uning o'zgarish jarayonlarini oshib berish masalalarini o'rganadi. Psixologiya psixik faoliyatning u yoki bu sharoida qanday ro'yobga chiqqanligini o'rganish bilangina shug'ultanib qolmasdan, bu jarayonlarni qanday boshqarib borish masalalarini ham ilmiy asosda o'rganadi. Shuning uchun ham ilmiy



psixologiya boshqa barcha o'rganilayotgan predmetlar orasida eng asosiy fanlardan hisoblanadiki, uning jamiyat rivojlanishi bilan ahamiyati yana da orib va takomillashib boraveradi.

Turli mazmundagi taassurotlar tufayli paydo bo'ladigan hissiy holatlar hayotimizning turli-tuman ko'rinishlari dirki, bularning hammasini psixologiya fani o'rganadi.

"*Psixologiya*" so'zi ikkita grek so'zlaridan – "psyuhe" – jon, ruh va "logos" – ta'limot, ilm so'zlaridan

iborat bo'ib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yo'qgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xistatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixika deb ta'rif berishadi. *Psixika* – bu inson ruhiyatining shunday holaiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli (ba'zan ongsiz) tarzda aks etirishimizni, ya'ni bilishimiz, his qilishimiz, tasavvur qilib, anglashimizni ta'minlaydi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyor, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, uning ichki dunyosi, ruhiy hayoti deb ham ataladigan tushunchalarini hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, psixik holatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar degan iboralarga ham juda ko'p duch kelamiz.

U.D.Jeyms "Psixologiyaga kirish" nomli kitobida psixologiyadagi muammolar degan joyiga "**Erkinlik determinizmga qarshi**" fikri keltirilgan.

Shaxsning barcha hatti-harakattarining o'z sabablari mayjud. Shaxs – harakattarim haqida o'zim qator qabul qilaman, hamma ishlaringma o'zim sababchiman – deb javob beradi. Psixologiyada asosiy muammolar bolalarning ulg'ayishi bilan bog'iqliq, ular televizor ko'rib vaqtning o'tishimi his qilmasligi odatiy holga aylanganimli, ularda o'z erkinaligini his qilish ustunligi kuzatiladi.³

Psixologiya fanning bugungi kundagi vazifalari, tabiy, uning predmetiga biroz o'zgarishlar kiritadi. Zero, inson ongi va qalbi uchun kurash muammosi butun dunyo miqyosida dolzarb turgan masala sifatida qaratishini inobatga olsak, jamiyatimizning har bir a'zosi, mustaqil yurt fuqarolarini o'ngming milliy-madaniy muhit ta'sirida, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishi, ular qalbida so'iymon va sog'iom dunyoqarashlar, mustaqil fikrleshing shakllanishi mexanizmlarini o'rganish ham fanning muhim predmeti hisoblanadi. Ayniqsa,

bugungi yoshlarda aniq maqsad va maslakning bo'ishi, milliy iftixor va g'urur tuyg'ularining to'g'ri tarbiyalanganligi yaxlit xalq va millat manfaatlari bilan uyg'undir. Psixologiya fan sifatida aynan har bir shaxsda o'ziga, yurdoshlariga, turli faoliyat turlari hamda dunyoga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllanishi yo'llarini ham o'rganishi kerak.

Atrofidagi odamarning xarakterini tushunish umidida yoki o'z dardlariga malham izlash maqsadida millionlab insonlar soxta psixologiyaga murojaat qiladilar. Bu yo'ida ular radio-muloqot dasturlarida berib boriladigan mastahallarga qulqoq tutadilar, allaqanday ruhiy kuchlar haqidagi maqolalarni o'qyadilar, gipnoz yordamida chekishni tashblastini xohlovchilarning maxsus yig'ishlariida qatnushadilar, mustaqil ravishda shug'ullanish uchun turli xil kitoblar va web-saytlardan tushlar ta'biri, jo'shqim ishqiy munosabatlarning siri va baxsiga eltuuchi yo'l kabi mavzular haqida ma'lumot izlaydilar. Boshqa birovlar esa hayotiy psixologik haqiqatlardan ilhomlanib, hayrat ita savol beradilar: Rostdan ham yangi tug'ilgan chaqaloq va ona o'riasida ilk daqiqalarda kindik orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa bo'ladimi? Odam ulg'ayib, bolalikda duch kelgan jinsiyl zulm haqidagi xotiralar "tiklangach" – o'sha vahshiylarni javobgarlikka tortish kerak bo'ladimi? Oltadagi ilk fazand boshqa farzandlarga nisbatan tirishtiqsiz bo'ladimi? Psixoterapiya muodalajalari davolashga qodirmi? Shu kabi savollarga duch kelganda, ilmsizlikdan hosil bo'igan fikrlar va ilmiy xulosalarni qanday qilib bir-birdan farqlab, ajrata olamiz? Insonlarning fikrlash, his qilish va xatti-harakati sabablarini tushunish uchun qanday qilib psixologiya fani dan mukammal foydalanishimiz mungkin?⁴

Psixologiya faniga bo'lgan zaruriyat: Nega ilmiy yondashuvdan hosil bo'lgan xulosalar intuitiya va umumiy odatiy ong orqali hosil bo'lgan xulosalardan ko'ra ishonchliroqdir? Ba'zi insonlar o'yayildilarki, psixologiya fani odamlar shundog'am biqidigan narsalarni shunchaki ilmiy tilda qog'ozga tushurish bilan shug'ullanadi: "Psixologiya fani orqali kritik tahvil qilishning nimasi yangilik bo'lib qoldi – mening buvijonim allaqachon bilgan narsalarni qiziqartli metod va tujribalarining orqali isbotlaysan va bu uchun sen haq olasan, xolosmi?". Bu o'rinda boshqalar esa intuitsiyaga ishonadilar: "Har birimizning tub-tubimizda eng ishonchli yo'imi ko'rsatadigan instinct va yurakdan his qiladiganimiz, yo'lboshchimiz bor – biz shunchaki o'sha tuyg'ularga erk bersak, bo'idi", – deya maslahat bergen edi Britaniya shahzodasi CharlZ.

^{*}(Djeyms U. Kalit. Psychology. 4 bet)

¹(David G. Myers Psychology. © 2010 by Worth Publishers 48-59 bellarda).

²(2000-yil) (David G. Myers Psychology. © 2010 by Worth Publishers 48-59 bellarda).

Imiy psixologiyaning predmeti deganda, avvalo psixik hayotning aniq faktlari nazarda tutildi, psixik hayotga doir har bir fakt esa ham miqdor, ham siyat jihatidan xarakterli xususiyatiga ega.

Psixologiyaning o'rganadigan obyekti **psixik hodisalar**dir. Psixik hodisalar o'z navbatida uch asosiy guruhga bo'linadi: psixik holatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar. **Psixik holatlar** psixik faoliyatning vaqtinchalik dinamikasi bilan xarakterlanadigan hodisalar bo'lib, bu kishining ichki dunyosining muhim tononlarini hisobga olgan holda faoliyatga ta'sir etadigan omillardir. Psixik holatarga charchash (toliqish), emotisional zo'riqish (afekt, stress), monotoniya (diqqinfaslik, zerikish), uyqu holati, uyg'oqlik holati va boshqalarni kiritish mumkin.

Psixik jarayonlar - sezgi a'zolariga tashqi ta'sir shakllari, inson va tashqi muhi, ichki kechimmalari o'ttasida bog'lanishlar shakli bo'lishi mumkin. Odatda psixik jarayonlar deganda sezgi, idrok, tafakkur, hayol, xotira, hissiyor, iroda tushuniladi. Psixik hodisalarining uchinchisi guruhi - **psixik xususiyatlar** bo'lib, odamdagি takrorlammas, bir-biridan farqlab olish uchun zatur bo'lgan xususiyatlardir. Bu xususiyatlar kishining o'ziga atrofidiagi odamlarga, narsalarga, mehnatga munosabatlarda, bir so'z bilan aytganda uning xulq-atvoriда namoyon bo'ladigan xususiyatlardir. Psixologiya fan sifatida psixika faktlarini, qonuniyattarini va mexanizmlarini o'rganadi.

Psixolog bugungi kuni inson faoliyatining barcha yo'nalishlarida zatur psixologik xizmatini yuritish lozim. Har bir shaxsning o'z muammolarini hal etishida, ta'lim sifatini oshirishda, inson salomatligini yaxshilashda va hukumat ishlarni boshqarishda ham zarur psixologik bilimlarga ega psixologni tatal qiladi. Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarega psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihat bo'r: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihat xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhun analogiyalar qilish shart ernes, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birari bilan bog'liq va umumiy qonuniyattar va prinsiplarga bo'yunsadi. Demak, psixologiyaning predmeti aniq shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari, amallari va faoliyatlarining o'ziga xos tarza ongi tononidan aks etirilishidir, deb ta'riflash mumkin.

Inson psixikasini o'rganishda fiziologiyaning oly nerv faoliyatini tadqiqotlariada erishilgan yutuqlari alohida ahaniyat kasb etadi. Xususan A.R.Luriyanning bosh miya bloklari spetsializatsiyasi ta'ilomi. U 3 ta bloki farqlaydi:

- a) energetik – miya normal ishish tonusini quvvatlash;
- b) qabul qilish, qayta ishish va axborotni saqlash;

v) faoliyatni programmalashtirishni tartibga solish va nazorat qilishni ta'minlash.

Bosh miya yarimsharlari funksiyalarining muayyan yo'nalishi alohida ahaniyat kasb etadi.

Chap yarimsharlar	O'ng yarimsharlar	<i>I-shakl</i>
<i>Xronologik tarib</i>	<i>Kundalik vaqt</i>	
<i>Karta, ommalarni o'qish</i>		
<i>Ism, so'z, simvolarni esda saqlab qolish</i>	<i>Obrazlarni, aniq hodisalarini esda saqlab qolish</i>	
<i>Nutq aktivligi</i>	<i>Emotsional xolani his etish</i>	
<i>Olamni quvnoq, engil ko'rish</i>	<i>Olamni ma'yus, g'angin ko'rish</i>	
<i>Detallli idrok</i>	<i>Bir butun obrazli idrok</i>	

Psixologik hodisalarini o'rganishda P.K.Anoxining funktsional sistemasi to'g'risidagi nazariyasi muhim ahaniyatiga ega. P.K.Anoxin fikriga ko'ra xatti-harakat aktsessori harakat natijalarini oldinga qo'yilgan maqsad bilan solishtirishga imkon beradi.

Ong faqat insonga xos bo'lib, obyektiv voqelikni psixik aks ettrishning olyi formasidir. Ong strukturasiga quyidagi elementlar kiradi:

<i>Suhbekt va obyektni farg'lash (o'zlikni anglash va o'z-o'zini bilish).</i>	<i>Insomning maqsadli, atohida munosabatlarini kiritish (hissiyot olami).</i>	<i>2-shakl</i>
---	---	----------------

Ong shakllanishining asosiy sharti tildir. Inson psixikasining ong osti nossalari bu inson xulq-atvoriga, ong mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan

anglanmaydigan psixik protsesslar yig'indisidir (masalan: intuisiya, subinsor idrok).

Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan aniq anatomiq-fiziologik apparatining ishlashini taqozo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiatini va harakatini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiniya, kebernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi. Shunday qilib, psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarni va mexanizmlarini o'rganadi.

1.2. Psixologiya fanning tarixi

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo'lishi haqida yana bir qancha turli-tuman fikrlar bor. Uzoq asrlar davomida psixika va uning paydo bo'lishi, taraqqiyoti masalalariga har xil nuqtai nazaridan yondashib kelindi.

Psixologiyani ruh to'g'risidagi fan sifatida shakllanishida quyidagi **4 asosiy bosqichni** ajratish mumkin:

1. Psixologiya ruh to'g'risidagi fan sifatida – 2,5 ming yil avval inson hayotidagi mavhum xossalarni ruh orqali tushuntirishga harakat qilganlar.
2. Psixologiya ong to'g'risidagi fan sifatida XVII asr. Fikrlash, his qilish, istaklar ong devilgan. O'rganish metodlari - introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish).
3. Psixologiya xulq-atvori to'g'risidagi fan sifatida – XX asr boshlari. Ko'rish mumkin bo'lgan hodisalar kuzatilgan – xulq-atvori harakatlari, reaksiyalar. Motivlar hisobga olinmagan.
4. Psixologiya psixik qonunlar, mexanizmlarni o'rganadigan fan sifatida – zamonaviy bosqich.

Psixikaning taraqqiyoti, uning harakati – o'zgarishidir. Qadimgi faylasuflar ruhiy hodisalarning rivojlanishini turlicha talqin etib keldilar, uni ilohiy kuchga bog'lab tushuntirishga harakat qildilar. Masalan, grek filosofi Fales (eradan avvalgi 624-547 yillar) odamning ruhiy hayotini bug' shaklida tasavvur qilgan va uning asosida suv yotadi degan. Anaksimen esa (eradan avvalgi 588-525 yillar) ruhiy hayotning manbai havodir deb ta'lim bergen. Geraklit (eradan avvalgi 544-488 yillar) ruhiy hayotning manbaini olov deb targ 'ib qilgan.

Qadimgi falsafanining mashhur namoyandalarini Suqrot (eradan avvalgi 469-399) va Platon (eradan avvalgi 427-347 yillar) ham inson psixikasi, ruhiy hayotni haqidagi butunlay boshqacha nazariyani olg'a surganlar. Ularning fikricha, tana va jon boshqa-boshqa qismi lardir. Go'yoki jon inson tanasiga "ideal" dunyodan kiradi-yu, ma'lum vaqtidan so'ng yana o'sha dunyoga qaytib ketadi.

Mashhur faylasuf Demokrit esa (eramizdan avvalgi 460-370 yillar) inson organizmi atomlardan tashkil topgan, uning ruhi mayda atomlardan iborat degan fikri olga suradi.

Psixologiya tarixida psixika va uning taraqqiyoti haqida turli-tuman fikrlar yuqoridaqitardan tashqari ham juda ko'p. Psixik hodisalarini materialistik nuqtai nazaridan talqin etishda mashhur grek faylasufi Aristotelning (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) xizmati kattadir. Aristotel qadimgi faylasuflardan birinchisi bo'lib psixologiyani alohida fan sifatida qaradi, psixik hodisalarga materialistik nuqtai nazaridan yondashdi. Uning "Etika", "Ritorika", "Metafizika", "Hayvonlar tarixi" kabi asarlariida turli psixik hodisalarga oid fikrlar juda ko'p. Psixologiya bo'yicha birinchi ilmiy asar Aristotelning "Ruh to'g'risida" traktati hisoblanadi.

Aristotel o'ziga cha bo'lgan faylasuflarning, jumladan, o'z ustozzi Platonning psixologik qarashlarini tahliil qildi. Aristotelning psixologik ta'limotida ruh va tananing o'zaro munosabati muammo si muhim o'rinn tutadi.

Geraklit, Demokrit, Aflatun, Aristotelning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqqa, asos bo'idi. Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hozir biz psixika deb atayotgan darajaga nisbatan qo'llanila boshladi. Psixika kategoriyasi zamirida ong haqidagi tushuncha maydonga keldi. Kishi faqat idrok va tafakkurga ega bo'lib qolmasdan, ularni unga mansubligini e'tirof etisnga ixtiyoriy harakatlari qilibgina qolmasdan, balki bu harakatlarni uni o'zi qilayotganini bishishga ham qodirdi.

XVII asr biologik va psixologik bilmilar taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Fransuz olimi Dekart (1596-1650) xulq-atvoring reflektor tabiatini haqidagi ta'limotini yaratdi. Ingliz olimi Gobes (1588-1679), Fransuz olimi Spinoza (1632-1677) olaanning bir butunligini, tana va jon to'g'risidagi ta'limotini yaratdilar. Ingliz olimi Jon Lokk (1632-1704) empirik (tajriba) asosidagi ta'limotni empirik psixologiyani yaratdi, shundan keyin rus olimlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, L.E.Vvedenskiy, A.A.Uxtomskiy inikos nazariyalarini yaratdilar. Refleks haqidagi tushuncha organizmnning tashqi ta'singa qonuniy javob reaksiyasi sifatida paydo bo'idi. I.M.Sechenov (1829-1905) "Bosh miya reflekslari" (1963) asarida "ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir", degan xulosaga kelgan edi. I.M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariyat qoidalari I.P.Pavlov (1849-1939) tomonidan tajriba yo'li bitan tasdiqlandi va aniqlashtirildi. U hayvonlarni shuningdek, odamning tashqi muhit bitan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarni kashf etdi. I.P.Pavloving ushbu qonuniyatlarga nisbatan barcha qarashlari odatda ikki xil signal sistemasi haqidagi ta'limot deb aytiladi.

O'rtta Osyo xalqlari boshqa dunyoviy fanlar qatori psixologiya fani sohasida ham boy merosga ega. Xalqimizning buyuk namoyandalar, butun dunyoda nomi tarqalgan mutafakkirlar, olimlar va shoirlar inson ruhiy jarayonlarini talqin etishda o'z zamonusi uchun ilg'or fikrlarni olg'a surdilar. Ularning psixologiya sohasidagi fikrlari, milliy psixologiya tarixi va hozirgi mustaqillik davri uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir. IX - XI asrlarda ijod etgan mutafakkirlarimiz hayoti O'rtta Osyo, umuman yaqin va O'rtta Sharoda iqtisadiy va siyosiy ziidiyatlar kuchaygan, har xil ijtimoiy tabaqalar o'rtasida kurashlar avjiga chiqqan, turli-tuman g'oyaviy oqimlar orasida keskin kurashlar bosholangan bir davrga to'g'ri keldi.

Shu davorda ijtimoiy hayotning boshqa sohalariagi kabi inson ruhi (psixikasini talqin qilish borasida ham turli yo'naliishlar va oqimlar o'rtasida keskin kurash ketar edi. O'rtta Osyo mutafakkirlarining ilmiy ijodi materialistik yo'naliishni yanada rivojiantirish, mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb edi. O'rtta asr psixologik qarashlarda O'rtta Osyolik mashhur mutafakkirlar Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylarning psixologiya sohasidagi fikrlari muhim ahamiyatga egadir.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy (870-950-951), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1048-1131), Mirzo Ulug'bek (1394-1449) inson psixikasi, yosh avlodni tarbiyalashda o'z fikr – mulohazalarini boy meros qilib qoldirganlar.

Forobiyning ruhiy jarayonlar haqidagi ta'lomi, ya'ni psixologiya ilmining rivojlanishiqa qo'shgan hissalarini uning falsafiy ta'lomi bilan uziy bog'langan. Forobiyning inson va insonning ruhiy jarayonlari to'g'risidagi fikrlari uning dunyoqarashi sistemasida diqqatga sazovor bo'lgan progressiv fikrlardandir. Undan sodi, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning insondagi ruhiy jarayonlarni sanab o'tish bilangina chegaralamay, balki bu jarayonlarning kelib chiqishi, tartibi, har birining roli to'g'risida ham mulohaza yuridi, inson ruhiy quvvatlari - psixik jarayonlari uning asarlariда anchagina keng yoritildi.

Forobiy hozirgi psixologiya ilmi tomonidan o'rganiladigan va insonda mavjud bo'lgan deyarli barcha ruhiy jarayonlar to'g'risida o'z zamonusi uchun anchagina mukammal tasavvurga ega bo'lgan va ularni asosan turini talqin etgan. Abu Ali ibn Sinoning psixologiya masalalari bilan shug'ullanishiqa, o'zidan ilgari o'gan Sharq manifikatlari olimlari tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni o'reganib, fanning bu sohasi bo'yicha ham o'zining fikrlarini bildirish, antik dunyo olim, faylasuflarining ta'siri ham katta rol o'yndi. Xususian Aristotel Ibn Sinoning falsafada "birinchchi o'qituvchisi" edi. U Aristotelning "Jon haqida"gi asari bilan yaxshi tanish edi, olimning meditsina sohasidagi olib borgan ishlariда odam anatomiyasи, fiziologiyasi va nerv sistemasini yaxshi o'reganish va shu asosda har

xil kasalliklarni davolash jarayonida kishilarning psixik xususiyatlarini bliish zarur edi.

Ibn Sino Forobiyning sezgilar to'g'risidagi ta'lomitini rivojlantririb, insonda beshta sezgi (ko'rish, eshitish, hid bilish, maza va teri-tuyg' u) mayjud ekanligini, sezgilar orqali, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarining ta'siriga javob qaytarilishi, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to'xtalib, har qaysi sezginining bosh miyada alohida boshqarib boradigan markazi bor ekanligini ishonch bilan bayon etadi. Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, hayol xotirasi va iroda sifatlariga yuksak baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-birlari bilan mustahkam bog'liq ekanligini anglaydi.

Ayniqsa, Ibn Sinoning temperament (mijozlar) to'g'risidagi fikrlari tabiyiylimi jihaldan diqqatga sazovordir. Bu sohadagi ta'lomit qadimgi Gretsiya olimi Gippokrat kabi odam tanasida to'rt xil modda (safro, qon, qora o't, balg'am) bor, shu moddalardan biortasi organizmda ko'proq bo'lsa, bu odam mijozining (temperamenti) tipini belgilaydi.

XIX asr oxirlarida, aniqrog'i, 1879-yilda nemis olimi Vilhelm Vundt Leybnis universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologik laboratoriyaiga asos soldi, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o'zini ko'rsatishga haqli ekanligini isbotladi. "Psixologiyaning otasi" hisoblangan Vilgelm Vundt esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar to'plashga o'z diqqatini qaratdi.

Psixologik tadqiqot metodlari psixologiya amal qiladigan nazariy principiarga va psixologiya hal etayotgan aniq vazifalarga bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi. Psixologiyada empirik metodlarni qo'llash muammosini ko'rib chiqilayotganda ularni psixologik metodlar tizimidagi o'mini aniqlashdan boshlash kerak.

1.3. Psixologiya fanning asosiy metodlari

J-shakl

Kuzatish metodi	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish)
Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan	
Guruhi ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish	

So'roq metodi	Og'zaki Yozma Erkin (suhbat) Standartlashtirilgan
Test metodi	ro'yxat qilish bilan chegaralananadi. Kuzatuvchi ro'yxatni to'g'ridan-to'g'ri yoki savohnoma asosida yozib boradi. Xuddi shu narsa ta'sir qilish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Eksperiment jarayonida to'g'ridan-to'g'ri mulogot metodi orqali o'tkaziladi. Bu ikkinchi jarayon psixologik eksperiment metodlaridir. Uchinchi jarayonda eksperimentator kuzatuv jarayonida tabiiy usullardan yoki "tushunish" metodi dan to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvchiga nisbatan qo'llaydi. Eksperiment jarayonida kuzatuvchi vazifalarni faol bajaradi. Kuzatish, so'rov davomida esa unga hech qanday vazifa berilmaydi va u o'zini erkin tutadi.
Eksperiment	Tabiiy Lobaratoriya
Modellashtirish	Matematik Mantiqiy Texnik Kibernetik

Psixologiyada boshqa fanlar analogiyasi bilan uchta metodlar tasnifini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

Empirik, tekshirish subyekti va obyektning tashqi real munosabatlari amalga oshiriladi.	<i>Ma'lumotlar hisoblanadi, obyekti sharoitini asboblar yordamida o'rganadi.</i>
Nazariy, subyekti obyektning hayotiy modell bilan o'zaro munosabatda bo'radi.	<i>Nazariy metodlardan foydalanish natijasi tabiiy til belgisi yoki ochiq ssemmatik shaklidagi predmet haqidagi bilim bilan qo'shilgan.</i>
Interpretsiya(ayta ishlash) va tasvirlash, bunda subyekti "tashqaridan" obyekting simvolik – belgisi hayoli bilan munosabatda bo'radi.	<i>qayta ishlash- tushuntirish metodlari bu nazariy va eksperimental metodlari qo'llanilishda, ularning o'zaro munosabati natijalarining "uchkrashish joyi" dir.</i>

Eksperimental psixologik metodlariga murojaat qilishdan oldin ularni umumiyl-ilmiy pozitsiyalarini ko'rib chiqamiz. Barcha metodlar ma'lumotlar olish uchun ishlataladi. Ular aktiv va passiv/larga ajratilgan. Aktivlariga laboratoriya eksperimentlari va ularning modifikatsiyasi, kvazi-eksperiment kiradi. Passivlariga – kuzatish, kichik metod, faoliyat mahsuli analizi, o'tchash va korrelyatsion foydalanadilar ammo ular kimyogarlar va fiziklar uchratmaydigan muammolarga

kuzatuvlar, ma'lumotlar yig'ish metodi va h.k. Birinchi metoda kuzatuv, hodisa va jarayonlar bilan faol tanishitiradi.

Albatta obyektniga ta'sir ergan holda, ikkinchi metod jarayoni esa uni faqat ro'yxat qilish bilan chegaralananadi. Kuzatuvchi ro'yxatni to'g'ridan-to'g'ri yoki savohnoma asosida yozib boradi. Xuddi shu narsa ta'sir qilish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Eksperiment jarayonida to'g'ridan-to'g'ri mulogot metodi orqali o'tkaziladi. Bu ikkinchi jarayon psixologik eksperiment metodlaridir. Uchinchi jarayonda eksperimentator kuzatuv jarayonida tabiiy usullardan yoki "tushunish" metodi dan to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvchiga nisbatan qo'llaydi. Eksperiment jarayonida kuzatuvchi vazifalarni faol bajaradi. Kuzatish, so'rov davomida esa unga hech qanday vazifa berilmaydi va u o'zini erkin tutadi.

Kuzatish metodining asosiy afzalligi shundan iboratki, kuzatish tabiiy sharoitda o'tkaziladi, kuzatish kuzatilayotgan shaxslarning odatdag'i xulq-atvorlarini o'zgartirmaydi. Kuzatishni bitta odam ustida ham va bir guruh shaxslar ustida ham olib borish mumkin. Bu metod bolalar bog'chasi guruhi kuzatish maktab sinfigagi bolalarni o'rganish uchun qulaydir. Kuzatish metodining kamchiliji uning anchagina nehnat talab qilishidir. Tadqiqotchi psixologni xulq-atvorming istalgan qiyofada emas, balki aniq tadqiqot vazifalari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishingina qiziqiradi. Shuning uchun kuzatuvchi shaxs xususiyatlari va psixik holatlarining o'ziga kerakli tarzda namoyon bo'lishini kutib turishi kerak. Bundan tashqari, psixik xususiyatlarning yakka holda namoyon bo'lishini kuzatish va qayd qilish etarli emas. Tadqiqotchi u yoki bu xususiyatlarning xarakterligiga, tipikligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bundan tashqari eksperimental psixologiyada quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o'z hoxishi bilan qandaydir psixik jarayon yoki xususiyatni yuzaga keltirib psixik hodisanieng tashqi sharoitga bog'liqligini tekshirib ko'rishni mumkin. Eksperiment metodining ana shu aflatlligi uning psixologiyada keng qo'llanilishi bilan tushuntiriladi. Empirik, ya'ni tajriba yo'lli bilan qo'liga kiritilgan faktlarning asosiy ko'pchiligi psixologiyada eksperimental yo'lli bilan olingandir. Biror har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni qo'llab bo'maydi. Masalan, agarida psixik jarayonlar va funksiyalar ko'proq eksperiment yo'lli bilan o'rganilsa, shaxsing birmuncha sodda xususiyatlari (temperament, qobiliyatlar) ham shu metodda o'rganiladi. Lekin xarakterning va qobiliyatlarning murakkab turlarini halil eksperiment metodi bilan o'rganib bo'maydi.

Har qanday holatga nisbatan eng yaxshi izoh yoki tushuntirish atroficha izlanishidan keyin paydo bo'radi. Tadqiqotchi psixologlar ilmiy usulbilardan foydalanadilar ammo ular kimyogarlar va fiziklar uchratmaydigan muammolarga

duch kelishadi. Bir muammoni misol qilib ko'tsatamiz: Psixologlar ma'lum odamlar janoasini ilmiy jihadan o'rganayotganda ulardan birining o'zini g'ayriiddiy tutishda havotirda bo'lishiadi. Kamyogar metan molekulalarini o'raganayotganda hech qanday havotirda bo'maydi. Kamyogarlar xohlagan narsasini ustida amliyat bajarishi mumkin albatta labaratoriyanı portlatmagan holda psixologlar odamlar bilan bevosita uchrashtgan holda qat'iy belgilangan chekllovlar asosida ish olib boradilar. Yana boshqal bir muammo shundaki odamlar kuzzatuvdaliklarini biliq qolishsa o'zlarini noodatiy tuta boshlaydilar. Kamyogarlarning kamyoviy moddalarida bunday muammoning kelib chiqishi aqlga sig'maydi. Bu bo'ilimda siz fanning umumiyy tamoyillari va bu tamoyillardan psixologlar chiqigan maxsus ustublar haqida o'rganasiz.

Dalillarni yig'ish fan bu bilim demakdir. Ilm-fan - bu nusxa ko'chirsa bo'ladigan ma'lumotlarga asoslangan bilimlarni qidirishdir.

Keling dastlab ma'lumot yig'indisi keyin esa nusxa ko'chirsa bo'ladigan iborasi haqida fikr yuritaylik.

Tadqiqot ehtiyojkorona qidirish bilan boshlanadi. Masalan Robert Provine kulguni savdo markazlariga borib kim qachon kulganimi tasmaga yozib olgan.

Psixologlar kuzatish orqali masalaga oydinlik kiritmoqchi bo'lsa xohlasa gipoteza paydo qilishadi va sinab ko'rishadi.

Gipoteza-aniq taxminiy izoh gipotezani sinash quyidagi 4 qisimni tasvirlovchi pog'onalar ketma-ketligi bilan amalga oshiriladi. Ko'p ilmiy malumotlardagi maqollar ham aynan shu ketma-ketlikka amal qiladi. Bu kitobning har bir bobida, siz dalii nima deb nom berilgan bo'linda psixologik ta'limga kamida bitta namuna topa olasiz ularning har birini gepotezdan to so'ngida unga izoh berilgunga qadar izchillik bilan amalg'a oshiriladi.⁶

Kundalik hayotingiz davomida siz o'z tanlovingizning to'g'riligiga ko'pincha ishonchszizlik bilan qaraysiz. Ko'pchilik odamlar har doim ham ruhiy holatini va psixologik sifatlarini to'g'ri tavsiflab bera olmaydi, bunga intilmasligi ham mumkin. Psixologiyada proaktiv testlar metodikalar haqida ko'p iztanishlar olib borilgan.

Suhbat metodi. Bu metod tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladi: masalan, daslatki tanishish bosqichida ham boshqa metodlar, ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo'iga kiritilgan xulosalarni aniqlashda qo'llaniladi. Suhbat metodidan mohirlik bilan foydalanish juda qimmatli natijalarga erishishga yordam berishi mumkin.


Interview metodi. Psixologiya fani dagi bu metod sotsiologiyada keng qo'llaniladigan anketa metodidan farq qiladi. Xuddi suhbat metodi kabi intervyyu metodi ham so'roq-javob metodiga tegishlidir. Ko'pincha intervyyu uchun savollarni sotsiologik anketalar tipiga o'txhatib, ya hi ko'p masalalar yuzasidan ko'plab javoblar olishni ko'zlab tuziladi. Intervyyu metodiga bunday tarza yondashish tadqiqotning faqat birinchи bosqichiga, muammo bilan dastlabki tamishish bosqichiga to'g'ri keladi. Biror bilimlarni va o'rganayotgan psixik xususiyatlarni strukturasini hisobga olib tuzilgan savollar o'rganayotgan xususiyatlardan keyin aniqlash uchun juda qimmatli natijalar berishi mumkin.

Eksperter baholash metodi. Bu metod shaxs psixologiyasida keng qo'llaniladi. Ekspertlar sifatida tekshirilayotgan kishilarni yaxshi biladigan shaxslar – bolalar bog'chasi va maktab-internattarning tarbiyachililarini, sinf rahbarlari, ishlab chiqarish, texnika bilim yurtlarning masterlari, ishlab chiqarishdagi masterlari, ilmiy janoa rahbarlari, harbiy komandirlar, administratorlar, sport trenerlari qatnashishlari mumkin. Eksperter baholarni ko'proq ekspertlar bilan qilinadigan keyingi suhbatlarda o'kazilsa ancha foydaliroq tarzida, ya'ni u yoki bu xususiyatlarning ifodalanganishini miqdoriy baholash tarzida o'kazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspertlar umumlashtirish bilan bog'liq bo'limgan xulq-atvor elementlarining ancha-muncha mayda qismlari ifodalanganligini qayd qilishi lozim. Umumlashtirish – eksperimenting emas, balki tadqiqotching ishidir.

O'z-o'zini kuzatish metodi. XVIII-XIX asrlar empirik psixologiyasi tomonidan kamtsitiigan bu metod so'nggi yillarda yana ma'lum ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunonchi, suhbat va so'roq-javob metodlarini o'z-o'zini kuzatish metodi orqali olingan ma'lumotlarsiz qo'llab hisobga olish zarur. Lekin o'z-o'zini kuzatish, garchi psixologik tadqiqotlarning asosiy metodi bo'lmasa-da, mustaqil ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin. O'z-o'zini kuzatish metodi psixik holattarni, ya'ni tetik kayfiyatni, achchiqlanishni, ischanlikni, kasb bilan bog'liq bo'lgan sermaksu istishni o'rGANISHIDA ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Testlar metodi. Testlar, ya'ni ozmi yoki ko'pmi standartlashtirilgan (bir xillashtirilgan) shaxs xususiyatlarni qisqa muddati sinash metodlari yaxshi yoki yomon asoslangan bo'lishi mumkin. Yaxshi asoslangan bo'lishi mumkin.

* (Djevms K. 26-27 ber).



o'tkazilgan katta eksperimentlar natijasidir. Nazariy jihatdan asoslangan va eksperimental jihatdan muhokama qilingan testlar tadqiqotchi uchun ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi mungkin.

Arxiv metodi. Amerika ilmiy adabiyotlarida "Arxivlik metodi" degan atama qabul qilingan, bunday tadqiqotlarni o'tkazuvchi psixolog sinataluchining aktual xulqini kuzatmaydi va o'chamaydi, kundalik qaydnomalami va yozuvlarni, arxiv materialarini, mehnat, o'quv yoki ijodiy faoliyatini analiz qilinadi. Ko'p hollarda uni "faoliyat mahsullarini o'rganish" yoki "praksimetrik metod" deb ifodalanadi. Tadqiqotchi tadqiqotlar matnini, faoliyatning predmetli mahsulotini turli xil maqsadlarda o'tkazishi mumkin. Maqsadlar joriy qitishning aniq usullarini arxivlik metodi uning xilma-xilligini ajaratib ko'rsatadi.

1.4. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida kishilar ongida gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilgani uchun ham uning ushbu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va etakchidir.

Psixologiya va falsafa. Eng avvalo fanni falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqasi xususida. Bu aloqa ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlanib tendentsiyalarini belgilashdagi o'mni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlari va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiiga yordam beradi.

Psixologiya va tarix. Psixologiya va tarix fanlarining uzviy bog'iqligi ayniqsa, mustaqillik yillardira tarixni kolisona o'rganish va shu bilan birga inson shaxsinining madaniy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'iqliq tarzda rivojlanishi aymiyatini xalq ommasi ongiga etkazishida namoyon bo'imorda. Zero, inson ruhiyati va u vakil bo'lgan millat va elat psixologiyasi orqali tarixiy voqealarga baho berish milliy istiqloл g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishning muhim vositalaridan biridir.

Psixologiya va sotsiologiya. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlardan sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, o'z navbatida psixologiya ham ushu fan erishgan yutuqlardan foydalananadi va ularning ko'lami kengayishiga baholi qurdat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat

kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi.

Psixologiya va pedagogika. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy handa azaliy karakter kasb etib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon tabalari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdag'i ta'ilim muassasalarida, xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaloviy shakllarini amaliyotga tabbiq etishni nazarda tutadi.

Psixologiya va tabiiy fanlar. Biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va boshqa fanlar psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy-fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarni obyektiv o'rganish uchun material beradi.

Psixologiya va kibernetika. Kibernetika fani sohasidagi erishiilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'liga kirilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rniда foydalanadi.

Psixologiya va texnika fanlari. Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, ast oxiriga kelib yaqqaq sezilmoga. Bir tomonдан murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomonidan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalaniш zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda psixologiyaning bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi singari tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

Umumiy psixologiya	Ijtimoiy psixologiya	5-shakl
Shaxs psixologiyasi Psixikaning taraqqiyoti Qiyosiy psixologiya	Guruh psixologiyasi Oila psixologiyasi Etropsixologiya	
Pedagogik psixologiya	Ta'ilim psixologiyasi Tarbiya psixologiyasi	
Yosh davlati psixologiyasi	Bolalik davri O'smirlilik davri	

<i>Yuridik psixologiya</i>	Kriminalistika Sud psixologik eksperitza
<i>Tibbiyat psixologiyasi</i>	Tergov psixologiyasi Psixoterapiya Patopsixologiya Psixopatologiya

Demak, bugungi psixologiya fani va uning tarmoqlarining predmetini belgilashda yoshlari ongida to'g'ri dunyoqarashni miltiy istiqlol g'oyalari va uning asosiy tushunchalari va tamoyillari asosida shakkantirish masalalari nuqail nazaridan yondashish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

1.5. Zamonaliviy psixologiya fanining asosiy sohalari

Inson o'zining kimligini anglashga intilishdan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga extiyoj sezishdan, o'mish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran psixologiya fan sifatida rivojlana boshladi. Psixologik bilimlar juda uzoq o'mish tarixga ega bo'sada, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishiga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zuriyatining taqozosi edi. Psixologik holattarni tadqiq qilish, ya'n'i psixika mohiyatini tushunish maqsadida o'sha davrda eksperimental ijmiy-psixologik laboratoriylar vujudga kela boshladi. XIX asning oxiri va XX asning bosqlariga kelib psixologiya fani to'g'risidagi ilmiy tushunchalarda keskin o'zgarishlar yuzaga keldi va ularning ta'siri natijasida psixologiyaning tadqiqot obyekti sifatida insonga muhitning ta'siri, uning xulq-atvorini o'rganish muammolari tanlab olindi. Shu davrda psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shgan bir qator konsepsiylar, nazariyalar, oqinmlar va yo'nalishlar vujudga keldi.

Bixevoirizm - AQShda E.Torndayk, D.Uotson kabi olmlar dastlab havvonlarda keyinroq odamlar xulqini o'rganish asosida xulq-atvor psixologiyasini yaratdilar. Bixevoirizmning formulasi SR (Stimul Reaksiya) tasirga javob berishdan iboratdir. Bixevoirizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K.Xoll va V.Skinnerlar nomi bilan bog'iqli. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan K.Miller, D.Dollard, J.Tibo, G.Kelli va boshqalar diada – ikki kishi o'tasidagi munosabatlarning xilmoxil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar.

Klassik bixevoirizmdan farqli o'laroq ijtimoiy-psixologik bixevoiristilar hayvonlar o'miga laboratoriyaiga naqd pulga odamlarni taklit eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgarigi hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insolarda qo'llash hollari kuzatildi.

Nebixevoirizm - tajriba yo'li bilan ta'siri o'rganish, oraliq uзilishlar bo'lishi haqida, buning asosida geshtalt, ya'n'i tasvir haqidagi ta'llimotdir. Uning asoschilari E.Tolmen hisoblanadi, xuddi shu ta'llimot asosida avstriyalik vrach psixiatr Z.Freyd psixanaliz ta'llimotini yaratdi. Tushunish psixologiyasi – bu oldindan his etish ya'n'i intuitsiyaga asoslangan qarash bo'lib, uning asoschisi V.Dilten (1833-1911) hisoblanadi. U tabiy ilmiy va diniy ilmiy degan ikki yo'nalishdagagi funlar tizimini taklif qildi.

Freydizmning jabon ilmi va amaliyoti uchun ta'siri shu qadar katta bo'ldi-ki, jamoadagi yoki guruhiy ongsizlik g'oyasini ilgarni surgan K. Yung hamda individual psixologiyani targ'ib etgan, A.Adler va ularning izdoshlari bu kontsepsiyanı yanada rivojlantrishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu nazariya va kontsepsiya hanuzgacha shaxs psixologiyasini, psixoanaliz esa psixoterapiyani o'rganishda asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

Neyfeydizm - avstriyalik A.Alfred (1870-1937) shveysariyalik Yung Karl Gustav analitik psixologiyani, amerikalik Xorney (1885-1952) psixoanaliz ta'llimoti asosida o'z nazariyalarini yaraadiilar, unga muvofiq odam tashqi ta'siga javoban o'z strategiyasini ishlab chiqadi, ya'n'i odamlarga intilish yoki odamlardan qochish, unga qarshi chiqish yoki yonbosish ishtiyoqida bo'лади. Har doim nevrolik, konflikt holatidan chiqish yo'llarini qidiradi.

Ustanovka nazariyasi - ta'sirga tayyorlik, oldindan ko'ra bilish nazariyasi. Bu nazariyani Rossiyada L.Lange (1858-1921) Germaniyada G.Myuller, T.Shumen, N.Ax (1871-1946), Gruziyada D.N.Uznadze (1886-1950) asoslab berdilar.

Madaniy tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi haqida N.S.Vigotskiy (1896-1934) nazariyاسini yaratdi.

Tafakkur nazariyasi S.L.Rubinshteyn (1889-1960) yaratib, muammoga fioliyatli yondashuvni taklif qildi.

Psiyologiyada shakkantirish bo'lgan uch asosiy oqim - psixoanaliz, bixevoirizm va geshtaltpsiyologiya ichida ham ijtimoiy xulq-atvomi kichik guruhlar doirasida o'rganish tendentsiyasi paydo bo'ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlarga va ularda turlicha eksperimental o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakkantirishda nihoyatda katta rol o'yndadi.

Gestalt-psixologiya

yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy-psixologik fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Psixoanaliz doirasida esa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar E.Fromm va J.Salliven ishlari bilan bog'liq bixevoiristlardan farqli o'laroq bu yerda eksperimental ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirokida o'tkazila boshladi. Uarning izdoshlari V.Bayon, V.Bennis, G.Sherarde, V.Shutklarning o'tkazgan taddiqotlari tufayli hozingi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan **kichik "T" guruhlar** psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta'siri, gunuhning ayrim individual fikrlariga ta'siri kabi masalar ishlab chiqildi va ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkazisha asos solindi.

psixologiyada eksperimental tarzda tadqiq etilgan. Masalan, sinatuvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida soatiga qaramay, sekundlarini o'z ichida sanash orqali bir minutning cho'zilishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshinilib turilgan, ba'zan "yolg'on" signallar, ya'ni lampochka yonish bilan tajriba bo'linishga yo'l qo'yilgan. Qatnashchilarida eksperimentatorga ishonch bo'lganligi sababi xatolarga yo'l qo'yishgan. Ishonuvchanlikni antiqlasida **"konformizm"** (kelishuv, murosa-yu, madora)dan foydalaniqgan. Ichki va tashqi kelishuvchanlik (konformizm), ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchanlik mohiyatini o'rganish uchun obyekt sifatida foydalaniqgan. Bir guruh odamlarning ochiq ovoz berish konformizmning namoyon bo'lishi idir. Lekin konformizm "soxtalik"ni ham keltirib chiqarishi mumkin, uning aks ettruvchisi esa **konformist** deb ataladi, ko'pincha ideallardan voz kechish hollari ham uchrab turadi.

20-shakl

Shaxsing jamiyatdagi xulqini yoritishning jihatları:



Motivlar, ya'ni xatti-harakatlarimizing sababları biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya'ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag'lubiyatga uchraganini biliadi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizing sababları bizga ayon bo'tavermaydi.

Insan hayoti davomida turli voqe'a-hodisalarining guvohi bo'lishi natijasida, o'z ehtiyoji, qiziqish va xohishlarini qondirishga intilishi sababli, turli mazmundagi muammolalar yuzaga kelishimi anglab oladi. Agarda A. Maslouning ehtiyojlar iterxiyasiga e'tibor qaratsak, insan xavfsizligiga bo'lgan ehtiyojlarining 70%gacha qondirilishi mumkin ekan. Shu nuqtai nazardan psixologiya fanida nisbatan yangi tushunchalardan biri bu – **assertive xulq** hisoblanib, asosan insonning shaxsiy xususiyatlarini tasniflashda qo'llaniladi.

Assertivlik – o'z xaq-huquqlarini dadil himoya qilib, o'z sha'mini, qadrini saqlab, boshqalarning xaq-huquqini poymol qilmasdan, o'zini turli mazmundagi ta'sirlardan himoyalash qobiliyatidir. Ijtimoiy-psixologik jihatdan ijtimoiy

monobahatur doirasida boshqalarning shaxsiyati, hayot tarzi, qadriyatlariga ziyon ekozonalik mazmunga ega bo'lgan ochiq xulq tarzi assertiv deb ataladi. Amaliy psixologik yordam ko'rsatish tarixiga nazar solsak, psixologik yordam olish uchun munqajat etganlarning 57,4% assertivlikning mayjud bo'limganligi sababli otilada va knabiy jamoalarida o'z "Men"ini shaxs va xodim sifatida namoyon eta shinganliklарini kuzatish mumkin. Bizningcha, ularning "Men konsepsiysi" dagi "psixologik men"i va "olaviy men"ida ta'llim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan etishmovchiqliklar kuzatiladi.

Assertivlik ifodalangan insonlarda o'z hayotining har bir lalzasiда nima bilan shug'ullanishi va qaysisi yo'naliishi rivojlanishi lozimligini o'zi hal eta olishi kuzatiladi. Inson o'zini o'zi yaratadi va u "o'zidan nimani yaratara olgan bo'lsa, shunga aylanadi", buni insondag'i bунyodkorlik kuchi deb ko'rsatsak xato qilmoqjan bo'lumiz. Assertivlik, inson shaxsiy xususiyatlarining uyg'un birlashishi bo'lib, unda insonning aniq bir vaziyatda axloqiy jihatdan ma'qullangan tabiat, munqajot, ko'nikma va malakalari haqidagi bilimlari pozitiv yo'nalgan dunyoqarash positiyiyadidan aniq bir sa'y-harakatlar ko'rinishida ifodalananadi.

Assertiv xulq egasi bo'lgan insonlar boshqa odamlarning humratini joyiga qo'yib, birovga ziyon keltiradigan ish qilmaydilar, ammo birovlar "o'yamatmoq"chi bo'lsa, bunga aslo yo'l qo'ymaydilar. Tadqiqot davomida o'tkazilgan diagnostik ashtor, ijtimoiy-psixologik so'rovnomalarning natijalari asosida shuni ko'rsatib o'tish mumkinki, ijtimoiy hayat doirasida aynan shu xususiyat sababli ba'zan nisoli vaziyatlar yuzaga kelish holatlari kuzatiladi. Bu toifadagi insonlarda ilmiquadiga erishish ball hisobida yuqori ifodalangan bo'lib, muxolif bo'lganlarga siyohn etkazmasdan, ya'ni ularning qadriyatarti va nufuzlariga putur etkazmasdan ishl ko'rudilar. Bu jihatdan qaraganda, assertivlik ijtimoiy munosabatlar tizimining takomillakhuvu uchun ham xizmat qilib, jamaoda In va Aut guruhlarining paydo bo'lganligi uchun xizmat qila olishimi kuzatish mum kin.

Assertivlik psixologiya fanining umumiyligi psixologiya, ijtimoiy-psixologiya va pedagogik psixologiya kabi mustaqil sohalarining tadqiqot predmeti sifatida o'tqazilma, uning tizimli psixologik tasnifi yaratiladi. Bu esa, yosolarimizga ta'llim-tarbiya berish jarayonida ilmiy-psixologik tadqiqotlarning natijalaridan foydalanan intionni yaratib, barkamol shaxslarni tarbiyalashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Shaxs va uning faoliyagini belgilovchi omillar nimalardan iborat?
2. Faoliik tushunchasini ta'riflab bering.
3. Faoliyatning qanday turlari mayjud? Ularni izohllang.
4. Faoliyatning psixologik xususiyatlari haqida gapirib bering.
5. Ehtiyojlar haqida ma'lumot bering.
6. Ijtimoiy hulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.
7. Motiv va motivatsiya nima?
8. Xulq-atvor va faoliyatning anglanilmagan omillari haqida ma'lumot bering.

V BOB. SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

REJA:

- 1.1. Temperament. Temperament turlariga psixologik xarakteristikasi.
- 1.2. Temperament va shaxs. Temperament tiplari.
- 1.3. Xarakter strukturasi va tipologiyasi.
- 1.4. Xarakter strukturasi va tipologiyasi.
- 1.5. Qobiliyatlar va ularning turlari.

Asoniy tayanch tushunchalar: temperament, xolerik, sangvinik, melanarklik, negmatik, gumorallar nazariya, ekstravertlik, introvertlik, xarakter, qobiliyat, talant, geniallik, iste'dod.

5.1. Temperament. Temperament turlariga

psixologik xarakteristikasi

Shaxsning individual xususiyatlarga – temperament, xarakter va qobiliyatni kirtilish mumkin.

Temperament – (lot. "temperamentum" – *ardashma*) inson psixikasining individual jihatidan o'ziga xos, shaxs faoliyati va xulqining dinamik, ya'ni o'zgaruvchun va emotsional-hissiy tononlarini xarakterlovchi xususiyatlar majmudid.

Shaxsning individual xususiyatlari uning tug`ma, biologik xususiyatlarga bo'lgan. Chunki aslida bir tomonidan shaxs ijtimoiy mayjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan biologik - yaxlitlik, tug`ma sifatlari o'z ichiga olgan individ hamdir.

Temperament hayotiy voqealar va vaziyatlarini, jamiyatdagi ijtimoiy jumuhumi "yaxshi – yomon", "ahamiyatlari – ahamiyatsiz" me'zonlari asosida ajratishga imkon berib, bunda temperament odamning ijtimoiy obyevtlarga ittihdot "sezgirligini" tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining o'shib borishiga yordam beradi.

Temperament xususiyatlari aslida – tug`ma hisoblangsada, shaxsga bevosita atloqador va anglandig'an bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda dinamik bo'lishda bo'lad. Shu bois, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs ijtimoiya atoqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Temperament haqida ta'llimot ilk bora yunon tabibi Gippokrat (eramizdan 86-yilgi 460 – 356 yillarda) tomonidan yaratilgan bo'lib, uning ta'llimotiga asosan "temporament" tushunchasi paydo bo'lgan va temperament turlarining nomlari shu kunga qadar saqlanib qolgan. Gippokrat fikricha inson organizmida **4 xil suyuqlik mavjud:** saflo (yunon – "chole"), qon (lotin – "sanguis"), qora o't (yunon – "melane chole"), shilmishi (yunon – "hlegma"). Har bir suyuqlik o'z xususiyati

va o'miga ega. Safr o xususiyati – quruqlik. Uning o'mi organizmida quruqliki saqlash. Qonning xususiyati – issiqlik. U organizmni isitadi. Qora o't xususiyati – namlik. U organizmdagi namlikni saqlashga xizmat qiladi. Shilmsiqning xususiyati – sovuqlik. U organizmni sovutishga xizmat qiladi.

Gippokrat ta'llimotiga muvog'iq, insonda to'rt xil suyuqlikdan bittasi ustuvorilik qiladi. Ushbu suyuqliklar munosabati yunon terminalogiyasida "krasis" (aralashma, qorishma) deb ataladi, tarjima qilinganda "*temperament*" tushunchasi yo'zaga keladi.


Temperamentga taalluqli Abu Ali Ibn Sino qarashlari (980-1037) ham juda qiziqaflidir. U temperamentga tabiy va psixologik tushuntirish beradi. Ibn Sino ta'llimoti Gippokrat ta'llimotiga asoslangan bo'lib, uning fikricha temperament bir-biriga qarama-qarshi sifatlar munosabatida yo'zaga keladigan xususiyatdir. Ulardan birining ustuvorligi temperament turimi yo'zaga keltirib, bunda organizmdagi 4 ta suyuqlikdan biri ustuvor bo'ladi. Ibn Simoning fikrlari temperament haqidagi ta'llimot tarixida o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ilk bora temperament xususiyatlarining psixologik tavsig'i nemis faylasufi I. Kant gumaral nazariya assoschilariga suyangan holda, temperament va xarakter sifatlarini aralashib ketishi fikrini namoyon qildi.

Buyuk g'izilog, olyy nerv faoliyatining asoschisi I.P.Pavloving bergan ta'rifi ko'ra: ***temperament*** – har bir insonnинг alohida umumiy tafsifi bo'lib, nerv tizimining asosiy tafsifidir va u individuning faoliyatigi alohida tus beradi.

Temperament haqidagi ilmiy nazariyaga I.P.Pavlov ta'llimoti asos solgan. I.P.Pavlov nerv tizimining tipologik xususiyatlarini – olyy nerv faoliyatini ta'llimotida ifodalab berган. Olyy nerv faoliyatida I.P.Pavlov quyidagi nerv jarayonlarini ajratdi:

21-shakl



Nerv tizimining kuchi fizioligik moddalarine ko'pligiga qarab aniqlanib, unga asosan kuchi nerv tizimining turida - moddalar zahirasining ko'pligi, kuchsizda esa - kamligi ko'zatildi. Nerv tizimining kuchi qo'zg'alish jarayoniga bog'liq bo'lib, u tormozlanishda ifodalananadi.

Yuqorida ayrib o'tigan sifatlarga asoslanib, I.P.Pavlov olyy nerv faoliyatining asosiy turimi ajratdi. Ular Gippokrat temperament turiliga mos keladi:

22-shakl

1. Kuchli, og'ir vazmin emas. (qo'zg'alish tormozlanishdan ustuvor). Tez qo'zg'aluvechan tur.	Holerik turiga xos.
2. Kuchli, og'ir vazmin, harakatchan tur. Jonli tur.	Sangvinik turiga xos.
3. Kuchli, og'ir vazmin, bosiq, sekkin harakattanuvchan.	Flegmatik turiga xos.

Shunday qilib, I.P.Pavlov ta'llimotiga asosan temperament olyy nerv faoliyatining inson xatti-harakatida namoyon bo'ladigan individual xususiyatidir. Yuqorida ayrib o'tganimizdek akademik S.Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchini uch olyy nerv tizimi xossalarni ajratgan edi:

23-shakl

kuch	<i>nerv tizimining kuchi qo'zg'atuvcilari ta'siriga bardoshi, shunga ko'ra odamlardagi mehnatga yaroqllik, chidam kabi sifatlarining namoyon bo'lishi</i>
-------------	---

asabagi tomozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining o'zaro munanosibligi, shunga ko'ra, o'zini tutu olish, bosiqlik kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarining namoyon bo'lishi


harakatchanlik

<i>Qo'zg'alish va tomozlanish jarayonlaridagi o'zaro almashinish jarayonining texligi va harakatchanligi ma'nosida.</i>

5.2. Temperament va shaxs. Temperament tiplari

Nerv sistemasi bilan temperament tiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iminalda temperament tiplari quyidagicha aks ettrilgan:

24-shakl



Shaxs uchun xarakterli bo'lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida kishining temperamenti qandayligi haqidagi tasavvur vujudga keladi. Temperament tiplarining psixologik tavisi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi haqida mashhur psixolog V.S.Merlin temperamentning psixologik tastig'ini keltirib o'tgan:

- **senzitivlik** – tashqi ta'sirlarga ma'lum miqdordagi psixik javob berish kuchi;
- **reaktivlik** – emotsional reaksiya kuchi, emotsionallik, ta'sirchanlik, taassurotiga berilish;
- **faollik** – tashqi olamga ta'sir etish;
- **reaktivlik va faollik munosabati**;
- **ta'sirga javob tempi** – psixik jarayonlar va ta'sirlar kechishi tezligi;
- **plastiliklik** – egiluvchanlik, beriluvchanlik;
- **rigidlik** – interlik, xulq –atov ikkituvchanligi;
- **ekstraverterlik** - inson reaksiyasini tashqi ta'sirga bog'liqligi;
- **introvertlerlik** – inson reaksiyasini ichki obrazlar, fikrlar o'mnish va kelajakka bog'liqligi;
- **emotsional qo'zg'aluvcchanlik** – emotsional jarayonlarning kechishi va tashqi ifodalanishi.

Yuqorida keltirilgan sifatlardan kelib chiqqan holda, temperament turlariga psixologik xarakteristika quyidagi jadvalda berilgan:

<i>Asosiy sifatlar</i>	<i>Xoterk</i>	<i>Sangvinik</i>	<i>Flegmatik</i>	<i>Melanxolik</i>
Senzitivlik	Past	Past	Yuqori	
Reaktivlik	Yuqori	Yuqori	Past	
Faollik	Yuqori	Yuqori	Past	
Reaktivlik va faollik	Og'ir vazmin	Faoi va reaktiv	Past faollik o'rta	
Reaksiya tuni	Tezlashgan	Tezlashgan	Sekinlashgan	Sekinlashgan
Plastiliklik	-	+	-	
Rigidlik	+	-	+	
Ekstraverterlik	+	+	-	
Introvertlerlik	-	-	+	
Emotsional	Yuqori	Yuqori	Past	Sekinlashgan
qo'zg'aluvcchanlik				

Inson asab tizimi bilan bog'liq individual sifatlarni biliш orqali, bevosita mehnut va o'qish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tizeda tashkil etish mumkin. Asabga bog'liq bo'lgan tabiy xususiyatlarni unuman o'zgartirmas deb bo'lmaydi, chunki tabiatda o'zarmaydigan narsaning o'zi yo'q. V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilgan.

Shuni alovida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi inqilab temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg' ularga ham bevosita bog'liqdir. Psixologik ma'lumotlarda e'tirof etilishicha, irlislat va turmush sharoitlari ham temperament tiplari o'rasisidagi tafovutlarning sababchisi bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda temperament tiplarini ko'rib chiqqamiz.

Sangvinik – juda faol, qiziquvchan bo'lib, atrog'dagi narsalar, insonlar diqqatini tez jalb etadi. U imo-ishoralarini ko'p ishlatalib, uning chehrasiga qarab kelayf yaratni anglatib olish qiyin emas. Juda sezir bo'lishiga qaramay, kuchsiz tez simi sezsa olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatlari bo'лади, imtizomli, o'zini tiya biladi va boshqara oladi. Uning xatti-harakati jo'shqin, mutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki teren, qiziqishlari, kayfiyatni, intisharlari o'zgaruvchandir. Ko'nikma va malakalarini tez egallaydi, ko'ngli ochiq, dikkash, muloqotga tez kirishadi, uning fantaziyasi yubnak duriyada rivojlangan, tashqi ta'sirlarga hozirjavob. Besabab xoholab kulish mumkin, urzimagan narsaga qattiq jahlini chiqarish ko'zatiladi. Barcha narsaga faollik va intilish bilan munosabat bildiradi. Uning yo'zidan kayfiyatini biliш mumkin. Diqqatini tez to playdi. His-tuyg'uga beriluvchan. Past ovoz va past yong'lik qo'zg'aluvchilarni ilg' amaydi. Uzoq vaqt ishlab charchamasligi mumkin, ishliga istbyoq bilan kirishadi. Tartib intizomli. Ekstraverter. Fikrlar tezligi juda yuqori. Odamlar bilan juda tez kirishadi, yangi odamlar, vaziyat, hotatga tez ko'nikadi. Yig'lab turib, kulib yuborish holatlari ko'zatiladi. Tez ishga kirishadi va tez sovishi mumkin. Bir yo'nalishda uzoq ishlay olmaydi. Va'da berib ba'zan luijara olmasligi ham mumkin.

Xoterk – sust senzitivlik xususiyatiga ega bo'lib, juda faol va reaktivdir. Ko'pincha reaktivligi faollikdan ustun kelib, u betoqatlik, serzardalklik va iljoperaktivlikni kutilmaganda portloveti, qiziqon, betoqatlikni namoyon qildi. Sangvinikta qaraganda qo'zg'aluvcchan, lekin ko'proq rigid, qiziqishlari, intisharlari barqaror, xatti-harakatlarda qat'iylik mavjud bo'lsa-da, biroq diqqatni hie joyga to'plashda qiymaladi, nutq sur'ati tez. Egiluvchan emas, kuchli qat'iylik, diqqatning ko'chishida qiyinchiliklar mavjud. Yuqori tezlikda psixik tempga ega. Ekstraverter. Tez qo'zg'aluvchan, u mimika jestlardan ifodalanadi. Qat'iy tez, insonlarga nisbatan intiluvchi.

Flegmatik - senzitivligi sust, his-tuyg'usi kam o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsmi kuldirish, jaxlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin bo'lib, ko'ngillsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xaharga xotirjanlik bilan munosabada bo'ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishorası, minikasi ko'zga yaqol tashhammasada, lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatidir. Uning nutq va harakat sur'ati sust. Diqqatni to'plashi osoyishta, rigid ko'rinishida bo'lib, diqqatni ko'chirishi qiyin kechadi. Introvertlashgan, kam gap, ichindagini top tofasidan bo'lib, yangilikni qabul qilishi murakkab va tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beruvchandir. Kuchsiz mimikaga ega. Harakatlari ifodasiz. Ishchan. Faoliik reaktivlikdan ustuvor. Sabr-bardoshi, o'z-o'zini boshqara oladi. Nutqi seklin, rigid, diqqatni seklin to'playdi. Bir ishdan ikkinchi ishga seklin o'tadi. Yangi ish, vaziyatga seklin ko'nikiadi. Ish boshlasa qat'iy va bir yo'nalishida ish qiladi.

Melanxolik - senzitivligi yuksek, tortinchaoq, g'ayralsiz, arazchan, xafaqon, jimgina yig'laydi, kam kuladi, qat'yligi va mustaqilligi zaif, tez tolqadi, ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg'usi sust o'zgaruvchan. Rigid va introvert. Yuqori senzitivlik, yuqori tuyg'uga beriluvchanlik. Uyatchan, tez xafa bo'ladi. Mimika va jestlar yaxshi namoyon bo'lmaydi. Sust faoliik. O'z-o'ziga ishonch yo'q, arzmagan narsalardan tushkunlikka tushadi. Qat'iy emas, tez charchaydi, ishchan emas, diqqati tez bo'zildi.

Barcha odamlarni to'rtta tip bo'yicha taqsimlash mumkin emasligi tusunarlari. Temperamentlarning turli-tumanligi to'g'risidagi masala fanda hali batafsil hal qilingan emas. Ammo keltililgan temperament tiplarini asosiy deb hisoblash mumkin.

5.3. Karakter. Karakter xususiyatlari va tipologiyasi

Kundalik hayotimizda "xarakter" so'zi ko'p ishlatalidigan so'zlardan. Uni biz doimo birovlariga baho bermoqchi bo'lsak, ishlatalamiz. Bu so'zning ma'nosini olimilar "bosilgan tamg'a" deb ham izohlashadi.

Xarakter - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqeikkva va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoidita tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlari yig'indisidir (yunonchadan "xislat", "belgi", "tamg'a"). Karakter hamisha shaxsning o'ziga xos bo'lgan sifatlarini belgilab beradi. Shuning uchun ham karakter kishining biror hayotiy vaziyat sharoitida o'zini qanday tutishini oldindan ko'rish imkonini beradi.

Xarakter tug'ma bo'lmaydi. Faqt layoqat nishonlari tug'ma bo'lishi mumkin, ular nerv sistemasining xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. U kishining hayot va faoliyat sharoitlariiga bog'liq holda tarkib topib, o'zgaruvchan va

turbiyalanuvchandir. Maxsus sharoitda ta'lim-tarbiya ta'sirida salbiy karakter xususiyatlarini bartaraf qilish, ijobji性格 xususiyatlarni shakllantirish mumkin. Munosabatlarning karakterdagi o'rn xususida V.S.Merlin ularning mazmuniida ikki komponentini ajaratadi:

1. <i>emotional - kognitiv</i>	borliq mukhitining turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o'zida shu olamming emotsional manzarasini yaratishi	26-shakl
2. <i>motivation - irodaviy</i>	ma'lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar	

Demak, bizning munosabatlarimiz ma'lum ma'no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo'lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarni aks etadi va sunakterimiz namoyon bo'ladi.

Xarakterda o'zlashtirilayotgan hayotiy timsollar shaxsning xulq-atvori va feolyotida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sifatida tarkib topishni ta'minovchi psixologik vostitalar inson "Men"ning tavsiytochchi poydeavori hisoblanadi.

Xarakter - shaxsning individual xususiyatlari. Xarakterlari mutlaqo bir xil bo'lgan kishilarni topib bo'lmaydi, lekin ayrim kishilarning karakterlaridagi ko'p torsalar bir guruh kishilar uchun yoki xatto butun jamiyat uchun tipik bo'lishi mumkin. Bir jamoada mehnat qilayotgan kishilar uchun jamoatchilik, o'zaro yordum ko'rsatishga intilish, mehnatni hurmat qilish singari xususiyatlar tipik xususiyatdir.

Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, uning holliqdag'i obyektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga mo'voqedit. Shuning uchun ham psixologiyada xarakterning quyidagi tizimi e'tirof etiladi:

- * **mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan karakterologik xususiyatlari** - mehnatcevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, mas'uliyat, chunguvallik, qo'nimsizlik va boshqalar;
- * **insontarga nisbatan bo'igan munosabatlarda namoyon bo'ladigan karakterologik sifatlar** - odoblitlik, mehrbonlik, takt, jonsaraklik, mulqotga kishiluvchanlik, altruzm, g'amxo'rlik, rahm-shafqat va boshqalar;
- * **o'z-o'ziga munosabatga aloqador karakterologik sifatlar** - kamtarlik, hamsoqumilik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqid qilish, ibo, sharmo-hayo, mammalsish va boshqalar;

• **narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo`ladigan**

xususiyatlar - tartibiliik, oqilik, saramjon-sarishtalik, qo`li ochiqlik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Xarakter temperamentidan farqli o`laroq hayotda, muomala va hamkorlikdagi faoliyat jarayonida vujudga kelishi va shakllanishida farq qildi. Xarakter xususiyatlarning nimalarda namoyon bo`lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir. Avvalo xarakter insomning **xatti-harakatlar** va **amallarida** namoyon bo`ladi - odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakallari uning kim ekanligidan darak beradi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshib, uning har bir xislati shaxs munosabatlaringa bog`liq bo`ladi, ular o`z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatları bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhipta har xil xarakter xislattari shakllanishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shu sababdan ijtimoiy tuzumni tavsiyovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsnинг ijtimoiy tipik xususiyatlaringina emas, balki xarakterning individual xususiyatlari va xislattari tarkib topishiga ham katta ta`sir o`tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog`liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida xayrixohlik, o`rtoqlik, o`zaro yordamlashish, hamkorlik yoki, aksinchalik, johillik, zolimlik, badjaxliklari kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oitaviy muhit, undagi shaxslararo munosabattar, farzandlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlarning ko`rinishi, ota-onalarning munosabatiga asoslangan holda xarakterning o`ziga xos xususiyatlari shakllantirilsa, bolalar bog`chasi, maktabdagagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus xislattarini tarkib topiradi. Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlardida sezilarli o`zgarishlar yuzaga kelib, ilk yoshiqlik davrida esa shakllangan xarakter xislattari niyoyat darajada barqaror bo`lib, ularga ayrim o`zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Shaxsda maylarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog`liq holda tarkib topgan munosabatlar o`zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xarakter xislattarning chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi ko`p jihatdan shaxs munosabatlarning onglilik darjasiga bog`liq. Insomning haqqoniylig, mehnatsevarlik xislattari tasodifiy tarkib topmagan bo`lib, uning ongli qarashlariga, ishchonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo`ladi.

5.4. Xarakter strukturusi va tipologiyasi

Xarakter xususiyatlarning variantliligi ularning faqat sifat jihatidan rang-barangligi va o`ziga xosligida emas, balki midor jihatdan ifodalanganligida ham

namoyon bo`ladi. Xarakter xususiyatlarning miqdoriy ifodalanimishi, ya`ni ayrim belgilarning haddan tashqari kuchli namoyon bo`lishi shaxs xulq-atvori me`yorining eng oxirgi marrasiga borib, patologik belgilari bilan chegaralanish holatida ko`zatiladi. Bu holat psixiologiyada **xarakter aksentuatsiyasi** ya`ni, me`yordan ortishi deb ataladi. Bunda shaxsda boshqalarga nisbatan barqarorlik bo`lgani holda bir xil qattiq hayajonlantiruvchi omillarga zaiflik ortishi ko`zatiladi. Xarakter aksentuatsiyasi turlari olmlar tomonidan turli xil ko`rinishda qatalib ko`rsatiladi. Ularning ayrimlari haqida to`xtalib o`tamiz:

Giperaktiv tip - bu toifadagilar o`ta kirishimli, so`zamol bo`ladilar, imo-lisborlar, mimika va pantomimika orqali o`z his-tug`ularini namoyon qiladilar. Ular to`sudan suhbating dashtabki mavzusidan chetiga chiqadilar. Bu toifadagi odamda o`z xizmat va oilaviy majburiyatlarga etarli tarza jiddiy e'tibor bermasliklari oqibatida atrofidagi odamlar bilan qisqa kelishmochiliklar yo`zaga keladi. Ularning ijobjiy tomonlari ishchanlik, optimistik, faoliyatlitlik, tashabbuskorlik kabi sifatlari orqali namoyon bo`ladi. Ularning saibiy xislattari - yengilabilit, jizzaki, o`z majburiyatlariga befarq munosabatda bo`lish kabi ifatilardi.

Disativ tip - bu toifadagilar kangap, tortinchoq bo`lishadi. Ularning aknariyati uyda o`tirishni xoqlashadi. Ular sershovqin davralarni yoqitirmaydilar va atrofdagilar bilan kamdan-kam nizoga boradilar. Ularning ijobjiy xislattari: jiddiy, hisiqatqo`y, sovvijdonli. Salbiy tomonlari: sustkash, shaxsiyatparast, fikrlash dohrasi tor.

Siktoid tip - bu toifadagilarning kayfiyati tez-tez davriy o`zgarishi, buning oqibatida ularning atrofdagi odamlar bilan bo`lgan muomalasi ham o`zgarib turishi ko`zatiladi. Ularning kayfiyati chog` bo`lganda yaxshi hamsuhbat, kayfiyati yomon bo`lganda esa undiroq bo`lib qoladilar.

Ta'sirchan tip

- bu toifadagilar muomalada tortinchoq, ko`p holdarda tund va injiq bo`lib, yolg`onchiilikka, surbetlikka, nizoga moyildirlar. Shuningdek, bunday holdatlarda ular doim faol bo`ladilar. Bu toifadagilar xotirjam bo`lganlarida niftli, hayvonlar va kichkina bolalarni yaxshi ko`radilar, kayfiyatlari yomon bo`lganida esa injiq, jaxidor, o`zlarini idora eta olmaydilar.

To`xuluvchan tip

- bu toifadagilar me`yorida hamsuhbat, pismiq, aql iqtisadiyatlari, kamgapdirlar. Ular nizoli holdatlarda faol, tashabbuskor bo`lib, tundagan faoliyatini muvaffaqiyatlama amalga oshirishiga intilibdilar. Ular o`ziga nishbatan o`ta talabchon bo`lib, ijtimoiy adolatga xayriyoh, shuning bilan binganbaechi, hamda qasoskor bo`ladilar. Ba`zida haddan ziyod o`ziga bino qo`ygan, to`g`ri so`z, rashkel, yaqinlariga va qo`l ostidagi xodimlarga nisbatan o`ta talabchon bo`lib qoladilar.

Sinchkov (pedant) tip - mojarolarga kam aralashib, xizmat doirasida o'zini qattiqqo'idek tutib, atrofdagilarga ko'p talablar qo'yadi. Shuningdek etakchilikni bajonidil boshqa odamlarga beradi. Ba'zida oila a'zolariga tartib borasida o'ta talabechan. Uning ijobjiy xislatlari: softil, tartibli, jiddiy, sadoqatli. Salby bo'ladilar. Ular nizolarga kam aralashadilar va bu holatda qo'llab-quvvatlovchi va tayanch axtadarilar. Ular do'stlikni qadrlaydilar, o'z-o'ziga tanqid ko'zi bilan qaraydilar, o'ziga topshirilgan vazifalarni so'zsiz bajaradilar, o'zining himoyasizligi oqibatida ko'p hollarda hazil-huzul uchun nishon bo'ladilar.

Tashvishli tip - bu toifadagilar past kirishimli, o'ziga nisbatan ishonchisz tayanch axtadarilar. Ular do'stlikni qadrlaydilar, o'z-o'ziga tanqid ko'zi bilan qaraydilar, o'ziga topshirilgan vazifalarni so'zsiz bajaradilar, o'zining himoyasizligi oqibatida ko'p hollarda hazil-huzul uchun nishon bo'ladilar. Ulardan shaxsliy hayotlarga aralashgandagina atrofdagilar bilan xarakterlidir. Bunday odamlar yolg'izlikni yoqtiradilar, atrofdagilar bilan kam nizoga borib, qachonki ularning shaxsliy hayotlarga aralashgandagina atrofdagilar bilan ixtitofga boradilar. Ularda qat'iyatilik, principiallik kabi ijobjiy fazilatlar bilan bir qatorda qaysarlik, ilkerlashting tortigi, o'z g'oyalarini o'ta qat'iyatilik bilan himoya qilish kabi salby xislatlari mavjud. Ular har bir narsaga o'z nuqtai nazarları bilan qaraydilar, boshqalarning fikrlaridan o'z fikrlarini ustun qo'yadilar.

Jo'shqin (hayavonli) tip - bu toifadagilar tor doirada saralangan odamlar bilan aloqa qilishni afzal ko'radir. Ular kam hollarda mojarolarga aralashib, xafachiliklarini ichlarda saqlaydilar. Ijobjiy xislatlari: samimiylik, rahm-shavfqatilik, o'zgalarning yutug' idan quvonadigan hamda bo'yusunuvehan. Salby intiluvchanlik, ko'ngilchanlik, boshqalarga tez ko'nukuchanlik **xususiyatlari** **mazkur tipga** xosdir. Ularda hokinimiyati egallash hissi ustuvor bo'lib, maqtoviy juda yoqtiradilar. Bunday kishilar o'ziga ishonchiligi va o'ziga tortuvchanliklari bilan atrofdagiarning g'ashiga tegib, mojarolarni o'zari keltirib chiqaradilar va bu holatda faol tarzda o'zlarini himoya qiladilar. Ularning ijobjiy tomontari - sabr-qanoattiilik, artistlik qila oladigan, boshqalarni o'ziga qarata oladigan, to'g'ri so'zligidir. Salbyi tomontari esa - xudbinlik, shaxsiyatparastlik, maqtanchoqlik, dengasalilikdir.

Eksaltirashgan tip - bu toifadagilar o'ta kirishimli bo'lib, tez-tez baxslashadilar, lekin bahs ochiq mojarolarga yetib bormaydi. Nizoli holatlarda ular bir paytning o'zida ham faol, ham sustkashdirilar. Shu bilan biregalikda do'stlari va yaqintariga bog'langan va ularga juda g'axmo'r. Ularda achinist hissi yuqori, yaxshi didli, hissiyotlari yorqin va samimiy bo'ladi. Salbyi tomontari - vahimachi, bir onlik kayfiyatlarga yon bosuvchi.

Eksraversiv tip - o'ta kirishimli bo'lib, bunday odamlarning do'stleri va tanishlari juda ko'p bo'ladi. Bunday odamlar ezmalik darajasigacha ko'p gapiradilar, har qanday ma'lumotni ulardan ochiqchasiغا bilib olish mumkin. Bu toifadagilar do'star davrasida, istida, otilda, ko'pincha yetakechilikda boshqalarga yon bosib, boshqalarga bo'y sunishini va cheleta turishi afzal ko'radir. Ular o'zgalarini diqqat bilan eshitishga tayyorlik, so'rashgan narsani bajarish kabi ijobjiy xislatlarga egadirlar. Salbyi tomontari: ta'sirga beriluvchan, yengilibat, maishataga o'ch, ig'vo va g'iybatlarni tarqatishda ishtirot etadilar.

Intraversiv tip - uning boshqalardan farqli tomoni shundaki, ular o'ta lyumanuvchan, haqiqiylikdan yiroqlashuvchan, o'z tuyg'ularini oshkor etishni sohlomaslik, faylasuflik qilishga intilishlari bilan xarakterlidir. Bunday odamlar yolg'izlikni yoqtiradilar, atrofdagilar bilan kam nizoga borib, qachonki ularning shaxsliy hayotlarga aralashgandagina atrofdagilar bilan ixtitofga boradilar. Ularda qat'iyatilik, principiallik kabi ijobjiy fazilatlar bilan bir qatorda qaysarlik, ilkerlashting tortigi, o'z g'oyalarini o'ta qat'iyatilik bilan himoya qilish kabi salby xislatlari mavjud. Ular har bir narsaga o'z nuqtai nazarları bilan qaraydilar, boshqalarning fikrlaridan o'z fikrlarini ustun qo'yadilar.

Xarakter - shaxsning bir tomoni, lekin bu shaxs degani emas. Ekstremal vaziyatda yoki shunchaki tanlash vaziyatida qoldirilgan kishi holatlardan ustun bo'lisiga, shu jumladan, o'z xarakteridan ham yuqori ko'tarilishga qodirdir. Kishining istalgan, shu jumladan, ichki, psixologik holatlarga qarshilik qilish qobiliyatli uning o'zini o'zgartiradigan quadratli kuchi borligini, uni shaxs sifatida iroyjuntirish negizini namoyish qiladi. Shuning uchun kishini xatti-harakatlarni tushuntirishga, uning xulq-atvorini oldindan ayтиb berishga har qancha urinistlar princip jihatidan o'zil-kesil bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs bunday tushuntirishlarni qadsizlantirishi, ularga qarshi harakat qilishi va boshqacha bo'lib qolishi mumkin, ya'ni faqat tashqi va ichki holatlarga muvoqiqligi foydasigina emas, balki o'zi ijtimoiy va umuminsoniy jihatidan qo'llanilishi foydasiga tanlash o'tkaziladi. Shaxs bunga qay darajada qodirligiga qarab, unda konkret-sarakterologik emas, balki ijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlari yo'zaga keladi.

5.5. Qobiliyatlar va ularning turлari

Qobiliyatlar - shaxsning ma'lum faoliyatdagи muvaqqatiyatlarini, osonlik bilan binon faoliyatni egallay olishni ta'minlaydigan yakka psixologik xususiyatlardir.

Insan qobiliyatlar yordamida bilim, ko'nikma va malakalarini nisbatan onanlik bilan egallab oladi va bitor faoliyat bilan muvaffaqiyatlari shug'ullanadi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Qobiliyat turлari quyidagilar: *27-shakl*

Umumiy qobiliyatlar

Umumiy qobiliyatlar mayjud bo'lgan kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatlari shug'ullana oladi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar odalida baricha fanlardan yaxshi va qijalmay qo'yadilar.



Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug` ullanish imkonini beradi.

Insонning qobiliyatları uning mayllari bilan mahkam bog`liqdir. Shuning uchun biror narsaga qiziqish, unga berilish ko`pincha faoliyatning ana shu turiغا bo`igan qobiliyatlarning mavjudligidan darak beradi.

Layoqat nishonlari va qobiliyat. Ko`pgina olinlar qobiliyatlar tug`ma bo`ladi va avloddan-avlodga o`tib turadi, deb hisoblaydilar. Unchaliq qobiliyatli bo`lmagan ko`pcilik kishilar orasida layoqatlari kishilar ojalari kam bo`ladi, bu oilalardagi kishilarning qobiliyatları avloddan-avlodga o`tib keladi. Lekin qobiliyatlar to`g`risida bunga butunlay qarana-qashi bo`igan nuqtai nazar ham mavjud, bu nuqtai nazar tug`ma sifatlarni butunlay inkor qiladi va hamma narsa tarbiyaga, shart-sharoitga bog`liq deb hisoblaydi. Ana shu nuqtai nazarni ham to`g`ri deb hisoblab bo`lmaydi. Qobiliyatlar miya va sezish organlarining tuzilishiga bog`liq, ular har-xil kishiharda tug`ilgan vaqtidayoq turlicha bo`ladi. Har bir kishida tug`ma **Layoqat nishonlari** bor bo`ladi, binobarin, kelgisida biror qobiliyatni rivojlantrishga bo`igan muayyan moyillik ana shunga bog`liq.

Lekin bu tabiyi layoqat nishonlari muvaffaqiyatli faoliyatning to`la-to`kis shart-sharoitlari bo`la olmaydi. Layoqat nishonlari rivojlantrish kerak, bu esa ta`lim tarbiya jarayoni dagina ro`y beradi. Bundan tashqari, layoqat nishonlari ko`p qymalidir, ya`ni tegishli sharoitlar mavjud bo`lganda faoliyatga qarab layoqat nishonlari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Layoqat nishonlari kishining go`yo «kmudrab yotgan» kuchlari bo`lib, agar kishi tegishli faoliyat bilan shug`ullanmasa, bu imkoniyatlarni “uyg`otishi” mumkin emas.

Bunday mashg`ulotlar uchun ijtimoiy shart-sharoit: moddiy ta`minot, muhit, o`qish imkoniyatlari va hokazolar zarur bo`ladi. Qujay sharoitlar mavjud bo`lganda ayrim kishilarda qibiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odadada musiqa va tasviriy bo`igan layoqat unda ertaroq paydo bo`ladi. Kishilarda musiqa va tasviriy san`atga bo`igan layoqatdan bir muncha keyinroq adabiy qobiliyatlar paydo bo`lgan. Qibiliyatni rivojlantrishning ayrim shartari. Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Shuning uchun qobiliyatlarni rivojlantrishning birinchi sharti - **faoliyatga bo`igan ehtiyojini tarbiyalashdir**. Ishlashni yoqitmaydigan dangasa kishilarda qobiliyatlar rivojlanmaydi. Qibiliyatlar rivojlantrish uchun jiddiy mehnat qilishning ahamiyati katta. Qobiliyat - avvalo sabr-toqtaga ko`payvirilgan mehnat, mehnat va yana bir karra mehnatdir. Mehnatga bo`igan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odattanish katta ahamiyatga egadir. Layoqat bilan qobiliyatni bir-biridan farqlay olish lozim. Layoqat bu odamni faoliyatga bo`igan intilishi, qobiliyat esa ushu faoliyatni bajara olish imkonidir.

Qobiliyatlar - bu:


- insomni individual xususiyati;
- ushbu faoliyat bilan muvaffaqiyati shug`ullanishidir.

Bundan tashqari qobiliyatlar bilim va malaka egallash dinamikasini aniqlaydi. Qobiliyatlar faoliyatda sifatlik o`z imkoniyatlardan to`laqoq foydalana olisini, ko`proq yutuqlarga erishishni ko`rsatib beradi. Qobiliyatlar strukturasida etakechi hamda tayanch xususiyatlardan farqlanadi.

Biror faoliyatning aynisa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bujarilishini taqozo qiladigan qobiliyatlar birkiasi - **talant** deb ataladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli bo`igan kishilarni talantli kishilar jumlasiga kirish mumkin. Talantlikni yuqori bosqichi **geniallik** deb ataladi. Ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san`at va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi bo`igan biror narsa yaratgan kishilar geniytlar deb hisoblanadilar.

Tabiy anatomik-fiziologik layoqat nishonlari qobiliyatlarning fizioligik asosini tashkil qiladi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonlarning majmui - **iste`dot** deyiladi. Qiziqishlar qobiliyatlarni rivojlanishida muhim rol o`ynaydi. Faoliyatga bo`igan qiziqishni motivatsiya orqali qo`llab-quvvatlash faoliyat madсадини одам uchun aktual ehtiyoja aylantiradi.

28-shakl



Qobiliyatlarni tarkib topishi va rivojanishi – bu ko'nikmalarini natijasi

bo'lib, ular qancha mustahkamlansa rivojanish shuncha tez boradi.

Malakalar, ko'nikma va bilmlarga nisbatan kishining qobiliyatları qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladı. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki egallanmaydими, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo'qmi, bo'larning hammasi ko'plab sharotlarga borliq bo'ladı. Sharot-sharoitlar jumlasiga, quyidagilar kiradi: tevarak-atrog'dagi odamlar kishining bu bilim va malakalarni egallab olishdan manfaatdor bo'ladimi yo yo'qmi; unga qanday ta'lim beradilar, ana shu malaka va ko'nikmalar kerak bo'ladigan va mustahkamlanadigan mehnat faoliyati qanday tashkil etildi.

Nazorat savollari:

1. Temperament tushunchasini ta'riflab bering.
2. Temperament xususiyatlariqa nimalarini kiritish mumkin?
3. I.P.Pavlov ta'limotida oliv nerv faoliyatining asosiy turlari haqida ma'lumot bering.
4. V.S.Merlin bo'yicha temperamentning psixologik tasnifa ta'rif bering.
5. Temperament tiplarini sanab o'ting hamda izohlang.
6. Xarakter va uning xususiyatlari haqida qanday tushunchaga egasiz?
7. Xarakterning belgilari haqida nimalarini bilasiz?
8. Xarakter strukturasi va tipologiyasi haqida ma'lumot bering.
9. Xarakter aksentuatsiyasi va uning tiplari nima?
10. Qobiliyyatlar haqida tushuncha bering.
11. Qobiliyyat turlarini izohlab bering.
12. Is'e dod, talant va geniallik tushunchalari haqida ma'lumot bering.
13. Qobiliyatlarni rivojlanishi uchun ta'sir etuvchi omillar.

VI. SHAXSNING BILISH JARAYONLARI

REJA:

- 6.1. Diqqat to'g'risida tushuncha. Diqqat turlari.
- 6.2. Sezgi jarayoni haqida tushuncha. Sezgi xususiyatlari va turlari.
- 6.3. Idrok haqida tushuncha. Idroknинг o'ziga xos xususiyatlari.
- 6.4. Tafakkur haqida tushuncha.
- 6.5. Xotira haqida tushuncha. Xotira turlari va ularning xususiyatlari.
- 6.6. Xayol to'g'risida tushuncha. Xayolning aktiv va passiv turlari.

Asosiy tayanch tushunchalar: diqqatning fokusi, taktil sezgi, adaptatsiya, illyutsinatsiya, illuziya, intuitsiya, tafakkur, analiz, sintez, tushuncha, hukm, xulosasi.

6.1. Diqqat to'g'risida tushuncha. Diqqat turlari

Diqqat - shaxsnинг faolligini hamda uning obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarga tanlovetchi munosabatini belgilaydi. Diqqatda odam psixikasining moshashtiruvchi vazifasi namoyon bo'ladı. Agar diqqat bo'lmasa, odamda aniq moqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ham bo'lmaydi.

Diqqat muayyan sharotlarda va vaziyatlarda mo'ljal olish imkonini beradi. Bunday sharotlarni hisobga olish odam amalga oshirayotgan faoliyatning ongli ravishda kechishini va uning sermahsul bo'lishini ta'minlaydi. Har qanday mazsalaning va har qanday hayotiy vazifaning hal qilinishi odamdan o'z diqqatini un shu masalaning mazmuniga hamda uni bajarish uchun qilinadigan harakat usullariga qaratishni talab qiladi. Demak, diqqat qolgan barcha psixik jarayonlardan sezilarli darajada farq qiladi. Uning o'ziga xosligi shundan iboratki, u aks ettrish formasi singari psixik faoliyatning mustaqil turi emas, balki bosqqa psixik jarayonlarning uyushgan holligidir.

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatlama qishirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatidan usoq muddati, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va tulablar qo'yadi. Inson ziyorakligi, farosatiligi, tex payqashi, sinchkovligi, tilkashligi uning turmush sharotida, shaxslararo munosabatida muhim omil sihatida xizmat qiladi.

Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xattiharakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'лади.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. *Diqqat barcha psixik jarayonlarda qaratilgan obyektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqol aks ettiladi*. Demak, qaratilgan obyektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqol aks ettiladi. Demak, diqqat - aqiji jarayonlarning sifati, mahsuldarligi va samaradorligini ta'minlovchi insonnинг ichki aktivligidan iboradir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Psixologiyada diqqatning obyektiiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- *tashqi diqqat*,

- *ichtiki diqqat*.

Shu bilan birga faoliyat shakliga ko'ra:

- *individual*:

- *guruhiy, jamoa* va turlariga bo'linadi.

Hosil bo'lish xususiyati va amal qilish usuliga qarab:

- *ixtihorsiz* (sust) – uning paydo bo'lishida odamning maqsadi

qatnashmaydi;

- *ixtiyorly* (faol) – odamning maqsadiga ko'ra, o'zi iroda kuchini

ishlatishi turayli paydo buladi.

- *ixtiyorlydan so'nggi* turlariga bo'linadi.

Tashqi diqqat deb ongimizning obyektiiv voqeqlikagi narsa va hodisalarga, ularning ayrim belgi va xususiyatlariiga yo'naltirilishi, ularda faol to'planishiga aytildi. Tashqi diqqat faqat idrok qilish jarayonidengina namoyon bo'lmasdan, balki fikr yuritilayotgan narsalarga ham qaratiladi. Jumladan, ixtirochining o'zi yaratgan narsasini tasavvur qilishi, rassomming obrazlarni kashf qilish jarayoni, muhandisning to'g'on qurilishini ko'z o'ngiga keltirish bilan bog'liq holatlar bunga misol bo'la oladi.


Ichki diqqat esa ongimizning o'z subyektiiv taassurotlarimiz, his tuyg'ularimiz va intilishlarimizga qaratilishidan iboradir. Inson ongining o'zida sodir bo'layotgan o'tz hissiyotlarini, fikrlarini, orzu, istak va shu kabilarni kuzatishda tashqi diqqatdan farqlı o'taroq ichki diqqat yuzaga kelar ekan, bunda diqqatning har ikkala ko'rinishi ham faoliyatining muvaqqiyatli yakunlanishiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiqa egadir.

Bir kishi ongining muayyan obyektiiga qarata yo'naltirilishi va unga to'planishiga *individual*; bir gunuh yoki ko'pchiilikdan iborat kishilar jamaosining ongi psixik faoliyatning biror obyektiiga qarata yo'naltirilishi va shu obyekti to'planishiga *guruhiy* yoki *jamoa diqqati* deb yuritiladi.

Ixtiyorly diqqat

Ixtiyorly diqqat diqqatning qui formasi bo'lib, odatda qo'shilishchilarning analizatorlardan biorasiga ta'sir etishi natijasida sodir bo'ladi. U mo'ljal olish refleksi qonuniyatiga ko'ra paydo bo'ladi va odamlar hunda hayvonlar uchun umumiyyatdir. Ixtiyorly diqqat ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi hunda bu qo'zg'atuvchilarning odamni ilgarigi tajribasi yoki psixik holatiga muvofiq kelishi tufayli paydo bo'lishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida diqqatnomevchi, faqat odamga xos bo'lgan ixtiyorly diqqat ancha murakkabdir. Uning xarakterli xususiyati shundaki, u obyektiiga niyat va qo'yilgan maqsad ni'sida yo'llanadi. Kishida paydo bo'ladigan talab, ehtiyojar, organizmdagi o'qishishlar, masalan chanqash, og'piq, ko'ngil g'ashligi kabi hotatlardan ham diqqatimizni jalb etishi mumkin. Ixtiyorly diqqatning nerv-fiziologik asosini intontovka (mo'ljal) yoki tekshirish refleksi tashkil qiladi. Chunonchi, tevarakkutimizdagi narsalarining salgina o'garishi bizda darhol mo'ljal refleksini yuzaga kelitadi. Hoshqacha qilib ayganda, "nima gap" degan ma'noda atrofimizga razm mura' hadohllymiz. Shuningdek, turli his-tuyg'ular, xususan qiziqish ixtiyorly diqqatiga subab bo'ladi. Qiziqarli roman, kinofilm, qiziqarli suhabat diqqatimizni o'giga berxitiyor tortadi. Shuning uchun diqqatning bu xili *emotional diqqat* ham deyiladi.

Ixtiyorly diqqat qat'iy maqsad asosida yo'naltiriligan diqqatdir. Diqqatning bu turi o'zini majbur qilib, zo'r berib ongini bir faoliyat ustida to'plab turishlikni hilibadi. Ixtiyorly diqqatning psixologik xususiyati uni ko'p va kam irodaviy mi'l berish, jiddiylik (tanglik) bilan birga bo'lisdigidir, bunda ixtiyorly diqqatning uzoq saqlanishi toliqishiga, ko'pincha jismomoniy zo'r berishdagidan ko'ra ko'proq toliqishga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'qitish davrida ixtiyorly diqqatning kuchli to'planganligi ortiqcha davomli bo'lmasi lozim. Psixologiyada diqqatning ixtiyoriy turi, ko'pincha irodaviy deb nomlanadi. Bu, alulta, bejiz emas, chunki diqqatning muayyan obyektiiga yo'naltirilishi iroda hunda bilan saqlab turiladi. Hatto ixtiyorly diqqat faoliyatida qatnashsa, u ham jumladan zo'r bilan yo'naltirilgan obyektda to'planib turadi.


DIQQATNING TURLARI

Ixtiyoriydan so'negi diqqat - diqqatning muayyan obyekta avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan (avtomatlashgan) diqqat turi bo'lib, ushbu tushuncha psixologiya faniga psixolog olim N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan. Ixtiyoriydan so'negi diqqat biror obyekta uzoq muddat qaratilishi bilan belgilanib, bunda hech qanday sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflanmasa ham bo'ladi. Insosning yuqori darajadagi jadal va unumli aqly faoliyatini hamda barcha turdag'i mehnatning yuqori, samarali ko'rsatkichi diqqatning shu turi bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqatning obyekta to'planiши, mustahkamlanishi odamning qiziqishlariga bog'liqidir. Hatto ixtiyorsiz diqqatning faoliyatda muissammashishiда kishining ishtiyoyqi va qiziqishi katta ahamiyatga egadir. Odadta faoliyatga qiziqish bevosita va bilvosita shakida namoyon bo'ladi. Bevosita qiziqish faoliyat jarayoniga, xattiharakatlarning o'ziga, ish uslublariga qaratilgan qiziqishdan iboratdir. Bilvosita qiziqish esa, faoliyatning maqsada, uning natijasiga yo'naltirilgan qiziqishdir.

Tasavvur qiling-a, siz musiqa, suhbat va kuliga to'la ziyofatdasiz. Siz do'stingiz bilan barcha shovqinli fonda qiziqarlari mavzuda suhbat qilayapsiz. Agar kimir sizni qaysi qo'shiq hozirda ijro etilganligini so'rash uchun to'xtatib qo'ysa, ehtimol siz bu savolga javob bera olmasligingiz mumkin. Bu diqqatning suhbatiga, ya ni diqqatning buzlishi ham uchrab turadi. Ulardan biri e'tiborsiz ko'rlik deb ataladi.

Diqqat murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bor. Ulardan asosiyilari quyidagilar:



Diqqatning ana shu xususiyatlari ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Diqqatning barqarovligi uning davomiyligi va u yuz bergen butun vaqt mutayynida qaratilganlik darajasi bilan belgilanadi. Diqqatning barqarovligi diqqatning obyektlarning xususiyatlariga va diqqat yo'naltirilgan shaxsning faoliyiga bog'liq bo'lib, u diqqatning o'z obyekta kuchli yo'naltirilishi va faol iki pilonishidan iborat ijobjiy xususiyatdir.

Diqqatning ko'lami, hajmi uning taqsimlanish xususiyati bilan belgilanib, yani bir vaqtning o'zida aniq-ravshan idrok etiladigan obyektlar soni bilan tasvirlanadi. Diqqatning obyektlari o'rasisida qanchalik yaqin bog'lanishlar mavjud bo'ladi, uning hajmi shunchalik keng bo'ladi va aksincha.

Diqqatning taqsimlanishi - ikki va undan ortiq faoliyat turlarining ayni bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatlari bajarish imkoniyati bilan bog'liq xususiyatdir. Diqqatning taqsimlanishi murakkab faoliyat jarayonini amalga oshirishda alohida namoyatga ega.

Diqqatning ko'chishi subyektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyata, bir olyektdan ikkinchi obyekta, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab o'lishida namoyon bo'lib, bunda ko'chish to'liq yoki chala bo'lishi mumkin.

Diqqatning ho'llishi uning ko'chishidan farqli o'laroq ixtiyorsiz, tarzda bo'ladi. Diqqatning bo'linishi shaxsning asosiy faoliyatini muvaffaqiyatlamaqligida uchun ahamiyatsiz bo'lgan obyekta ko'chishida namoyon bo'ladi.

Diqqatni obyekta qarata olmaslik va yo'naltira olmaslik bilan bog'liq salbiy suhbatiga, ya ni diqqatning buzlishi ham uchrab turadi. Ulardan biri joriydonkorlikdir.

Parishxonxotirlik - diqqatni ma'lum bir obyekta qarata olmaslikdan iborat salbiy suhbat. Parishxonxotirlik vaqtincha holat bo'lishi ham, shaxsning nisbatan hanqor xolati bo'lishi ham mumkin. Parishxonxotirlikning ikki turi mayjud bo'lib, biki diqqatni umuman hech narsaga qarata olmaslik bo'lsa, ikkinchisi diqqatni munoyun obyekti ustiga kuchli to'lanirib, bosqqa narsalarga qaratilmaylidir.

8.1. Muloqot to'g'risida umumiyl tushuncha

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar munmosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o'rgatishga oid psixologik mafhulur, samarali muloqotning psixologik vostitalarini o'rganish ishbilarmonlik hujayatdu asosiy o'rinni egallamoqda. Muloqot psixologiyasi fani muloqotning yuqorida keltirilgan va boshqa jihatlarini nazarli va amaliy jihatdan chuuqr o'rganishga yordam beradi. Shuningdek talabalarda muloqot psixologiyasi bi'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Munosabat - odamlar o'rtasida, birgalikdagi faoliyat ehtiyojaridan kelib shiquqilgan bog'lanishlar rivojanishining ko'p qirrali jarayonidir. Munosabatga kirovchichilarning o'zaro birgalikdagi harakkati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xatti-harakattlar bilan xam ayirboshtashdan iborat.


Muloqot - faqat insontarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi. Muloqot - odamlar o'tasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'ntuvcillar o'tasida axborot ayirboslashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatli hisobga olinadi. Muloqotning quyidagi immunitarini ko'rib chiqamiz:



VIII BOB. MUЛОQOT PSIXOLOGIYASI

REJA:

45-shakl



Muloqotning **kommunikativ** tomoni - ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'tasidagi ma'lumot va axborotlar almashinuv jarayoni. Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g`oyalar, fikrlar almashinuv jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan ikki turi farqlanadi:

- **og`zaki nutqi**


Og`zaki nutqning o`zi 2 turga bo`linadi:

I) og`zaki nutqning eng sodda turi - **dialog**, ya'ni allaqanday masalalarni birlgilikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan ham subbatlar tomonidan olib boriladigan subbat hisoblanadi.

2) og`zaki nutqning ikkinchi bir turi - **monolog** nutq bo`lib, uni bitta kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko`plab kishilarga qarata gapiradi: bunga o`qituvchining hikoyasi, o`quvchining javobi, doklad va shu kabilar kiradi.

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlar kuzatilgan. Bunday mexanizmlarga identifikasiya, refleksiya va stereotipizatsiyalar kiradi.

46-shakl




Identifikatsiya - shunday psixologik hodisaki, bunda subbatdoshlar bir-hisobda to`g`riroq idrok qilish uchun o`zlarini bir-birlarining o`rniga qo`yib qo`yishga harakat qiladilar. Ya'mi, o`zidagi bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali hisobga birovni tushunishga harakat qilish, o`zini birov bilan solishtirish (ongli yoki onguz) identifikasiyadir. Masalan, birinchi marta dars o`tayotgan moddegungan ichki holatini uning xamkasbi yaxshi tushunishi mumkin. **Refleksiya** - muloqot jarayonida subbatdoshning pozitsiyasidan turib, o`zini tanavvir qilishdir, ya'ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo`lib, o`ziga bironning ko`zi bilan qarashga intilishdir.

Stereotipiatsiya - odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o`rnashib qolgan, ko`nikib qolingga obrazlardan shablon sifatida foydalanish holdadir. Ijtimoiy stereotiplar - har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. Bunday stereotiplar ba`zan muloqotni to`g`ri yo`nalganligini tahminlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoiliklarning sababi bo`libi mungkinyagini kuzatiilgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoiliklar **kanal arributsiya** (lotinchasiga "kauza"- sabab, "atrebutio"- bermoq, qo`shib, ko`ritib bermoq ma nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o`qituvchi bilan hamsubbat bo`lib qolgan odamda subbat boshidayoq "hozir oddob-axloqdan dars berishni boshlamasmikan" degan shubha paydo bo`lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko`rgan odam to`g`risida tanavvurga ega bo`lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o'tasida bo`lib ligqlilar o`rnatishga harakat qiladilar.

Muloqotning turli **shakllari yoki bosqichlari** mavjud bo`lib, daslabki hajjich - odamning o`z-o`zi bilan muloqotidir. Odamning o`z-o`zi bilan muloqoti bilida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o`z-o`zi bilan hadeb muloqot qilishi odat qilib olib, doimo jamiyatdan o`zini chetga torib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan subbattashisha, til topishicha jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Demak, o`zgalar bilan muloqot - muloqotning ikkinchi bosqichi va ko`rimishidir. Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko`rimishlariga kelsak, uning har bir shaxsing hayotiy usuliyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko`rimishlari va usuliy huqudu gapirish mumkin. Lekin umumiy holda, har qanday muloqot yo`nimi yoki norasmiy usda bo`ladi.

Shaxslararo munosabatlar psixologiyasida aniq va to`g`ri tushunishga taalluqli qonuniyatlari




Odamlarning bir-birlarini to`g`ri idrok qilishlari ularning pertseptiv, ya`ni hissiy bilish (idrok, sezish) sohasiga aloqador bo`lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariiga bevosita taalluqli bo`lib, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to`g`ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda **empatiya** – birovlarining his kechinmalarini tushuna olish qobiliyatini rivojlangan bo`ladi. Yüksak ongli, madaniyatl, shaxsiga boshqalarni to`g`ri tushuna olishi mumkin.

Agar **rasmiy muloqot** odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalardan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o`z qo`l ostida ishayotgan xodimlar bilan muloqoti, professoring talaba bilan muloqoti, o`qituvchining o`quvchisi bilan muomalasi va hokazo, **norasmiy muloqat** – bu odamning shaxsiy munosabatlariaga tayanadi va uning mazmuni o`sha suhbatsdoshlarning fikr-o`ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi.

Ko`pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to`xtalib o`tar ekantlar, uning qator vazifalari hamda funksiyalarini ajratadilar:

Muloqotning funksiyalari



Muloqot kishilar o`rtasidagi psixologik kontakt bo`lib, bunda o`zarlo bir hujiga ta`sir, axborot, yangiliklar bilan almashinuv sodir bo`ladi. Muloqot faqat axborot almashinuviga emas, bu shaxslararo ta`sir hamda odamlarning bir-birini tushunishi hamdir. Shunga ko`ra muloqotni **verbal va noverbal** vosita sifatida ko`rib chiqish mumkin. Muloqotning **verbal vositasi** til va nutq hisoblanadi:

- **ut** – so`z belgilari sistemasi;
- **nutq** – so`z belgilari foydalananadigan tovushli, yozuvli signallar sistemasi.

Nutq – inson tomonidan qo'llaniladigan tovushlar signalari yoki yozma belgilardan iborat bo`lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishanadi, unjumadi va uzatiladi.

Nutq universal kommunikatsiya vositasi bo`lib, u orqali uzatilishi lozim (lo`)lgan ma'lumot o`zining mantiqiy mazmumini saqlab qoldi. Muloqotning **noverbal vositalari** deb aft, qo`l harakati, mimika, patomimika, premedetlar bilan almashish, foto, rasm, "ko`z orqali kontakt" va hokazolarga aytiladi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda hududiy xususiyatlari borligini ham alohida takkidlab o`tmox lozin. Masalan, o`zbek xalqining muloqot jonyoni boy, o`zaro munosabatlarning bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko`proq ishlatalishi bilan bog`liq. Bolalarning o`z yig`isi bilan onasiga o`z his-kechinmaltari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariiga bog`liq.

Boshqa millattar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo`lsa, ularda ham ba`zi his muloqot vositalarning turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatalishining guvohi bo`lishi mungkin. Bolgartlar agar biron narsa bo`yicha fikri tasdiqlamoqchi bo`lisha, boshlarimi u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo`lsa-chi, akinchha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o`zbeklar, ruslar va bir qator boshqa

milatlarda buning aksi, "yo'q" deyish yoki norozilikni bildirish uchun bosh sarak-sarak qilinadi.

No verbal muloqotda subbatoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyorlarga boy bo'iganliklari sababli, subbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'tasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi.

Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-kefin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tqazib davra qilib o'qitgan mahqul, chunki bunday shareoitda o'quvchilarda ham javobgartik hissi yuqoriroq bo'ladi, emotsiyalar almashinishingani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobjiy bo'ladi hamda bolalarning predmetiga va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarda samarali natijalarga erishish mumkin.

Kommunikativ muloqot jarayonda o'zaro munosabatga kirshuvchilarni birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari paydo bo'ladi:

- **mazmundorlik, tushunarlik, ifodalilik, ta'sirchanlik**. So'zning mohiyati haqida Sandiy (1210 – 1292): "Aqillimisan yoki ahmoq, kattamisan yo kichik, buni biron so'z aymaganiningcha bila olmaymiz" degan edi. Haltqimizda shunday ibratlari ibora bor: "Inson aqlu-farosati – uning nutqini aniqligida namoyon bo'ladi".

- **jestler** - insонning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insонning ichki holati, biror bir obyevtiga munosabati va tashqi olanga yo'nalganligi ifodalanadi. U yoki bu xalqlarda jestlar turilcha qabul qilinadi. Italiyaliklar va fransuzlar o'z muloqotlarini jestlarsiz tassavur eta olmaydilar.

O'zbek halqida nutqda jestlardan ko'p foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, noverbal kommunikatsiya og'zaki nutqda avtumay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonimi beradi.

- **mimika** - insон yuz xarakattarini bir qismi bo'lib, u orqali insонning o'yłari, xatti – harakatlari, tasavvurlari. Xotiralashi, taajubi va h.k. namoyon bo'ladi.

- **pantomimika** - insон tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadi

harakatlар tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7% ni, tovushilar va intonatsiya 38% ni, nutqsiz muloqot esa 55% ni tashkil etadi. Publisitiy aytganidek biz: "Ovoz bilan gapiramiz, tana bilan subbatlashamiz".

- **empatiya** – insонни boshqa odam tomonidan tushunilishining o'ziga xos usulidir. Bunda insонни emotsiyonal muammolariga yondoshishi tushuniladi. Bu boshqa odam hissiyotlari va kechinmalariga hamdard bo'la olishdir. Bir tomonдан

obektni tushuni, uni o'miga o'zini qo'ya olish muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan uning ichki hissiyorlarini tushunish unga hamdard bo'la olish ham muhimdir.

- **uqtirish** - shunday ta'sir usulki, unda maqsadga qaratilgan ta'sir hissonga inson tomonidan amalga oshiriladi. Iymoni komillik – insонни mustaqil fikr yuritishi va bir fikrga kelishi bo'lib, bunda ma'lumot qabul qiluvchi ma'lumot qabul qilgina qolmay, unga o'z fikri, qarashi va xulosalarni kiritadi. Iymoni komillik bu aqly ta'sir, uqtirish esa emotsiyonal irodaviy ta'sirdir. Iymoni komillik asosda hakqimiz orzusi, ma'naviyatining bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiy kabilarning asarlariда o'z ilodosini topgan.

- **taqiqchanlik** – insонлари jamoadan tashgarida bir-biriga ta'sir etish maxanizmini bo'lib, albatta bunda jamoaning roli ham inkor etilmaydi. Uni o'ziga xususiyati shundaki, insонлар faqat xususiyatlagagina emas, balki hattiharaqatga taqidini ham namoyon qiladilar. Taqid bolalik davridagi xos xususiyat bo'lib, u borliqni bilsish, anglash va o'zlashtirish sifatida namoyon bo'liddai. Bunda hollarda to'g'ridan-to'g'ri nusha ko'chirish motivlashegan taqiqchanlik kuzatildi. Ko'p hollarda kattalarda taqiqchanlik ta'sirning boshaq usuliga o'tmagan hollarda ishlataladi.

8.2. Muloqotning psixologik va pedagogik xususiyatlari


Muloqot qomuniyatlarni bilish hamda uni o'matish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantrish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o'z "Men"ni atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishsvona, eksalar orasida, ya'ni guruhi va jamoalarda rivojanlandi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojalrimizdan biri – bu muloqotga bo'lgan ehtiyojidir. Muloqoga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojalrimizi qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Pedagogik muloqot – bu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyatda muhim o'rinn tutadi. Biz guruh va jamoaga kirar ekanniz, doim unda turli rollarni birlashtiga to'g'ri keladi. Rasmiy guruhda boshliq rolini o'yinashak, kasalxonada humor, do'konda haridor, oilada rafiq yoki rafiq, ota-onha oldida esa farzandlik rolini bajaramiz. Pedagogik muloqotda ta'lim psixologiyasi, tarbiyaning psixologik ishlari, o'quvchini va o'quvchi munosabatlari, o'quvchini psixologiyasi, muktoblarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish muhim o'rini egallaydi.

Ijtimoiy psixologiya turli ijtimoiy guruhlar, jamoaning psixik namoyon bo'lishi, katta guruhlar - jamoalarning kayfiyatni, tafakkuri, raqobati qabiliarni o'rganadi. Bu masalarni hal qilishda ***muloqot psixologiyasi*** katta ahamiyatga ega. Boshqaruvda rahbarlarda nutq qobiliyyatining rivojanishi, shuningdek, xodimlar bilan til topa olish uchun muloqot psixologiyasini bilish zaru. Siyosatchilarida notiqlik mahorati shakllangan bo'lishi kerak, bunda ularga muloqot psixologiyasini yaxshi bilishlari yaqindan yordam beradi. Muloqot din psixologiyasi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Din psixologiyasi diniy ong xususiyatlari, uning psixologik va ijtimoiy asostari, vazifalari, tizimi, diniy his - tuyg'ular, diniy guruhlar psixologiyasini o'rganishda albatta muloqot sirari, muloqot madaniyatini bilishiga asoslanadi. Demak, ***muloqot psixologiyasi*** psixologiyaning barcha tarmoqlari bilan bog'liq holda rivojlandi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilganidan keyin birmuncha ijobji o'zgarishlar yuz berdi, ularning bir qismi milliy istiqboldan so'ng amalga oshirildi. Mamlakatimizdagi davlat hujjatlari ona tilida rasmiylashtirilmoxda, yig'ilishdagi mahrular o'zbek tilida qilinmoqda. Ijtimoiy hayotdagi katta yutuqlar bitan bir qatorda, shaxslararo munosabatlarda til odobi, nutq madaniyatida buzilishlar davom etmoqda, o'zbek tilining musaffoligi, aniq va lo'ndaligi, mantiqiyligi, ohangdorligi va silliqligi muloqotda o'z ifodasini topa olmayapti, natijada uzatilayotgan fikrlarni idrok qitish qiyinlashmoqda. Muloqot psixologiyasining asosiy maqsadi, avvalo nutq madaniyatini yoshlarda shakllantirishdir. Shuningdek, o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarga muloqot madaniyati, muomala sirlarini singdirish, guruh va jamoalarda o'zaro munosabatlarni muloqot orqali yaxshilashdir. Muloqotning naziariy va metodologik muammolarini hal qilish, muloqotni nutq bilan birgalikda rivojanishini ta'minlash fanning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Muloqot psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- hankorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o'zaro ta'sir va muloqot qonuniyatlarini o'rganish;
- Sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish;
- yoshlarda faoliykkka undovchi muomalaviy imkoniyatlari mavjudligini takhidlab o'tish;
- yoshlarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish;
- shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish;
- o'zaro ta'sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish.



Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlarni tizimi orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Individ hayotida ***muloqotning psixologik vazifalari*** turli chadir. Ya'ni:

49-shakl

1. Informatzion vazifa - axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir.
2. Regulyativ vazifa - muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to'g'ri munosabatni tashkil qilishdan iborat.

3. Signal vazifasining ko'magida katta ahamiyatga ega voqeя va hodisalar huqdagi signalni qabul qilish va uzatish.

4. Nazorat vazifasi - axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi.

5. Tarbiya qilish vazifasi - muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni bo'lib, niroyat darajada muhim omil hisoblanadi.

- Muloqot jarayonida obyektning maxsus tomonlarining borligi ham muhim hisoblanadi. Shuni aytish joizki, ko'p hollarda bunday shaxslar jamiyatdagi axloqsiz, odobsiz va vijdonsiz kishilardir. Muloqot jarayonida ba'zi bir psixologik to'siqlar mavjud. Ko'proq ular sunhiy ravishda vujudga keladi:

- 1) motivation to'siqlar - shaxslarning muloqotga kirishishdan bosh torishi, muomalani to'g'ri, aniq ko'rinishda olib borilishini xohlamasligi jarayonida namoyon bo'ladi;
- 2) aqliy (intellectual) to'siqlar - shaxsning boshqa shaxsiga nishbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va intellectional ilavodxonligi mazmunan boy bo'lgan taqdirda yuzaga keladi;
- 3) emotsional to'siqlar - muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotional-irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (agressivlik, qo'rquv, suabiyashish, xo'rلانish va boshqalar);
- 4) tarbiyaviy jarayondagi to'siqlar - ta'lim sohasida hamda huquqni mifofaza qilish organlarda "tarbiyasi qiyin" o'smirlar, nosog'lmom oilar va

muqaddam suđlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtida uchraydi.

Muloqota kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobji samaralar sari etaklaydi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarni tashkil qilish, emotsional muhitni taqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda icerki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insонning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakkiali to'g'risidagi axboroni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyuştirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'jallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish. Asaniyat olimlarning tadqiqotlarida ko'rsatiishiha, bolaning daslabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqota nisbatan ehtiyojdir. Bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlantib boradi:

- e'tibor xayrxohlikka ehtiyoj paydo bo'radi;
 - kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
 - avvalgi barcha ehtiyojarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;
 - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudega keladi.
- Muloqot tashqi ta'sirlar, namumalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari etaklaydi.

8.3. Muloqot turлari

Muloqot mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi:

- **moddiy muloqot** deganda subyekti dolzarb ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida, ayni paytda shug'ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayriboshish tushuniadi;
- **kognitiv muloqot** deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarни o'rganish, ma'lumotlarni bilib olish jarayonida o'zaro bilim almashinuviga aytiladi;

• **kondision muloqotda** psixologik va fizioligik holatlar oyriboshlanadi. Massalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko'tarishi yoki ak'sinchal, ona qizining o'ksinib yig'layotgan holatiga yig'i bilan munosabat bildirishi;

• **motivation muloqot** muayyan yo'nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o'zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar va ehtiyojar almashinuvi jurnayoni bilan izohlanadi;

• **faoliyat muloqoti** kognitiv muloqot bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko'nikma va malakalar ayriboshlanadi. Bu muloqot jurnayonda ma'lumotlar uzatiladi, bilim doirasini kengayadi, qobiliyatlar rivojlantadi va takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko'ra **biologik va ijtimoiy** ko'rinishda bo'radi. Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi tabiiy ehtiyojarni qondirish bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengayrirish, mustahkamlash, takomillashtrish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ehtiyojarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo'radi. Muloqot vositasiga ko'ra **bevosita va bivosita** bo'lib, bunda joni mavjudonning tabiiy organlari yordamida ya'ni qo'li, boshi, tanasi, tovushi yordamida axborot ayriboshlasa - bu bevosita bo'radi, agar muloqotni tashkilashtrish va ma'lumot almashishda maxsus quroq va vositalardan toydalansha - bu muloqot bilvosita deyiladi.

Muloqotning yuqorida mulohaza yuritilgan turlaridan tashqari **ishbilarmonlik va shaxsiy** turлari ham farqlanadi. Ishbilarmonlik muloqoti odamlarning turli xildagi qo'shma mahsuldar faoliyati va mazkur faoliyatining shifutni oshirish vositasi sifatida yuzaga keladi. Shaxsiy muloqot esa shaxs o'zining psixologik muammolariga, qiziqishlariga, ehtiyojlariga, o'z hayotiga, atrofida nimalar bo'yayotganligiga bo'lgan munosabatini atrofdagillardan bilsiga yo'naltirilgandir. Muloqot turlari **demokratik, avoritar, liberal** shakkida ham unalga oshadi.

Demokratik usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazzalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'yusndirilib, ta'sir o'tkazish sohalari yashiringan holda bo'radi. Shu boisdan, tasodifan voqeа va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha bisholanadi, rag'batlaniriladi yoki jazolnadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari uchunqungan holda yangi norma va talablarga moslashish, o'z faoliyatni uchun almashtinuviga aytiladi;

javobgarlik, emotsional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lg'a olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo'лади.

Muloqotning yana bir shakli *avtoritar* deb atalib, bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Masalan, boshliq tomonidan xodimlarning yurish-turishi, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yildi. Boshliq tomonidan ta'sir o'tkazishning asosiy metodi – jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlanirish metodidan soydalanilganida ham, u xodimga ma'navyi ozuqa bermaydi. Muzkur usul oilada qo'llanilsa, farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzozqlashish, "begonalashish" kechimmasiga aylanadi. Olbadagi shaxslararo munosabattar bolalami qoniqirmaydi; natijada odamovi, tund, ichindagini top, tashvishlilik, xavotirlilik kabi sotsial norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter hislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya(yoqtirish), empatiya(handardlik), samimiylik, xayrikhohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ular juda narsiz ifodalananadi. Ko'rko'rona va so'zsiz bo'yunsunisiga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqoq va irodasi kuchsiz shaxsni takib toptiradi.

Muloqot shakli ichida *liberal* usuli ham ko'zga tashlanib turadi. Bu usul muloqot jarayonida murosasoz, ko'ngilchan bo'lislilik, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqimni, guruhiy moslikni o'zida aks etirgandek bo'lib tuyuladi. Afusuki, liberallik, murasasozlik har qanday vaziyati til topib hal qilishga, prinsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi. Masalan, ota-onalarning farzandlari bilan bunday munosabatta bo'lishtiari salbiy oqibat sari etaklaydi: qat'iylilik, mustaqililik, dadilik va cho'rtkesarlilik singari irodaviy sifatlar farzandlar ruhiy dunyosidan uzoqlashadi. Murosasozlik ta'sirida yosh avlod xarakterida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik va mashuliyatsizlik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Muloqotning psixologik vostitalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri – o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakkaga chorlash, ustavokkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Turli vostitalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olish – psixologik ta'sir deyiladi.

Muloqotning perspektiv jihat. Muloqotning ushuji jihatida bir kishining ikkinchi kishi tomonidan *idrok qilinishi*, *tushunishi*, *baholanishi* kuzatiladi. Muloqotning mazkur jihatni quyidagi bosqichlar orali amalga oshishining psixologik xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin:

1) Idrok qilinayotgan odamni idrok qiluvchi o'zining shaxsiy hislatlari bilan qiyoslash matjasida, uning mahsuli bo'yicha talqin qilinadi va tushuntiriladi; bunday idrok qilish tarzida insomni inson tomonidan aks etirish, o'xshatish, unga tuqildi qilish, undan ibrat olini usublari orqali yuzaga keladi, ya'ni identifikasiya bosqichi bevosita amalga oshadi. Bunda kishi hampkorikkda harakat qilish vaziyatida shergi o'miga o'zini qo'yib ko'rib, uning ichki holati, niyatları, o'y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qiladi, bunda ular angilanilgan yoki anglanilmagan bo'lishi mumkin.

2) Idrok qilinayotgan shaxsning o'miga idrok qiluvchi o'z xohishi bo'yicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilish o'z-o'zini anglash neqizida namoyon bo'luvi, ya'ni refleksiya bosqichi vujudga kelganligi to'g'risida muayyan qarorga kelindi. Refleksiya kishni idrok etish subyekti sifatida o'ziga nisbatan sheringining munosabati anglab etiladi. Lekin kishi har doim ham muloqot juryonida o'zini kim ekanligini to'liq anglab etolmaydi, bu esa uning o'zi qilgan xatti-harakattari sabablarini boshqalarga to'nkashga majbur qiladi. Kishi o'z xatti-harakattari sabablarini, niyatlarini, o'y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini bosqqa kishilarga to'nkash orqali tushuntirishi psixologiyada yuqorida ko'rsatib o'tkanimizdek kauzal atributsiya ya'ni sababiy izohash deb ataladi.

3) O'zga kishilarning kechimmalari va his-tuyg'ulariga nisbatan handardlik bildirish, mehr-oqibatiligini amaliy ifodalash orqali ulami tushunish imkoniyati tug'iladi, buning natijasida tub ma'nodagi empatiya yaga asoslangan idrok qilish bosqichi yuzaga keladi.

O'zga kishilarga, ijtimoiy guruhi a'zolariiga nisbatan berilgan hislatlarni horizgacha ma'lum bo'lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarza ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholash stereotip lashtirish deyiladi. Idrok etish subyekti ijobjiy munosabatta bo'lgan shaxslarga ijobjiy, yoqitirmaydigan shaxslarga salbiy baho berilishi kauzal atributsiyaga xos tipik hollardan biridir. Muloqotning o'ziga xos darajalari mavjud. Psixologiyada u ucta:

1.	Makro darajada (katta)	<ul style="list-style-type: none"> • insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-ahloq.
2.	Mezo darajada (o'rta)	<ul style="list-style-type: none"> • muloqot ma'lum mavzu assosida kichadi.
3.	Mikro daraja (kichik)	<ul style="list-style-type: none"> • muloqotning oddiy formalari, savol – javob tariqasida yuz beradi.

Bundan tashqari shaxslararo munosabada muloqot turlari:

- *shaxslararo* (inson-inson);

- *shaxsjy-guruhiy* (guruh-guruuh);

- *omaviy kommunikatsiya* (radio, televodiniya, ro`znomalar va jurnallar).

Muloqot odamlar o`rtasida bigalkida faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog`lanishlar rivojanishining ko`p qirrali jarayon ekanligi hisobga olgan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli devhilishning eng asosiy sababi, uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o`zaro ta'sir doirasida bo`lishini anglatib, bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlardan biri muloqot ekanligiga ishora qitadi. Insoniy munosabatlarda dastlab odamlar o`rtasida ro`y beradigan fikrlar, hiss-kechimmlar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqoda bo`lishgani sari, ular o`rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o`rtasida umumiylilik, o`xshashlik va uyug`unlik kabi sifatlar paydo bo`lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig`izligi teskari reaksiyalarni biringidan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

8.4. Muloqot va shaxslararo ziddiyatlar.

Nizolar psixologiyasi

Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo`ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o`ziga jalb etadi. Shuning uchun ham muloqot, uning jihat, tabiat, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o`rgatish masalalari bilan shug`ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o`rnini va salohiyati keskin oshdi.

Muloqot odamlarning jamiyatda o`zaro hamkorlikdagi faoliyatlarning ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tarriba emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo`lganligi hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdotrigi va samaradorligini ta'mintovchi muhim omil ekanligini bildiradi.

Ijtimoiy hayotda, shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o`zaro kelishmochiliklarni bo`lib turishi muqarrar. Shuning uchun ba`zan olimlar ziddiyat yoki nizolaming nafaqt salbyi, balki ijobjiy tomonlari ham bo`ishi mumkinligini ochiq ehtiroyf etadilar.

Ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to`g`risida gapiradigan bo`lsak, ba`zan ikki shaxs o`rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to`g`ri xulosa chiqarib, shunday harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xuslyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga assolangan shaxslararo ziddiyat shaxsnii o`z usida muttasil ishlashga, o`z xulqini o`zi turzatishiga sabab bo`ladi. Bunday nizolar oqibatida ko`ra *konstruktiv* deb ataladi. *Destruktiv* nizoning oqibati esa ko`pincha salbiy bo`lib, u shaxslararo antagonizmni keltirib chiqaradi, tomonlarning asablari churchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o`rtasida, yoki quynona va kelin o`rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo`lishi va bir butun oitani buzilib ketishi olib kelishi mumkin. Ijtimoiy psixologik fenomen sifatida nizo yoki ziddiyatga quyidagicha ta`rif berish mumkin.

Konflikt yoki ziddiyat - bu ayrim alohida olingen shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o`zaro muloqot va ta`sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to`g`ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to`qashuvsi oqibatida paydo bo`lgan salbiy hissiyotlarga to`la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik xodisadir.

Nizo - bu o`zaro kelishmochiliq yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, dushmanlik, qo`rqitish, bosqinchilik, tortishuv kabi noxushliklarni nazarda tutildi. Adovat orqasida tug`ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq. Adovat, ixtilof, nifoq tutayli o`zaro janjalilar sodir bo`ladi. Odamlar janjal haqida o`ylaganlarida dushmanlik, qo`rqitish, bosqinchilik, tortishuv kabi noxushliklarni nazarda tutildi. Konfliktini keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar niyoyada ko`p, lekin ularni 5 asosiy gurunga bo`lib o`rganish mumkin:

51-shakl

1.	<i>Informatsion-axborot omillari</i>
2.	<i>Jamiyat miyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog`liq omillar</i>
3.	<i>Qadriyatlarga alovqar omillar</i>
4.	<i>Munosabatlar omilli</i>
5.	<i>Xulq-avtor bilan bog`liq omillar</i>

1. Information-axborot omillari: muloqot jarayonida sheriklarga noto`g`ri turza etib keladigan noto`liq, noaniq faktlar, mish-mishlar; shubhalar, to`la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib devarli xuyfona tarzda etkazilayotgan mis`umotlar; axborot manbaiga nisbatan istonchning yo`qligi; ayrim xodisa, voqealarga aloqador bo`lgan tortishuv va klishmoqchiliklarga sabab bo`lgan qoldalar, aqidalar, chaqiriqlar, qonun normalari va boshqalar ham shaxslararo yoki joruhlararo ziddiyatlarning omili bo`lishi mumkin.

2. Jamiat miyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog'liq omillar: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talashish, xokkimiyat yo'nalişidagi amal va hisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy normalar, an'analar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarshiliklar, rag'baltanitish va jazolash, uy-joy, mult tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarda kuzatiladigan nizolar.

3. Qadriyatlarga aloqador omillar (o'zimiz e'tirof etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, gruppaviy yoki shaxsiy e'tiqod, ishonmagan va ishongan qadriyatlarniz va ularning xulqda namoyon bo'lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlар va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar;

4. Munosabatlar omilli: bunday omillar bevosita o'zaro aloqalar va muloqotdan insonnинг qoniqishi yoki nom'a'qul, deb e'tirof etishidan kelib chiqadi. Shaxstararo o'zaro munosabatlarda ko'proq bir shaxsning kutishlariga boshqa bir insonnинг yoki odamlarning muomalasi mos kelmasligi holatlarida shaxsiy nizolar kelib chiqadiki, ularning bartaraf bo'lishi turli vaziyatlarda turlicha tus olishi, cho'zilib ketganda, battar "gazzakk" otishi, qisqa fursatda xal etilsa, muammo xal bo'lishi ham mumkin. Shaxsiy muloqotdagi nizolar shaxsning hayotiy tajribasi, ma'lumotiligi darajasi, professional mahoratiga bog'liq ravishida turli ko'rinishlarda o'z echimini topishi mumkin;

5. Xulq-anvor bilan bog'liq omillar: manfaatlar, qiziqishlar, o'ziga bo'lgan bahoga zid keladigan yoki xavf-xatar tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lishi bilan go'yoki, himoya vostisi sifatida paydo bo'luchi omillar turkumi bo'lib, bu ikkinchi tomonning xudbinligi,adolatsizligi, mashuhiyatsizligi yoki loqaydlik, beparvolik oqibatida kelib chiqadi. Nizokashlar bunday sharoitda o'zlariga nisbatan bo'lavotgan salbiy munosabatni xatti-harkatda ko'rib, sezib turganlari bois xafagarchilik kelib chiqadi va bu konflikt bilan tugaydi.

Konflikt yoki nizolar o'zaro munosabatlardagi odamlarning subyektiv xatolari sababli ham kelib chiqishi mumkinki, shu nuqtai nazzardan ham konfliktlarning turлari farqlanadi:

- **shaxsning o'ziga aloqador bo'lgan ichki nizolar** – odada bevosita ijtimoiy psixologiya tomonidan o'rganilmaydi, bu kabi nizolar umumiy, pedagogik handa patopsixologiyaning premeti bo'lib, u asosan bir inson qalbidagi turli hiss-kechimlari, istak-nohishlar va motivlarning bir biriga zid kelishi, qarama-qarshi fikrlarning paydo bo'lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizo shaxsgagina ma'lum bo'ladi, ba'zan esa odam qilib qo'ygan ishining aynan o'zining ichki nizolari oqibati ekanligini anglamaganda unga psixoanalitik yoki patopsixolog yordamga keladi.

- shaxs va guruh o'rtasida sodir bo'ladigan nizolar odada bir shaxs quashshari, hatti-harakatining u mansub bo'lgan yoki ishi tushgan guruhning normalari, xulq-atvor marommlariga zid kelishi, shaxs kutishlarining guruh normalaridan og'ishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bu mehnat jamoasida ro'y bersa, bu guruh a'zolarining malakasizligi yoki rathbarning odamlarni boshqarishdagi uquvsizligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Demak, bunday jamoada psixologik, ma'naviy muhit nosog'liom bo'ladiki, shaxs bilan bosqqa shaxslar o'rtasida kelishmovchilikka olib keladi.

- guruhlararo ziadiyat yoki nizo – ikki yoki undan ortiq guruhlarining bir-birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ruy beradi va bunda ularning o'z maqsadlariga erishishlari uchun bir-birlarining halqaqt berishlari asosiy omillardan hisoblanadi. Ko'pincha mutayyan formal, rasmiy guruh a'zolari guruhbozlikka berilib, har bir kichik guruh manfaatlari bir-briga mos kelmay qolganda ham nizo kelib chiqadi. "Guruhibboszik" deb atalmish bunday holat ham ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan zararli bo'lib, bu yaxlit jamoadagi ma'naviy muhitiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bir jamoa rahbariyati va rasniy tizimi bilan guruh ichidagi norasmiy tuzilma o'rtasida ham nizo kelib chiqadi. Lekin bu holatlarni sog'lom raqobatga asoslangan manfaatlar kelishmovchiligi, musalan, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatdan farqlash lozim.

- shaxstararo nizo – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o'zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarqalgan nizolardan biri bo'lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe'l-atvoriga ham, konkret vaziyatlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq holda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxstararo nizolardan – bu er va xotin, ota-ona via farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiatini ham, davom etish muddati ham, xal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlashtiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi. muuyyan masalalarni xal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligi tuflayli vujudge keladigan vaziyatdir.

Ishlab chiqarishdagi nizolar kishilar kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi va ularning ish qobiliyatini pasaytiradi, jamoadagi "ruhiy iqlim"ni yomonlashtiradi, kadrlar qo'nimsizligini ko'payiradi. Shuning uchun bu masalalarga doimo e'tibor berish, mehnat jamoalarini boshqarishni, qadrlar turg'unligini ta'minlovchi shartlardan biridir. Ishlab chiqarishda nizoli vaziyatlar oldini olishning barcha imkoniyattaridan foydalanan lozim.

Nizo qanday xarakterga ega bo`lmisin va u qay darajada katta bo`lmisin, barcha holattarda nizoning sabablari hamda uni vujudga keltingan holattar diqqat bilan tablib qilinishi lozim. Rahbar xar bir aniq vaziyatning tagiga adolat va obyektivlik bilan tegishli xulosalar chiqarishi kerak.

Mutaxassislar tadqiqotlarining ko`rsatishicha, ruhiy iqilm yaxshi bo`lgan hamda intizom ancha yuqori bo`lgan joyda faqat iqitsodiy ko`rsatkichlar yuksak emas, balki nizolar ham anchagina kam, xodimlarning o`z mehnatiidan katta qoniqish olayotgani ko`zga tashlanib turadi. Xodimlar noroziliги yuksak talabchanlik va ishlab chiqarishing ba`zi jixatlarini yaxshilash, bu bilan mehnat unumdarligini oshirish istagini natijasi sifatida ijobjy sabablarga ham ega bo`lishi mumkin. Jamoa a`zolarining printsipalligi hamda kamchiliklar bilan murosa qilmaslik istagi jamoaning yuksak faoliigi tashabbusi tufayli yuzaga keladi.

Ishlab chiqarishda **nizolarni vaziyatlarni ketnibr chiqaradigan turli sabablarga** ko`ra vujudga kelishi mumkin. Ullardan:

- mehnatni tashkil qilishdagi kamchiliklar;
- xaq to`lashning takomillashirilmaganligi;
- yomon mehnat sharoitlari;
- mehnat haqidagi qonunlarni o`zi;
- rahbarlikning qoniqarsiz saviyasi;
- o`zaro munosabatlar madaniyatining past saviyasi.

Jamoa a`zolari orasida nizolarning ko`philigi qo`yidagi sabablar tufayli sodir bo`ladi:

1. **Vazifalarni – o`zaro bog`liqligi.** Mehnat tadsimot barcha bo`g`inlarni bir-biri bilan bog`lab qo`yadi. Bunday sharoitda bir kishi yoki guruh kishilarning bajaradigan ishi boshqa bir kishi yoki boshqa bir gurux ishiga bog`liq bo`lib qoldadi. Ko`rib turibsizki, noroziliklar hamma bug`inlarda bor. Aynan shular nizoni kelib chiqishiga sabab bo`ladi.

2. *Erkinlik, mustaqillik va o`z qadrimi bilishdagi har xillik.*

Bu sabab eng ko`p hollarda uchraydigan sabablardan hisoblanadi. Masalan, bo`ysunuvchi o`z fikrini aytishga har doim xoxlayman deb aytса, rahbar bunga javoban fikringizni faqat biz “so`ragan payda ayishingiz mumkin” desа, o`z-o`zidan nizo vaziyat tug iladi.

3. **Manzanalik, qaysarlilik.** Shunday xodimlar borki, faqat o`zining fikrini maqullaydi, murosaga xech ham bormaydi. Bunday odamlar g`alvaning ini. Ular bilan niyoyatda extiyotkorlik bilan munosabatda bo`lish kerak.

4. **Kommunikatsiya.** O`zaro aloqaning qoniqarsizligi. Axborotning xodimlarga etib bormasligi yoki uning juda ham sust bo`lishi nizo chiqish uchun ham sabab, ham oqibat bo`lishi mumkin.

Shaxslararo nizolarning ketib chiqishi quydagi holatlarga bog`liq bo`ladi:

- mehnat jarayonlari va ishlab chiqarish vaziyatlariga;
- jamoa a`zolarining shaxsning subyektiv munosabatiga;
- shaxslararo munosabatlarning turli vaziyatlardagi turicha namoyon bo`lishiga.

Bundan tashqari, nizolar quyidagicha to`falanadi:

<i>a)</i>	<i>gorizontal</i>	bir-biriga bo`ysunnaydigan, tobe bo`limgan oddiy xodimlar o`rtasida	<i>52-shakl</i>
<i>b)</i>	<i>vertikal</i>	o`zaro bir-biridan amal pog`onasi bo`yicha farq qiluvchilar, masalan, rahbar bilan xodim o`rtasida	
<i>v)</i>	<i>aralash</i>	shaxslararo munosabatlarda u va bu holat uyg`un kelganda	

Odatda ishlab chiqarish faoliyatida eng ko`p tarqalgan nizo turli vertikal va uralash bo`lib, ular jami nizolarning 70-80 foizini tashkil etadi.

Nizolarning oldini olish yoki u paydo bo`igan bo`lsa, bartaraf etish uchun uning kelib chiqish sababini, asosiy aybdorlarni yoki obyektiv sabablarini aniqlash lozim. Mutaxassislar tomonidan nizolarni bartaraf etishning ko`plab usullari va yo`llari borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shulardan biri nizoni xal qilish uchun nizo xaritasini tuzish taklif etiladi.

Turli **nizolarni barataf etishga imkon beruvchi** ikki guruh usullari taklif etiladi.



53-shakl

Nizolarni xal qilishga bog`liq bo`lgan *tizimi* usullari:

- 1) **ishga nisbatan qo`llaniladigan talablarini tushuntirish.** Masalan, ischi yoki xodim o`z xizmat vazifasini to`laqonli ado etolmaganligi sababli u bilan rahbar o`rtasida nizo kelib chiqqan bo`lsa, nizoni barataraf etishga axd qilgan kimsha shu xizmat lavozimiga qo`yiladigan talablar, xodimning mehnat huquqlari bilan qatorda uning burch va mashhuliyatini ham yana bir marotaba uqturib qo`yadi; summarasi boshqa bir xodimga yoki xodimlarga, qolaversa, boshqa tuzilmalarining

aniq va yaxshi ishlashiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bir xodim yoki xodimlar guruhida nizoli vaziyatning paydo bo'llishiga boshqa bir tuzilma ishidagi nomuviqilqlar sabab bo'llishi mumkin.

Bunday sharoitda rahbar nizoni barataraf etish uchun o'sha boshqa aybdor tuzilmaning faoliyatini aniq yo'iga qo'yishi, yoki xodimlar o'tasida murosa bo'llishi uchun boshqa bir qo'shimcha muvoqiqlashtiruvchi bir bo'g'inni ishlab chiqarishda joriy etishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish nizosining sababi – xom ashyoning vaqtida yetkazib berilmayoqanligi bo'lsa, rahbar ta'minotchiitar ishini muvoqiqlashtiradi, ular faoliyatini bilan ishlab chiqaruvchilar o'tasida birlik va hamjihatlik bo'llishiga erishish yo'lida aniq yo'naliishlarni belgilaydi.

3) *barcha ishlab chiqarish subyektlari faoliyatini yagona maysad atrofida birlashishish* ham ishlab chiqarish jarayonlari nizolarning sodir etilmasligini kafolatlaydi. Bunday sharoitda rahbarlar va guruh liderlarning roli katta bo'ladi; 4) *rug' battantrish fizimini joriy etish* samarali ish usullaridan hisoblanadi. Bunday sharoitda odamlarning xulq-atvoriga ta'sir etish, paydo bo'llishi mumkin bo'igan nizoli vaziyatlargacha barham berish yoki sodir bo'gan bo'lsa, uni baratraf etish uchun tashakkur bildirish, mukofotlash, xizmat lavozimmi ko'tarish kabilarni qo'llash ijobjiy samara berishi mumkin.

Nizolarni bartaraf etishning *shaxslaro* munosabatlarga aloqador usullariga quyidagilar kiradi:

1) *bosh tortish* – nizoga nisbatan shunday reaksiyasi, bunda nizoga guvoh bo'lganlar asilda uning mavjudligini tan olmaydilar,unga aralashishdan bosh tortadilar. Odaitda bunday sharoitda rahbar yo'ayni paytda vaqt yo'qligini, imkoniyat yo'qligini, nizoning sababi arzimas holat ekanligini vaj qilib, uni hal qilishga aralashishdan bosh tortadi. Yoki u vaziyat taqozosi bilan paydo bo'igan nizo vaqt o'tishi bilan o'z o'zidan yechimini topadi, odamlar insofiga keilib qolishiga umid qiladi;

2) *tekitsash* – bu nizolashuvchi tononlardan birini mavjud holatga "ko'ndirish", moslashirish va shu yo'l bilan o'zining ham muayyan manfaatlarni himoya qilishdir. "Mayli men yutqazsam ham, sening ishing britb keta qolsin" degen naqlda nizoga aralashgan shaxs vaziyatni yumshatishga erishadi, go'yoki "o'zini qurban qilib" bo'lsa ham tononlarning yarashib ketishi uchun barcha imkoniyatni yaratadi;

3) *kompromiss* – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning xulq-atvoriga fikrlarini muhokama qilish yo'li bilan ikkala tonon uchun mahqul bo'igan yechimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga aralashgan shaxs ikkala tonomning ham aybini, ular tononidan yo'qoyigan xatolani ochiq, holis o'rriaga tashlaydi va eng mahquli – har bir shaxs o'z burch va mashuliyatlarni

tonoziga solib olishlari ekanaligini utqirradi. Natijada ikkala tononda xosil bo'lgan tenglik ma'lum ma'noda yumshaydi va oqilonqa qarorlar qabul qilish imkoniyati tug'iladi.

Nizokashlар janjal bo'lgandan ko'ra yomon bo'lsa ham bir qarorga keltinganligidan xursand bo'lib, o'z fikrharidan ma'lum ma'noda qaytadilar, vaqt o'igach esa vaziyat umuman yumshab, tononlар yarashib ketishi mumkin.

Odatda olaviy nizolarda kompromiss yo'lini tutgan olinaning katta a'zosi yoki erkak kishi nizoming oldimi olishga erishadi, bunda biror tonomning "bir qipdum qolisiui" katta rol o'ynaydi;

4) *rug'obat* – odatda bir tonomning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boshqasining batamom yengilishini nazarda tutadi. Ya'ni, bunda "Men yutishim uchun sen mutloq yengilishing shart" degan tamoyil ustivor bo'ladi. Bunday usul albutta, psixologik nuqtai nazardan samarasiz va noto'g'ri bo'lsa ham, ayrim holatlarda masalatning aynan shu tarzda yechilishi boshqalarning iqtidori yoki hodusining kuchayishiga sabab bo'llishi mumkin. Masalan, oilaviy mojaroda kelin olar nohaq bo'lib, yoshigi tufayli taraqlab, barchanining dilini xira qilishi va ushu vaziyatda baribir qaynonaning sabr bilan ustun kelishi, baribir aytganini qildirishi yosh kelinchakning kelgusini shu kabi xatti-harakatni boshqa qaytarmasligi uchun sahboq bo'llishi mumkin;

5) *hamkorlik* – bu nizoni xal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tonomning shaxsiy manfaatlari nizoni keltirib chiqargan muammodan ustun qo'yildi. Bunday holatlarda nizokashlar bir tonon manfaatining inobatga olmasligi, ikkinchi tonomning boshqa manfaatini yerga urishini tushungani ushuham murosa yo'li to'g'ri ekanligi, yaxshisi mayjud muammmoni yyechish ga teng kirishish lozimligi fikriga keilib to'xtaydilar.

Shunday qilib, real hayotda nizoming kelibi chiqishi, uning qanday kechishi va yechimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko'ra, ushuham vaziyatda ishtirot eliyotgan insonlarning unga nisbatan subyektiv munosabalariga bog'liq bo'ladi.

8.5. Ijtimoiy psixologik treninglar

Yugoridagi barcha qonuniyatlarni hisobga olgan holda, shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanish uni kelgisidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariha psixologik tuyorlaydi. Bunday tayyorgarlik, barcha soha mutaxassislari uchun multim, chunki ular o'z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch ketadilar va har bir vaziyatda ulardan niyoyatda o'tkir didililik, odob va kishilari psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada noyob usuli bor, u ham bo'lsa, *ijtimoiy psixologik treningdir*.

Trening usulining ijtimoiy-psixologik mohiyati shundaki, bu usul orqali odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini o'rgatishdir. To'g'ri, odam kishilar jamiyatida yashar ekan, kundalik muloqotga shakllanitirib boradi. Lekin insonda bunday malakalar stixiyali tarza yoki maqsadga qaratilgan holda ham hosil qilinishi mumkin. Oxirgi holat hozirgi zamон kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarda to'g'ri mostashishiqa yordam beradi. Bu narsa insonda, ijtimoiy aql-zakovatning shakllanishiga olib keladi.

Ma'lum bir muammolarni xal qilishda psixologik trening deb ataluvchi o'yin va mashqlar to'plamidan iborat mashq'ulotlar yordam beradi. Shuni alohiba qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxsning individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday treninglar ***psixologik treninglar*** deb ataladi. Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi - trening guruhini, ya'ni treningda ishtirok etuvchilar guruhini yig'ishga qaratilgan bosqichi;
- boshlang'ich bosqichi - guruh normalarni ishlab chiqish bosqichi. Guruhiy normalar guruhda mashq'ulotning dastlabki soatlaridanoq samimiylik, o'zaro ishonch, o'zaro hurmat muhitini vujudga ketirish maqsadida qabul qilinadi. Guruhiy normalarni ishlab chiqish jarayonida ishtirokchilar bilan bu normalarga albatta rioya qilish keraktigi to'g'risida kelishish va har bir a'zoning roziligini olish kerak;
- ishni olib borish bosqichi - bu trening jarayonini va mashq'ulotlarning qanday olib borilishi, ularning turkasi, trening jarayonida qo'llaniladigan usullardan iboratdir;

- yakunlash bosqichi - trening yopilishini yuqori hissiy to'qinlarda yakunlash tadbirini tayorlash va o'tkazish, har bir ishtirokchiga qulay sharoit yaratish, ularga birlashtirishda faoliyatlari uchun o'zaro tashakkur bildirishlariga imkon berish, ulardan bo'lib o'gan trening samarasi haqida fikrlarini so'rash, hamda ishtirokchilarga nisbatan o'z moyilligini namoyon etish, guruh ishtirokchilari bilan bo'lib o'tgan trening mashqlariga yakun yasash hamda erishilgan natijalar bo'yicha xulosa qilish bosqichi.

Trening – inglizecha "***maxsus rejim, trenirovka***" degan ma'noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Ijtimoiy psixologik treninglar ikki xil vazifani:

1) muloqot va pedagogik muomala qomuniyatlarini o'rganish;

2) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, kasbiy pedagogik muomala ko'nikma va malakalarini shakllanitirishini ta'mintaydi.

Ijtimoiy psixologik trening muammosining nazariy va amaliy tononlari ajanib ko'rsatiladi. Amaliy tononi trening ishtirokchilar bilan bo'tadigan muloqot ko'nikmalari va malakalarini egallashtga va ularni chiniqturishga qaratilgan pedagogik ish davomida mushaklarning zo'riqishini so'ndirish malakalarini, istiyorliq diqqatini taqsimlash malakasini shakllanitirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan mashqlarni taqozo etadi.

Ijtimoiy aql-zakovatga ega bo'lgan shaxs o'zini ham, o'zgalarni ham, shakllorni bashorat qila oladi. Ana shunday aqning bo'lishi uchun psixologlar maxsus tayyorqarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni taklif qilib chiqishgan. Shunday maqsadlarda G'arbda mashhur bo'lgan T-guruhlar tashkil etilib,unga ixtiyoriy muloqot jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni his qilayotgan shoxslar taklif etiladi. Ijtimoiy psixologik treningning asosiy metodlariga guruhiy munozaralar, rolli o'yinlar va psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglar kiradi. T-guruh, o'zolari odadda 7 kishidan 15 kishigacha bo'lib, mashq'ulotlar bir necha kundun bir necha oy largacha davom etadi. T-guruhnинг ahamiyati shundan thorak, u birinchidan, odamlar o'rtasida iliq o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib kelib, shaxsda birovni tushunishga intilish, uning manfaati yo'lda o'z qarashlarini ham qayta analiz qilish chityojimi paydo qiladi. Ikkinchidan, T-guruh a'zolari o'rtasida shunday umumiy "psixologik til" paydo bo'ladiki, ular tez orada o'zgis kechimnalarini anglatgina qolmay, hukki bir-birthariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularda muloqot mobaynida o'zini "o'zgalar" o'miga qo'yish, ularning ichki olamini o'ziga tushunish qobiliyatini va istagi tarbiyalanadi. Uchinchidan, T-guruhdagi mashq'ulotlar muloqot jarayonining turli murakkab qirralaridan tashqari, uning memoniyligi tomonlari bo'yicha ham ishtirokchilarni chiniqtiradiki, ular muammaladagi har bir ibora va imo-ishoraning tub ma'nosini tushunishga erishadilar. Masalan, "xayr, yaxshi qoling" iborasini uning qanday ohangda, qay holatda aytishiga qarab, suhbatedoshning "yashirin" niyatlarini o'qib olish va shunga ko'ra harakat qilishga o'rgatadi.

Ijtimoiy-psixologik treningning metodik talablariga quyidagi lar kiradi:

1. O'quv jarayonida guruhda tashkil etilgan muloqot orqali guruhiy jarayon yoki holatlardan individual holatlarga, ya'nii har bir ishtirotchining o'z shaxsiy "Meni" ni tushunishga olib kelish lozim. Chunki munozara yoki o'yinlar jarayonida ishtirotchilar vaziyatni yoki rolni faol o'zlashtirib, har bir holatdan o'zi uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur, yoki bo'imsa, interpsixik jarayondan intrapsixikka aylanishi kerak.

2. T-guruhlarda muloqotning nutq shakllaridan tashqari, uning nutqiz-zoverbal shakllari ham keng qo'llanilishi, ya'nii har bir o'rganuvchi o'z xulq-atvornini verbal nazorat qilishdan tashqari, o'z tanasi, har bir harakat, ritmning mohiyatini ham tushungan holda uni hayotda, amalda ishlashiga erishish zarur.

3. T-guruhning har bir ishtirotchisi albatta o'z-o'zini kuzatish kundaligini yuritnog'i,unga har galgi mashg'ulidan so'ng o'z his-kechimmalari, muammolarni yechishdagi shaxsiy ishtiroti, tasavvurlari va boshqalarni odilona yozib borishi ham muhimdir.

4. T-guruhga a'zo bo'lish ixtiyoriy bo'lganligi uchun ham uning har bir a'zosi mashg'ulotlarni sira ham qoldirmaslikka harakat qilishi zarur, chunki bu narsa o'quv guruhining muhitiga, a'zolarning o'zaro munosabatlariiga bevosita ta'sir qiladi.

5. Mashg'ulotlarni maxsus xonalarda, shovqin-surondan holi yerda tashkil etilishi, u yer did bilan bezalgan, shinam bo'linog'i lozim.

6. T-guruh a'zolari mashg'ulotlarga o'zlarini uchun qulay kiyimlarda kelishlari lozimki, bu narsa boshqalarda ham, o'zida ham ortiqcha hissiyorlarni tug'dirmasligi kerak.

7. Instruktor yoki shu mushaq'ulotlarni o'tkazuvchi trenerga alohida e'tibor berish zarur. U o'zi maxsus tayyoragarlikdan o'gan, xushmuomala, did bilan kiyungan, har bir mashg'ulotga aaylab tayyoragarlik ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. U o'z kayfiyat, munozara yoki o'yinga shaxsiy munosabati bilan mashg'ulotning tabiiy kechishiga xalaqtি bermasligi, sabr-toqatl, madaniyatli bo'lishi zarur.

Mashg'ulotlarni tashkil etish shakliga kelsak, u maqsad va mazmunga mos holda "yumaloq stol" atrofida, to'rburchak stol atrofida, gilam ustida, ba'zan tik holda amalg'a oshirilishi mumkin.

Afsuski, T-guruhlardan ayrim hollarda yirik shaharlardagi yirik samoat korxonalarini rahbarlarini muloqotga tayyorlash, mas'ul shaxslarni qayta tayyorlash kurslarida, psixologlar davrasidagini o'tkazilmogda. Vaholanki, muloqotdagi bilimdonlikka erishish, "ijtimoiy aql"ga ega bo'lish barcha mutaxassislarga zarur. Anally psixolog xoh maktabda bo'lsin, xoh samoat korxonasi yoki boshqa idora va o'quv yurtida bo'lmisin, mahalliy sharoimi chuqur o'rgangan holda, u erda

rahhariyat bilan kelishilgan holda T-guruhlari tashkil etmog'i va shu yo'sinda ham o'zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini oshirib bormog'i zarur.

Muloqot jarayonida ishtirot etuvchi ikki jarayon - gapirish va tiflashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatiga ega. Shu bois, ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta o'libor berilib, bu uslubning nomi *ijtimoiy psixologik trening (IPT)* deb ataladi.

IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda ishlashlantirish bo'lib, IPT mobaynidagi odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi. Analify muloqot treningi - IPTning bir turi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan (edbirdir). Gurnuh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga o'rgatish, majlislar o'tkazish, ziddiyatlari holatlarda o'zini to'g'ri tutish malkaklari hosil qilinadi. Bunda trening qatnashchilari ongiga hikovlarni tushunish, o'zini o'zga o'miga qo'ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oyasi singdiriladi. Treninglari mobaynidagi boruhiy munozaralar, rolli o'yinlarning eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Muloqot – odamlarning birgalikkagi faoliyatlarini ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faoliyatlari mobaynidagi bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kinchish jarayonidir. Ya'nii, har bir shaxsing jamiyatda ado etadigan ishlari (menhat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishini, fikrlar almashinuvni kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsing jamiyatda utgan o'mi, ishlarining muvaffaqiyati, ortirgan obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqidir.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Muloqot madaniyati, munosabat, kommunikativ, interaktiv, pertseptiv, ilmiy, monolog, ekspektatsiya, identifikatsiya, refleksiya, stereotipizatsiya, empatiya, verbal, noverbal, jest, mimika, pantomimika, demokratik, avtoritar, liberal, konstruktiv, destruktiv, kommunikatsiya, konfrontatsiya, trening.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Muloqot madaniyati tushunchasiga ta'rif bering.
2. Munosabat deb nimaga aytildi?
3. Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud. Ularga ta'rif bering.
4. Muloqotning funktsiyalari sanab o'ting hamda izohlang.
5. Rasmiy yoki norasmiy muloqot turi haqida nimalarni bilasiz?
6. Muloqotni verbal va noverbal vositasini ta'riflang.
7. Pedagogik muloqot tushunchasiga ta'rif bering.
8. Muloqot psixologiyasini sohasining asosiy mazmuni nimadan iborat?
9. Muloqot psixologiyasining asosiy vazifalarini sanab o'ting.
10. Muloqot turlariga izoh bering hamda ularni sanab o'ting.
11. Demokratik, avtoritar, liberal muloqot turlarini ta'riflang.
12. Boshqarish jarayonida nizo tushunchasini ta'riflang.
13. Ishlab chiqarishda nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradigan sabablar qaysilar?
14. Shaxslararo nizolarning kelib chiqishi qanday holatlarga bog'liq bo'ladi?
15. Ijtimoiy psixologik treninglar haqida ma'lumot bering.

"Muloqotga kirishuvchanlik" (V.Ryaxovskiy testi)

Quyida berilgan 16 savolga "ha", "yo'q", "ba'zan" deb javob bering.

1. Sizni amaliy uchrashuv kutmoqda. Uni betoqatlik bilan kutasizmi?
2. Sizni biror kasallik holdan toydirmaguncha, vrachning oldiga borishni orqaga suravermaysizmi?
3. Sizni biror mavzudagi axborot bilan yig'ilish, majlis va shunga o'xshash tadbirda ma'ruza bilan chioqish topshirig'i xavotirga soladimi?
4. Sizga ilgari bormagan shahringizga safarga borib kelishni taklif etishdi. Shu safarga bormaslik uchun bor imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O'zingizdagi hissiy kechimmlar bilan kimlar bilandir o'rtoqlashishni yaxshi ko'rasisizmi?
6. Ko'chada sизга notanish odam biror ijtimos bitan murojaat qisqa, sizning g'ashingiz keladimi?
7. Siz "Otalar va bolalar" muammosi bortigi va turli avlod vakillarining bir-birlarini tushunishlari qiyinligiga ishonasizmi?
8. Tанишингизга bir necha oy aval olgan qarz pulini eslatishga uyalsizmi?
9. Oshxonha yoki restoranda sизга yoqmaydigan taom berishdi, idishni cheunga surib, achchig'ingiz kelganini yashira olasizmi?

10. Begona odam bilan yolg'iz qolganingizda, u birinchi bo'lib gap bo'lishda, sizga javob qaytarish matol keladimi?

11. Siz turli yerlarda odamlarning uzun navbatda turishganini ko'rsangiz, toqatingiz toq bo'ladimi. Navbatda turib kuishdan ko'ra, o'z niyatizingizdan voz kechidini at'jal ko'rasisizmi?

12. Biror janjallli vaziyatni muhokama qilishi kerak bo'lgan komissiyaning o'zosi bo'lishidan qo'roqasizmi?

13. Sizda biror adabiyot, san'at va madaniyat asarlarini baholashning sof individual mezonlari bor va bu borada boshqalarning fikrini qabul qilmasiz. Siz undaylarmi?

14. Sizga juda tanish bo'lgan masala bo'yicha boshqalarning noto'g'ri filolarini tasodifan eshitib qolsangiz, indamay qo'ya qolmasizmi?

15. U yoki bu masalada yordam berishingizni so'rasha, siz bundan og'ribusizmi?


16. O'z nuqtai nazaringizni og'zaki bayon etgandan ko'ra, uni yozma turda ifodalashni afzal ko'rasisizmi?

Ballanni hisoblang: "ha" – 2 ball, "ba'zan" – 1 ball, "yo'q" – 0.

Natijani tahsil qilish:

- 14-18 ball. Sizning muloqolga kirishuvchanligingiz yaxshi, o'rtaча. Siz ko'p narsaga qiziqasiz, boshqalarni bajonidil tinglyaysiz, o'zgalar fikriga sabr-bo'libtisisiz, o'z fikringizni bosiqlik bilan izhor etasiz. Begonalar bilan uchrashuvga borish siz uchun unchalik noxush emas, lekin shovqin-suronli davrani yoqitmasiz, odamlarning sergapi sizga yoomnavdi.
- 9-13 ball. Siz muloqolga kirishuvchansiz. Qiziquvchan, sergap, turli musalalarda o'zgalar bilan gaplashishni yaxshi ko'rasisiz. Yangi odamitar bilan hujdihish, davraning diqqat markazida bo'lishiň yoqitrasiz. O'zgalarning ijtimoslarini bajarmasangiz ham qabul qilaversiz. Achchig'ingiz tez, lekin tez haylaysiz. Sizga sabr-toqat, qiyinchiliklar bilan to'qashganda jasorat etishmaydi. Lekin astoydil hoxlasangiz, o'zingizni yon bermaslikka ko'ndirishningiz mumkin.
- 4-8 ball. Sizning muloqat matalangiz yomon emas, siz barchia ishlarning muvoobi bo'lib yurasiz. Munozaralarda qatnashishni yaxshi ko'rasisiz, biror masala yuzasidan yuzaki tasavvurga ega bo'lsangiz ham, o'z fikringizni aytishni haylaysiz. Ishni oxiriga olib bora olimasangiz ham har qanday ishni boshlayversiz. Mu haqda o'ylab ko'ring.
- 3 va undan kam ball. Sizning kommunikativ malakalarining yaxshi emas, siz hujdihisiz, har narsaga aralashaverasiz. O'zingiz umuman bexabar bo'lgan narsalar haussida xam fikr yuritaversiz. Ixtiyorsiz tarzda turli ziddiyatlardan xavotirda bo'lishadi.
- 0-2 ball. Sizning mulakat matalangiz yomon emas, siz hujdihisiz, har narsaga aralashaverasiz. O'zingiz umuman bexabar bo'lgan narsalar haussida xam fikr yuritaversiz. Ixtiyorsiz tarzda turli ziddiyatlardan xavotirda bo'lishadi.

ishitirokchisiga aylanib qolasiz. Jizzaki, salga xafa bo'ladigan odatingiz bor, shuning uchun odamlar siz bilan chiqisha olmaydilar. O'zingizni tutish, sabrtoqatli bo'lish uchun odamlarga xurmat bilan qarashga o'rganing. Qolaversa, o'z sog'ligingiz haqida qayg'uring, chunki bunday hayot tarzi izsiz bo'imaydi, asablarining charchab qolishi mumkin.



Ijtimoiy guruhlar klassifikatsiyasi

Xatti-harakat strukturasi va funksiyalari

XATTI - HARAKAT

XATTI-HARAKAT KOMPONENTLARI

HARAKAT
(MOTOR)

AQLIY (ICHKI)

HISSIY
(SENSOR)

ASOSIY FUNKSIYALARI

LJRO
ETISH

BOSHQARISH

NAZORAT

ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**I J T I M O I Y
G U R U H L A R**

O'lchamiga ko'ra:

Katta

O'rta

Kichik

Mikro-
guruhlar

Tashkil

etilganligiga ko'ra:

Tashkil

etilmagan

Rivojlanish

darajasiga ko'ra:

Noformal

(norasmiy)

Formal (rasmiy)

Sust rivojlangan

Yugori rivojlangan

Ahamiyatlilikiga
ko'ra:

Rivojlanish

darajasiga ko'ra:

Referent

Noreferent

O'zaro munosabatlarni
bevositaligiga ko'ra:

Real

Sharqli

Birlamchi

Ikkilamchi

Odamlarning o'zaro ta'siri

turlari

SHAXSLARARO

Belgilari

*Maqsadning
mavjudligi*

*Eksplikatsiya
qilinganlik
(shartli belgilarni
izohlaganlik)*

SHAXSLARARO

Turlari

Odamlarning o'zaro ta'siri

GURUHLARARO

Darajalar

*Oliy
daraja*

*Quyi
daraja*

GURUHLARARO

MULOQOT FUNKSIYASI



Ishirokchilar soniga ko'ra:

- shaxslararo

- guruhiy

Muloqot usuliga ko'ra:

- verbal

- noverbal

Muloqot qiluvchilarining

holatiga ko'ra:

- kontakt

- distanat

Muloqot shart-sharoitiiga

ko'ra:


- rasmiy

- norasmiy

Vazifasiga ko'ra:

- o'rnatuvchi

- information



MULOQOT TURLARI



IX. BOSHQARUV PSIXOLOGIVASI

REJA:

- 9.1. Psixologiyada boshqaruv muammolari.
- 9.2. Boshqaruv psixologiyasida motivlashtirish va ehtiyoj.
- 9.3. Boshqaruv psixologiyasida rahbarlik va liderlik jihatlari.
- 9.4. Boshqaruvda rahbarlik usulbari.
- 9.5. Rahbar qobiliyatni komponenttari.

Asosiy tayanch tushunchalar: boshqaruv psixologiyasi, rahbarlik usulbari, liderlik, avtoritet.

9.1. Psixologiyada boshqaruv muammolari

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiboring ortib borishi munosabati bilan boshqaruv psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi - ***boshqaruv psixologiyasi*** paydo bo'ldi. Boshqaruv psixologiyasi psixologiyaning shunday tarzog'iki, u boshqaruv faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan bosha guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqaruv muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix, iqtisod, huquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tonmlarini ochish bilan shug'ullanadi. psixologiya boshqarishni ham obyekti, ham subyektni o'rganadi. psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, atohida shaxs, ularning psixologik hotatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalarini boshqaruv obyekti deb aytiladi. Boshqaruvning subyekti o'rganilganda esa odatta boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Boshqaruv psixologiyasi - boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlarga ko'ra u boshliq darajasiغا ko'tarildi, ismi muvaffaqiyatlari amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'satisi maqsadida u qanday ta'sir usublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimadir yuk sak mas'uliyatini bo'yingga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish

uchun javobgarlikni o'z bo'yninga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida, bir qancha guruhlardagi ***shaxslararo munosabatlarning harakteriga javobgar bo'lish*** qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni ushklil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqdagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-furosatning va sabr-qanoating bo'lishini talab qiladi.

Ijtimoiy faoliyat jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi yurish-turish tamoyillari qondorish rahbarlar, mutaxassislar, oddiy xodimlar bilan munosabatda bo'lish, bir

ijtisodiy, ruhiy tarbiyaviy munosabatlar o'matish kabi muhit bilan qurshovda bo'lishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ijtimoiy faoliyatda xulq va axloq kabi umumiy tushunchalarini ajratib qarash o'rindir.

Xulq - kishining jamiyatda yashab namoyon etadigan, shakllanadigan tushuncha bo'lib, u kishining yurish-turishida, axloqida, munosabatida, xotirasida, tafakkurida namoyon bo'ladigan ijtimoiy omingning bir ko'rinishidir. **Axloq** - jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi, yurish-turish tomyillari yig'indisi. Axloq - kuzatish boradigan huquq me'yordanidan farq qiladi. Axloq jamiyatichilik filriga va ta'siriga, e'tiqod, an'ana va odatga, urf-odatga, kishining o'z xulq-avtorini boshqarishga tayorligiga, mehribon va xushmuomalaligiga, ishda humkasblari bilan madaniyatlari munosabatda bo'lishga, mehnat, ishab chiqarish, moliya intizomlarini saqlashiga tayanadi. Axloq kishining og'ir sharoitda o'zini tutu bilishida, bo'y sunuvchilariga topshiriq berayotganda xushmuomalab bo'lishda, qo'l ostidaqilarga nisbatan e'tiborli bo'lishda, ular muvaffaqiyatini o'z vaqtida uqdirlashida o'z ifodasini to'adi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi uning fuqarolariiga inson erkinligi huquqlaridan foydalanshga keng yo'l ochib berdi. Ayniqsa, ijodkorlarga, ixtirochilarga, adlyul mulk egalariga qulay sharoitlar yaratadi. Ular o'z aq'l-zakovat multini: ixtirolati, ilmiy kashfiyyotlari, texnologik yangiliklari, uslubiy ishlammalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu:

- xalqimiz ichidan yangi ixtirochilar, ijodkorlarning o'sib chiqishiga sizmat qilsa;
- ma'naviyat, ma'rifat, ilm-fan kabitarning o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi sharoitda boshqarish vazifasi qanchalik murakkab, tabaqalashgan bo'lgani sari, rabbarlik qilish oldida har qanday vazifa ichida ham vazifalararo yo'naliishda ham boshqarishni takomillashtira olish vazifasi turadi. Natijada boshqarish vazifasidan asta-sekin boshqarishni takomillashtirishning mustaqil vazifasi ajralib chiqadi. Bu vazifa - moyilikdir, ya'ni **kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvoqiqlashishidir**. Bunda xodimni boshqarishning maqsadi samarali va mahsulida sxemalari uchun ularning qobiliyatlarini kengaytirishdir.

Demak, **moyilik** - kishi faoliyatini ma'lum zo'r berish yoki kuch bilan majbur etishga, ma'lum harakat qilish natijasida va ma'lum darajada qat'iyatlilik, halollik bilan maqsadlarga erishishga qaratilgan kuchiadir. Zamonaviy boshqarish ma'riffati, o'z kasbini keng va chuquq egallagan, yuqori axloq me'yorfargiga amal qilishni talab etadi. Ma'rifat va axloq orqali kishiharning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va tashkilot faoliyatida qo'llash katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Boshqaruvi psixologiyasida zamonaviy rahbarga qo'yiladigan talablardan biri shuki, u hozingi zamon psixologiyasining o'zi uchun ma'qul barcha usublaridan foydalangan holda, eng avvalo o'zi to'g'risida, qolaversa, qo'l ostidagilarning shaxsi to'g'risida bilimlar va ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ma'lum ma'noda rahbar psixodiagnost bo'lishi, o'z faoliyatida psixodiagnostik metodlarni qo'llay olishi kerak. Chunki, o'zgalar psixologiyasini yaxshi bilish - ular ustidan hokimlikning usuli bo'gani kabi, o'z shaxsiy fazillatlari va kamchiliklarini bilih ham, turli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishning yo'lidir.

Eng avvalo rahbar o'zining boshqaruvchilik faoliyatiga qanchalik loyiq ekanligini aniqlab olishi kerak. Lavozimni egallashidan avval, u quyidagi sifatlarga ma'lum darajada ega bo'lishi kerak:

- rahbar tub ma'noda realist bo'lish kerak, ya'ni uning barcha harakatlari o'zi boshqarayotgan korxona yoki taskkilot manfaatlariga foyda keltirishi lozim;
- rahbarning umuman odamlar haqida qanday tasavvurda ekanligi, ular to'g'risida nima deb o'ylashi, bu boradagi bilimlari juda muhim. Bu savolga agar u obyektiv, to'g'ri javob topoligandagina, uning o'zi haqidagi fikrlarini taxminan bilish mumkin bo'ladi. Shu kabi savollarga aniq javoblarning bo'lishi daslabki paytda uning muvaffaqiyati va odamlar bilan ishlab ketishining real asosidi;
- o'zgalar faoliyatini va jamoa ishimi yaxlit tarzda boshqara olish, kerak bo'lsa hamma bajaryotgan ishni birgalikda hamma qatori bajara olishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun u qat'iy harakatlarga tayyor bo'lishi zarur.

Har qanday topshirilgan vazifani oxiriga yetkazish va bundan mag'lum bir qoniqish hissi bosil qilish uchun rabbar o'zida qobiliyat va kuch-quvvat zahirsiga ega bo'lishi shart. Buning uchun:

- o'z kuchi, salohiyati va qobiliyatlarini eng asosiy maqsadga qaratish va irodani aynan shunga sarf qilish;
- doimo tetik va sog'lom bo'lib, har doim ham ishga yaroqli ekanligini ko'rsata olish;
- boshqa xodimlar ham bajara olishi mumkin bo'lgan e'tiborsiz ishlarga qo'l urmay, ularning nazoratiga e'tiborni qarata olish;
- yom-atrofdagi boshqa tashkilot va korxonaladagi boshqaruvi usublari huqida ham ma'lumoga ega bo'lib, boshqaruvda ulardan ortida qolib ketmaslikka harakat qilish, korporatsiya usulidan unumli foydalanish.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar, albatta, rahbarning o'z ish faoliyatini samarali tashkil etish va dastlabki onlardanoq muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi.

Bundan tashqari, psixologiyadagi qator psixodiagnostik usublar, konkret metodikalar ham borki, rahbarning ish stolida ulardan eng qulay va ishonchilari turishi, inson faoliyatini to'g'ri tashkil etishga bevosita aloqador bo'lgan allomalar va taniqli arboollarining asarlaridan ham bo'lishi uning ishiga taqat ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bir qator taniqli psixolog-olimlarning mas'hur asarları va ularning insonlar bilan muloqotda bo'lish san'ati har bir mutaxassising o'z ishini tashkil etishida ko'makchi bo'lishi mumkin.

9.2. Boshqaruvi psixologiyasida motivlashtirish va ehtiyoj

Oldingi boblarda to'xtalib o'ganimizdek, **motivatsiya** - biror ish yoki harakatning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan motivlar, dalillar baholar, vajlar yoki sabablar majmui ma'nosida talqin etiladi. Bu tushuncha bevosita inson omili bilan chambarchas bog'liqdır. Shu nuqtai nazaridan: **motivlashtirish** - bu ruhiy omil bo'lib, shaxs faoliyining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehitimollaridir.

Boshqaruvi psixologiyasida - xodimlarni joni mehnat faoliyatiga rag'badlontruvchi kuchli vositalari. Boshqacha qilib ayganda, motivlashtirish - bu kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvoqiq yo'naltirishdir. U muuyyan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq. **Ehtiyoj esa sabablarida namoyon bo'ldi**. Inson tirk jon sifatida ovqat yeyish, uylash, diam olib o'z kuchini tiklash, o'zini issiq - sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojar moddiy, ya'ni klyym - kechak, oziq-ovqat, turar-joy va boshqalar shakliida ifoda etiladi. Insonning moddiy ehtiyojlar bilan birga ijtimoiy ehtiyojlar ham borki, butarga bilim olish, madaniy saviyani oshirish, malaka, mahoraga ega bo'lish va sog'lom hayot

kechirib, uzoq umr ko'rish kiradi. Aytigan ehtiyojlar moddiy shaklga ega bo'lmagan har xil xizmatlar ko'rsatish orqali qondiriladi. Umuman, *ehtiyoj* - *odamlarni harakatga intiluvchi, qo'zg'uchit motivdir.* Ehtiyoj qat'yan tabaqalashgan bo'ladi. Ya'ni, u kishilarning: odati, didi, ruhiyati, yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, millati, mehnati, yashash sharoitlari va hokazolarga ham bog'liq bo'ladi.

Masalan, maktab o'quvchisi bilan talabaining, yosh yigit bilan pensionering, dehqon bilan iqtisodchining ehtiyoji bir xil emas. Hatto kishilarning jismonyi tuzilishi ham, ehtiyojlarda faqlarni hosil qiladi. Aytaylik, gavdasi yirik, devqomat kishining ehtiyoji bilan jussasi kichik kishining ehtiyoji bir emas. Eng muhimi xilma-xil ehtiyojni qondirish uchun xilma-xil faoliyat va uni muvofiqlashtiruvchi boshqaruv talab qilinadi. Ko'rinib turibdiki motivatsiya jarayoni qandaydir (bilib yoki bilmay orzu qilinayotgan) ehtiyoja bo'lgan yetishmoychilikdan yoki qoniqishning yetarli, yohud umuman yo'qligidan boshlanadi. So ngra shu qoniqishga erishish uchun maqsad sari harakat qilinadi. Ehtiyojining qondirilish darajasi kishini kelajak sari intilishini belgilab beradi. Agar u muayyan narsadan qoniqish hosil qilsa, u holda keyingi motiv uni boshqa yuqoriroq ehtiyoja rag 'batlantiradi.

Jahon amaliyotida motivatsiya vositasida unumli mehnatga undovchi turli nazariyalari mavjud. Bular jumlasiga:

- 1) “x” va “y” nazariyasi;
- 2) kutish nazariyasi;
- 3) boisiy (giglemik) tozalanish nazariyasi;
- 4) adolatlilik (haqqoniylik) nazariyasi;
- 5) ehtiyojar ustunligi nazariyasi.

Ehtiyojar ustunligi nazariyasi negizida kishilar ehtiyojlar va qiziqishlari orqali ularning mehnatlarini motivlashtirish g'oyasi yotadi. 1,2 va 4 yondashuvlar rahbar bilan xodimlar o'tasida qarshi harakatga olib keladi. Natijada rahbar va jamoa, rahbar va ayrim xodimlar ehtiyojlar o'tasida nomuvofiqlikning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu sababli rahbar motivlashtirishni faqat ehtiyoj va qiziqishlar yordamida amalg'a oshirishi lozim.

Ehtiyojlar ustunligi nazariyasi ham rahbarlardan boshqarishni faqat ehtiyoj va qiziqishlar vositasida, ya'mi 3-yondashuv orqali amalg'a oshirishi talab qiladi. Chunki boshqa yondashuvlarga qarshi harakat bo'lib, xodimlar va jamoa bilan rahbariyat o'tasida ixtiyoflarga olib kelishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshqaruvda motivlashtirish modellari va strategiyalar haqidagi to'xtalib o'sak. Motivlashtirish nazariyasiga

asoslanib uning turli modellari ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanib kelinmoqda. Ularning asosiyatlari quyidagi jardir:

- oqilona yoki rasional model;
- kompleks motivlashtirish modeli;

Bu yerda kishilar uchun molijaviy dastak mukofot va jazo qo'llaniladi. Bu “shirin kulcha” va “qamch” taktikasidir. Ba'zi hollarda bunday yondashish to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo uning samarasi juda qisqa bo'ladi. Boshqa hollarda esa u kishilar o'tasidagi munosabaga putur ekazishi mumkin. Bu modelning muallifi amerikalik turshunos Emirson Mayo bo'lib, uning negizida quyidagi g'oya yotadi.

Bu - ichki omillar: shuhurat topish, ijroni yaxshitatash va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish ishdan qoniqishga olib keladi. Ishdan qoniqish esa mehnat unumdarligini oshiradi. Bunday yondashuv eng muhim tashqi omilni, ya'ni ish haqini inobatga olmaydi. Go yoki “mannun, ya'ni - ehtiyoji qondirilgan kishi bu unumli, samarali ishlaydigan kishi” emish. Bunday o'ylash albatta, noto`g'ri va soddalikdir. O'z-o'zini mukammallashtrish Maslou va Xouberg yondashuvlarga asoslangan bo'lib, uzoq muddati motivatsiyani ta'minovchi omillar sifatida nafaqt ichki omillar, shuningdek tashqi omillar ham munim deb qaratadi.

Motivlashtirish strategiyasi mavjud:

- 1) kim ko'p va yaxshi ishlasa, unga yaxshi haq to'lanadi;
- 2) kim undan ko'p ishlasa shunchalik ko'p haq to'lanadi;
- 3) kim sifatsiz ishlasa, u jazzolansadi.

Ish orqali motivlashtirish bu: xodimga uni qoniqtiradigan ishni bersangiz biss, ijro etish sifati yuqori bo'ladi. Meneger bilan doimiy aloqada bo'lish strategiyasi: bo'yusunuvchilar bilan birga maqsadni aniqlab olish, unga ijobjiy aks aloqaga imkon berish, hattoki u to'g'ri yoki noto`g'ri, yohud yengilgan hollarda hum. Bu motivlashtirish modeli rahbar bilan xodim o'tasidagi munosabatni tahsil qilish va unga ustuvorlik berishga asoslanadi. *Motivlashtirishning quyidagi usullari qo'llaniladi:*

- pulni rag 'batlantirish va mukofotlash sifatida ishlatish;
- jazzolash;
- raqobatni kuchaytirish;
- ish orqali motivlashtirish;
- yutuqni tan olish va taqdirlash;
- xodimlarni o'qitish va yuksaltirish;
- salbiy ta'sirchan cheklash va me'yorkash;

- guruh mehnatini mukofotlash va rag`battantirish;
- xodimlarni boshqarish ishlariiga jalg va hokazo.

Boshqaruv psixologisida qator motivashiyishi nazariyaları mayjud.

Oldingi boblarda ko`rsatib o`ganimizdek, amerikalik ruhshunos Abraham Maslou XX asrning 40-yillarda o`zining ehtiyojlarini ustunligi nazariyayisini yaratib, kishilar o`z motivilari jarayonida ehtiyoj va qiziqishning 5 turiga tayanadilar dedi. Uning ehtiyojlar ierarxiyasi mayjud bo`lib, birinchi o`rindagi ehtiyojlar bu - *bazis ehtiyojlar*, ya`ni yashashni ta`minlash uchun zarur bo`lgan ehtiyojlar. A. Maslouning fikricha, inson, eng avalo ana shu bazis ehtiyojlarini qondirish uchun ishaydi. Bazis ehtiyojlar, ya`ni oziq-oqqa, kiyim-kechakka, uy-joga, uyuga bo`igan ehtiyoj qondirilsa, boshqa darajadagi ehtiyojlar ham asta-sekin ahamiyat kasb etib boradi.

Alohiba shaxs va jamiyat nuqtai-nazaridan ehtiyojlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

Shaxs uchun: Asosiy ehtiyojlar: oziq-oqqa, kiyim-kechak va uy-joga, dam olish va sog`liqqa.

Ijtimoiy ehtiyojlar: ijodiy mehnatga, oila va muhabbatga, bilim va axborotga, toat-ibodatga, jasoraga, nasli davom ettirishga, tartib va barqarorlikka, bo`sh vaqt va dam olishga, o`zkini anglashga.

Rag`bat va talablar: moddyi, ijtimoiy, estetik.

Jamiyat uchun: Asosiy ehtiyojlar: mehnatga, xavfsizlikka, qo`shinchaga mahsulotga, boshqarishga.

Ijtimoiy ehtiyojlar: barqarorlikka, ishonchga, mustaqil taraqqiyotga.

Rag`bat va talablar: zamонавиъ ishlab chiqarishga, ma`naviy-ma`rifiy taraqqiyotga, rahm-shafqatga.

Masalan, xavfsizlikka, ya`ni tinchlik tartib, himoyaga bo`lgan ehtiyoj ham britamchi bosqichdagı ehtiyojning yangi darajasidagi zaruviyatdir. Biror ijtimoiy guruhdan bo`lmish, boshqa kishilar bilan aloqaga kirishish ehtiyoji ierarxiyaning uchinchi bo`g`iniga kiradi birlamchi ehtiyojlar qondirilgach, boshqa zaruviattar kishilarni yuqori darajadagi ehtiyojlarga qarab harakat qilishga majbur qiladi. Xo`sh, bu ehtiyojlar qondirish uchun rahbar qanday usul va yondashuvlarni qo`llashi kerak.

Ruhshunos va tarixchi olim Fredrix Gertsbergening *ikkifaktorlik motivatsiya nazariyasi* asosida qoniqish keltruvchi mehnat - ruhiy sog`lom bo`lishga ham hamkorlik ko`rsatadi deb ta`kidaydi. Buni quyidagi omillar guruhi bilan izoxlash mumkin:

- *birinchi guruh omillar* - "gigiyenik omillar" deb ataladi. Agar ish joyi illas bo`lsa, qorong`u, ko`rinsiz bo`lsa, bu mehnatga intilishni susaytiradi.

Aksincha, ish joyi toza, ergonometrik nuqtai nazardan benueson bo`lsa, mehnaga oniq yo`naltirilgan motivilar paydo bo`ladi.

• ikkinchi guruh omillar - *mehnatga undovchi omillar*. Ya`ni, mas`uliyat, muvaffaqiyatga erishish, kelajakda karyera uchun imkoniyat yaratilishi, qilgan xizmatlarini tan olinishi. Bu erda pul masalasi ham muhimdir. Ammo pulga intilish insomi butunlay egallab olsa, u ko`payishga moyillik tug`dirib, uni boshqalarga nisbatan buyukligini isbotlashga olib keladi. Natijada kishlardan va jamoadan ajrab qoladi. Gertsberg nazariyasi Maslou nazariyasiga zid emas, balki uni to`ldiradi.

Psiyologiyada *kutish nazariyasi* amerikalik ruhshunos V.Vrum tomonidan 1964 yilda ishlab chiqilgan. Uning mohiyati - *motivatsiya nafaqat ehtiyojni qondirishiga, shuningdek maqsadga erishish uchun tanlangan xohishga ham bog`lq*. Kutish nazariyasiда quyidagi omil assosiy o`rin tutadi. Kutigelan narsa qanchalik qoniqishga olib kelsa, shunchalik motivatsiya kuchli bo`ladi. Bu degan so`z - ehtiyoj tushunchasidan tashqari rahbar murakkab, qiyin ishga, astoydil ichlungan yaxshi ham to`lanadigan va rag`battantiridagan vaziyatlarni yaratishi kerak. Kutish nazariyayisining mohiyati ham shuni taqozo etadi.

Adolatlik nazariyasi (J.Adams) binoan kishilar o`zlarini erishgan rag`bat darajasini shu tizimda band bo`lgan boshqa kishilar erishgan rag`bat darajasi bilan qiyosiy taqoslaydi: J.Adams fikricha, harajat tarkibida nafaqat xodimning mazkur ishlari bajarishga sarflangan mehnati shu bilan birga uning shu korxonada ishlagan ishl stuji, malaka darajasi, yoshi, ijtimoiy mavqeい kabilari ham inobatga olingan. Boshqaruv psixologiyasida menejerlar xodimlarning tashabbusini doimo rag`bat antirib turish maqsadida quyidagi maslahatlarga rioya qilishlari muhim:

- yangiliklar qo`llab-quvvattanib, rag`battantirib borilgandagina vaziyat yaratish uchun mas`uliyatni o`z ustungizga oling;
- topqir bo`ling, mehnatni doim tashkil etishning yangi shakllarini izlash va xodimlar o`rtasida o`zaro ijodiy ishlarni avj oldirishiga harakat qiling;
- taskilikli ishlar madaniyatiga, tashabbusni bo`g`ib, cheklab qo`yadigan oldindagi rasm-qoidalanga o`z diqqatingizni jalb qiling;
- qo`l ostingizdagagi kishilar o`z fikrlari va bilgan narsalari to`g`risida bir-biri bilan, siz bilan o`rtoqlashishni istaydigan bo`lislari uchun ochiq ko`ngillik va urkinlik vaziyatini yaratting;
- boshqalarning o`z umrini yashab bo`lgan eski uslubidan voz keching.

Muydu-chuyda narsalarga ahamiyat bermang;

- befarglik va hatto qarshilikka ham duch kelib qolishingiz mumkin, bunga tayyor turing. Ishning foydasi uchun ijodiy tashabbusi kerakligini izchilik bilan tushuntirib berish yo`li bilan bularni asta-sekin yengib o'tish mumkin;

- yangi vazifalarni aniq-ravshan, tushunari va yaqqol qilib ta'riflab bering. Ularning qanday ado etilayotganligini doimo nazorat qilib boring. Ijodiy ravishda yondashishni talab qiladigan vazifalarni alohida ko`rsatib o'ting. Qimmatli resurslarni, odamlarning vaqt va kuch-quvvattarini sarhaydigan, lekin ish faoliyatizingning rivojlanishiga yordam bermaydigan eski mahsulotlar, xizmatlar, chora-tadbirlardan voz keching;

- o`z xodimlarningizing shaxsiy xususiyatlarini bilib oling va hisobga oladigan bo`ling. Har bir kishining qobiliyyatlarini alohida baholang;

- maqsad va vazifalarni shu tarixa shakkantiringki, toki ular mazkur ishlarni bajarishda qatnashadigan xodimlarning shaxsiy manfaatlariga imkonni boricha ko`proq mos keladigan bo`isin;

- xodimning o`z qadrini bilishiga va oldiga qo'yilgan vazifani uddalashga bo`lgan istagini qo'llab-quvvattab boring;

- xodimlarning o`z shaxsiy fazillatlari va bilimlарини namoyon qiliштари учун hamma imkoniyatларни yaratib bering. Kishi nechog`li ko`proq bilimdon bo`lsa, mehnatga rag`bati, o`ziga ishonch bilan qarab mustaqil ishay olsa, mehnatining qadri shuncha yugori bo`ladi.

Shu bilan bir qatorda, boshqaruvning tabiatan har xil odatlarga bir xilda mos tushadigan usuli yo`q. Yaxshi boshliq kerak paytda boshqarishning yo liberal yoki demokratik usuli yoki avtoritar usulini tanlay oladigan yaxshigina psixologdir. Muammolarni ijodiy yo`l bilan hal etish uchun mehnat resurslari va moddiy resurslardan foydalananining mumkin qadar ko`proq usullarini qo'llash, mehnat intizomiga rioya etilishini nazorat qilib borish, turli xodimlar o`zlarining ijodiy qobiliyathariga qanday baho berishini va shu qobiliyyatlarini ularning har biri qay tarida namoyon qilmochchi ekanliklarini o`ylab ko`riish, vazifani aniq-ravshan qilib o`rtaga qo'yish va kutiladigan natijani taxminan tasvirlab berish mehnat unumdarligini samarali bo`lishiga o`z tap'sirini ko`rsatadi.

9.3. Boshqaruv psixologiyasida rahbarlik

va liderlik jihatlari

Boshqaruvda lider asosan, guruhdagi shaxslaro munosabatlarni boshqaradi. U hech qachon yolg`iz bo`lmaydi, guruh a'zolarini u yoki bu harakkattarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarini hammadan ham yaxshi bildi. kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarini hammadan ham yaxshi bildi.

Ular ichida eng tashabbuskoridir. Bundan tashhqari, liderlikning usulubari va siflatlari ham alohida o'rganilgan. Guruhda rahbarlik haqida fikr ketganda, avvalo, guruh haqida qisqacha psixologik izoh berish lozim.

Guruh - bu umumiy belgilär, umumiy faoliyat, mulqot hamda umumiy

maqsad asosida birlashtgan kishilar uyushmasidir. Guruhnini alohida shaxslar tashkili etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkili etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o`ziga xos qonuniyatlariga bo`ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarini bilish esa turli tipi guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalashning anosity mezonidir. Shu guruhdagji rasmiy munosabatlarning boshqaruvchisi fullbaurdir. Guruhda rahbarlik, maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida, saylovlar oqibatida sodir bo`ladi. Bundan tashhqari, ruhibar liderda yo`q bo`lgan rag`battantrish tizimiga ega bo`lib, shu asosda o`z xodimlariiga ta'sir o`tkazishi mumkin. Rahbar guruhda u yoki bu qarorlar va ko`satmalarni o`z ixtiyoricha bajara olmaydi, u ko`plab rasmiy ko`rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar doirasida chiqib ketishi qiyin bo`ladi.

Guruhdagji o`zaro munosabatlarni pastga yoki aksinchcha bo`lab, buruh a'zolarining konkret mavqeilar, boshliq bilan buysumuvchilar o`rtasidagi munosabatlarni o`z ichiga oladi. Bu borada **«lider» va «rahbar» tushunchulari** o`rtasidagi farqlar haqida gapirish mumkin. B.D.Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

- lider – guruhdagji shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar – shu ilurohdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

- liderlik kichik guruhilardagina xos bo`lgan hodisa bo`lsa, rahbarlikning huq-huquqlari katta guruhilar doirasida ham sodir bo`lishi, amalga oshirilishi mumkin;

- agar liderlik stixiyali, betarib jarayon bo`lsa, rahbarlik maqsadga qutubegan, jamiyatda ishlab chiqarilgan normalar, tartiblar asosida saylov oqibatida sodir bo`ladigan hodisadir;

- liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo`lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kavifiyatlari, faoliyat yo`nalishiga qarab uzoqroq muddada yoki qisqa muddada ro`y beradi;

- rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo`q bo`lgan jazolash va rag`battantrish tizmiga ega bo`lib, shu asosda o`z xodimlariiga ta'sirini o`tkazishi mumkin. Bu psixologik ta'sir shundayki, biron-bir manfaatni ko`zlab qilingan ishda erishilgan yutuqlar uchun boshliq xodimlarni ko`tarinki ruh bilan ro`y battanturib mukofatlab tursa, o'sha erda xodimlar o`zlarini bilmagan holda himollaqa nisbatan ijobjy munosabatda bo`lishadi;

- lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarish mumkin. Rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mayjudki, rahbar - bular dorasidan chiqib ketishi qiyin. Ko'p hollarda rahbar lider ustubini qo'llasa, bu jamiyat tamonidan "o'zboshimchaliq", "qonunga bo'ysummaslik" deb qoralanadi;
- liderning faoliyatini faqat kichik guruuhlar dorasida amalga oshiriladi, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakil bo'lgani uchun vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Boshqaruv psixologiyasida tashkilotchilik qobiliyatni mutlim o'rinni tutadi:

- 1) jamoani uyushtirta olish va jamoani jipslashtirish;
- 2) o'zini shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O'z ishini tashkil qila bilish deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olish nazarda tutiladi. Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyat - rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan bindir. Boshqarish bevosita jamoaga qaratilgan bo'lib, uning psixologik natijasi o'zlikka nisbatan hummat, o'zlikni anglash, qadrlash kabiliyati vujudga keltiradi.

Boshqaruv faoliyatida liderlik, lider-rahbar ijtimoiy psixologik fenomeniga katta e'tibor beriladi. Liderlik fenomenini tahil qilishdan oldin avtoritet tushunchasini ko'rib chiqish lozim.

Avtoritet - (lotincha "hokimiyat, ta'sir ko'rsatish") ijtimoiy psixologiyada odam, ijtimoiy guruh, jamoat taskilotining boshqalarga ta'siri, boshqa odamlar nazaridagi mavqeini anglatadi. Shaxs, guruh yoki tashkilotning avtoriteti qonuniy, rasmiy yoki norasmiy ularning munosabatlar tizimidagi holatiga bog'liq bo'lishi mungkin. ***Birinchchi holatda***, avtoritet subyektning ijtimoiy roliga bog'liq bo'ladi, ***ikkinchchi holatda***, unga atrofdagi odamlarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aynan ana shu rol va munosabatlardan rasmiy va norasmiy liderlik tushunchasi kelib chiqadi. Shundan kelib chiqqan holda, ***lider*** - ahamiyatli vaziyatlarda qolgan ishtiroychilarning xulqiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan guruh a'zosidir.

Liderlik - kichik guruhdagi dinamik jarayonlarga taalluqli bo'lib, guruhdagi bo'y sunish va hukmronlik munosabatlarni aks ettiruvchi tushunchadir. Liderlik ayni payda obyektiv (konkret vaziyatda guruhning maqsad va vazifalari), subyektiv (guruh a'zolarining individual tipologik xususiyatlari, qiziqishlari, extiyojlari) shuningdek liderning guruh faoliyatining tashabbuskorii va tashkilotchisi sifatida harakatlari omillariga bog'liqidir.

Liderlik roli nazariyasiga ko'ra (amerikalik tadqiqotchi R.Beylz) ***liderlik - bu atonida rolni qabul qilishdir***. Ikkita bir biridan sezilarli farq qiladigan liderlik rolli mavjud.

Birinchisi - professional roli, bajarilayotgan ish yuzasidan lider tomonidan bildirilayotgan va paydo bo'lgan muammomni xal qilishga mo'ljallangan taklif va filklar.

Ikkinchisi - "ijtimoiy-emotsional mutaxassis" roli, shaxslararo munosabatlardagi muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan liderlik.

Guruh faoliyatining samaradorligi uchun har ikkala liderlik shakli mavjud bo'lishi kerak.

Xususiyatlar ***nazariyasiga*** ko'ra liderlikning asosiy determinantni novob liderlik sifatlariga ega bo'lishdir. Bu nazariyaga ko'ra ayrim odamlar tug'ma nomi - ***harizmatik nazariya*** deb ataladi.

Interaktiv nazariyaga binan har qanday guruhda liderlikni kim zimmasiga olishini bashorat qilish mumkin. Buning uchun guruh ag'zolari harakteristikasi, vujudga kelgan vaziyat, bajarilayotgan vazifa, shuningdek liderlikka nonzodning individual psixologik xususiyatlarini o'rganib, hisobga olish kerak.

Vaziyat nazariyasi tadqiqotchilari (amerikalik tadqiqotchi F.Fidler) fikriga ko'rn "vazifaga mo'ljal olgan" yoki "odamlarga mo'ljal olgan" lider faoliyatining samaradorligi guruhdagi sharoitiga bog'liqidir. Liderlik funksiyasini amalga oshirish uchun o'ta qulay va o'ta noqulay sharoitlarda "vazifaga mo'ljal olgan" lider katta nitijalarga erishadi. O'rtacha qulay vaziyatlarda esa "odamlarga mo'ljal olgan" lider ustunlik qiladi. Liderlik - guruh funksiyasidir, uni guruh maqsadlari va vazifalarini hisobga olgan holda o'rganish kerak. Sintetik model liderlik jarayonining uchta asosiy qismiga eg'tiborni qaratadi: lider, ergashuvchilar va vaziyat.

9.4. Boshqaruvda rahbarlik usulbutari

Bizga shu ma'lumki, deyarli barcha rahbarlarga doimo vaqt yetishmaydi, ularning nazarida agar vaqt etganida, ular "tog'ni talqon qilib tashlagan bo'lardilar". Darhaqiqat, vaqt eng qimmatli narsa bo'lgani uchun undan samarali toydalinish - yutuqlarning garovidir. Olimlarning aniqlashlaricha, rahbar - o'z ish vaqtining taxminan 60% ni doimo qaytariladigan bir maromadagi ishlarga surflar, bu esa bir hafta davomida taxminan 26-27 soatga to'g'ri kelar ekan.


Vaqtdan unumli toydalananish, uni tejay olish, ichki tartib-intizom, mehnat faoliyatida ijobjiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Chunki kun tarbijadagi har qanday o'zgarish korxona yoki tashkilot istigiga taalluqli, uning uchun diplomatik tarzda

boshqalarni ham boshqaruvdagi omilkorona usullarning oshkor qilinishi va odamlarning ijtimoiy-psixologik munosabatlarni yaxshilashiga xizmat qiladi.

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qiytarilmasidir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

Liderlik uslubi - lider yoki rahbar tomonidan unga bo'y sunuvchi, yoki unga qaram bo'lgan odamlarga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan usul va metodlar to'plamidan iboratdir. Liderlik uslubi Kurt Levin tomonidan taklif qilingan bo'lib, rahbarlikning uchta uslubi ajratilgan:

54-shakl



autoritar

demokratik

liberal

Autoritar rahbar - barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida aniq, ravshan, keskin ohangda hodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham hodimlarga nisbatan do'q-po' pisa, keskin ta'qqlash kabi qat'iy obhanglardan foydalaniladi. Uning asosiy maqsadlaridan biri - nima bilan bo'lsada, o'z hukmini o'tkazish.

Uning nutqi aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo'ladi, biror ish yuzasidan hodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish so'f subyekтив bo'lib, bu narsa boshliqlarning kayfiyatiga va o'sha shaxs larga nisbatan shaxsiy munosabatiга bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istiklari, ularning fikrlari va maslahati juda kam hollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po pisa, kamitsish yoki ma havvy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtilmaydi. Bunday rahbar o'zining ish uslublarini, kelajak rejatlari, biror aniq ishni, qanday amalga oshirmoqchiligini odada, sir tutadi, uning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Autoritar rabbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyati, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinnari haqida tasavvur borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakterlarini maksimal tarzda dasurlashishib qo'ygan. Unda har qanday cheklanishlar, ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli usullari mayjud. Yana bunday jamoalardan hokimiyat - markazlashtirilgan jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi - shuning uchun ham bu erda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" qabiladagi iboralar tez-tez ishlatalib turiladi.

Demokratik rahbar - aksincha, bo'y sunuvchilarga mustaqillik, erk berish turafidori. Ishni ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarni hisoga olgan holda tuqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi.

Buyruq yoki to'shiriq, odatda taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo kishini maqtash, uni lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra, ishiga baho berish doimo Jamoa a'zolarining fikri bilan ketishilgan holda amalga oshiriladi. Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lg'a qo'yilgani, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'proq boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari -norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'lg'a yigan xato-kamchiliklarini jamoatchiliik oldida bo'yninga oladi va olishdan qo'rilmaydi, chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki xodimlar bitan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi.

Liberal rahbar - bu rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mununun yoki mammun emasligini bilsish qiyin. Unda ta'qqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'miga ko'pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilangina cheklanadi, holos. Jamoada hamkorlik yo'q. Boshliq jamoaning muammolarini ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "ko'indota" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi. Uning o'miga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan to'shiriqlar bajaruvchilarga etkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaxshilash, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulotlar, xomashyo kobilarni topib kelish, majislarda qatnashish va xokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuonala bo'lib, odob-axloq normalarini buzmashlikka harkat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydilar. Olimlarning fikricha, bunday rahbar ishi olib borgan jamoada barcha ko'rsatkichlar doimo orqada bo'ladi. Liberal rahbar bir ishda ko'p faoliyat ko'rsatmay, boshqa yerdan ish qidirishiga harakat qiladi. Ushbu usullar har biri o'z natijasiga ega bo'lib, jamoada turli xil ijtimoiy-psixologik kayfiyatni vujudga keltirishi mumkin.

Tadqiqotlar natijasida shuni ko'rsatadi, aslida hayotda sof demokratik yoki sof autoritar rahbarni uchratish qiyin. Lekin uchragan payda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasliklari ma'lum bo'idi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, vaziyat konkret jamoa unda qabul qilingan xatti-harakat normalari, shaxstararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish takkisi va ustubini belgilaydi degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik

ustublarini psikologik mazmun va mohiyatini, bilişning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobjiy tonomi bor. Mohir rahbar o'zini o'zi tarbiyalar ekan, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga mos xususiyatlarni tarbiyalashi maqsadga muvoifiqdır.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrililik, to'qirlilik, tashabbuskorlik sifatlari. Chunki ayrim hollarda xato qilsa ham rahbar original fikrit ayrib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir ko'rsatilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur. Har qanday rahbar uchun kerak bo'lgan xislardan yana biri tom ma'noda ziyo'i" - bo'lishi yoki boshqacha qilib ayiganda, madaniyatl bo'lisdir. Rahbar o'zidagi madaniyatni, avvalo, muomala, odamlar bilan bo'ladigan muloqotlarda namoyish qilmog'i kerak. Muomala madaniyati - bu o'rinni, aniq, qisqa, samimiy gapirish madaniyati va ikkinchi tomonidan, subbatdoshni tinglash qobiliyatidir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashirish qobiliyati rahbar uchun muthim bo'lgan tashbirlardan biridir. Chunki rejalashirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqarishni tashqi faoliyatini maqsadga muvoifiq tarzda boshqara olishni ta'minovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rahbar o'z ishini puxta rejalashirish qobiliyatiga ega bo'lgan realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvoifiqligini tanlab oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni kam sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'nga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak.

Yuqorida babo berilgan boshqarish usulublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqi, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikki ibora, ko'pincha sinonimday ishlataladi. Aslida, eng yaxshii rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamsalashirigan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy-psixologik ma'nodagi liderning turлari har xil sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatarga ko'ra, tabaqalanadi.

9.5. Rahbar qobiliyati komponentlari

Rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi, rahbar vaziyatiga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi deb ayтиб bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatlari ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. Psixolog A.V.Petrovskiy ana shunday ijobjiy sifatlarning bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashiradigan, bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat qobiliyatları borki, o'shalar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt - aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshii rahbar uchun o'tadan yuqori bo'lmog'i

muvoifiqdır. Chunki geniy darajadagi intellektiga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash odamlar uchun qator noqulayliklari keltirib chiqarishi mumkin, bunday aql-zakovat qolqunlarning ijobjiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatadi. Rahbarding o'tadan yuqori intelektini qo'llab ketadigan yana boshqa muhim sifatlari borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsing mavqeи. Boshqarish - bevosita amaly javoyondir. Rahbarlik va boshqarish ikki tarzdagи ijtimoiy hodisalardir. **Rahbarlik - bu**

Rahbarlik mavqe sifatida shaxsda egalik xususiyatini shakllantiradi. Bunda egalik o'z xulqi, xatti-harakatlari va muomala munosabatlariga nisbatan egalik hissini vujudga keltiradi. Boshqarish esa bevosita jamoaga qaratilgan bo'lib, uning psixologik natijasi o'zlikka nisbatan hurmat, o'zligini qadrlash, anglash kabilarini vujudga keltiradi. Rahbar doim o'z xodimlari bilan muloqotda bo'ladi. Bu esa uni muloqot qilish ko'nikkalarini shakllangan bo'lishini talab qiladi. Muloqot asosida ishni turli xil tarzda tashkillashtirishi mumkin. Xuddi mana shu muloqot shakliga ko'ra jamoada ijtimoiy fikr vujudga keladi.

Rahbar o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol topitish mustaqil bilim olish ma'naviy dunyosini uzluksz ravishda takomillashtirish ustida harakat qilsa, demakki uning istiqboli porloq. Lekin uning faoliyatini nazorat qilmaslik, baholamaslik, rag'baltantirmsaslik kabi omillar o'z ustida ishlasini pasaytiradi havozimiga nisbatan sovuqqonlik namoyon bo'ladi. Shu sohadada tizimda faoliyat ko'rsatayotgan hankasblarning maslahatları ishga munosabatlari uni sustkashtantridi, asta-sekin faoliylik yo'qola boradi. Ishlab chiqarishda har xil xususiyatlari muammolar timmiz ravishda namoyon bo'lub turadi. Notanish yangi nostonart yondashishini taqozo etuvchi, yangicha echimini talab qiluvchi ijodiylikka asoslanuvchi vositalar bilan qurollanish rahbarning bosh vazifasi hisoblanadi.

Rahbarning professional muhim sifatlari masalasi oxirgi yillarda mutaxassislar va amaliyotchilarni ko'proq qiziqitmoqda. Bir guruh olimlar amerikalik hamda yaponiyalik rahbarlar faoliyatini o'rganib, ularga xos bo'lgan eng muhim sifatlarining bloklarini ajratib, rahbarlarning sifatlarini quyidagicha tabaqalaganlar:

- dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;
- uzroqni ko'ra bilish va egiluvchanlik;
- tashabbuskorlik va dadililik, tavakkalchilikka moyillik;
- muntazam o'z ustida ishslash va uzluksiz o'qish.

Shaxsiy sifatlar:

- maqsad va yo'nalishlarni aniq belgilash;
- o'zgalar fikrini tinglash qobiliyat;
- xolislik, samimiyat va bag'rikenglik;
- adolatlari qatorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qo'yish, ular imkoniyattidan to'la foydalanish;
- shaxsiy yoqimtoylil;
- jamoani tashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyat.

Lekin barcha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ayon bo'idiki, rahbarlar ko'proq xodimlarning shaxsiy-individual tashabbuslar ko'rsatishlariga imkon beruvchi muhitning bo'lishi tarafdorlari bo'ladilar hamda xodimlarning hamkorlikdagi faoliyatlarini samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratishga e'tibor beradilar.

Shuning uchun ham rahbartlik sifatlari haqida gap ketganda, shaxsning bir qator bilimdonliklari nazarda tutiladi.

I. Professional bilimdonlik - o'zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo'nga qo'yish uchun o'sha faoliyat borasida to'la ma'lumotlar, bilim va malakalarga ega bo'lishi keldir.

2. Usuliy bilimdonlik - bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko'nikmalarini turli loyihalar xususidagi ma'lumotlar, to'shiriqlami tez, to'g'ri va tushunari tarzda xodimlarga yetkaza olish qobiliyat.

3. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik - odamlar bilan ishlash, ular bilan til topishish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashta safarbar qilish, o'zidagi liderlik siatlarini to'la namoyon eta bilish qobiliyat. Bu tushuncha ko'pincha "**komunikativ bilimdonlik**" tushunchasi bilan sinomim sifatida ham ishlataladi.

Har qanday faoliyatda muvaffaqiyatni ta'minlovchi sifatlar ehtirot etiladi. Ularning orasida eng ko'pmarta takrorlanadiganlar:

a) intellect - odamning murakkab va mavhum muammolarni yecha olish qobiliyati, u o'ta yuqori bo'imasligi, aksincha, o'rtachadan yuqori bo'lishi kerak;

b) tashabbuskorlik - yangicha ishlashtiruvchi, namuna "Ota", jamoaning ramzi – referent, qobiliyati va shunga mos motivilar kiradi.

Rahbarlikka loyiq mezonlar asosida liderlikning vazifalari quyidagilardir:

Lider bu – ma'nur, rejalashitiruvchi, siyosatchi, baholovchi ekspert, jamoaning vakolati vakili, rag'baltantrish va jazolash tashabbuskor, hukm chiqaruvchi va yarashtiruvchi, namuna "Ota", jamoaning ramzi – referent,


individual mashhullikni cheklovchi, dunyoqarashlar shakllantiruvchi, "halogardon".

Liderlik va superliderlik ijtimoiy-psixologik hodisalardan muhim hisoblanib, bu muammoni aymen bizning sharoitimidagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik hislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ko'rib chiqish mumkin. Zamona viy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo rahbarni lider fenomeni doirasida – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir. **Eng yaxshi lider – bu "superliderdir".** Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarning aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlar uchun liderlarga aylanira oladi. Bundagi usosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo o'zi uchun lider bo'la olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vadt-soat yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepeasida turib boshqarib turadigan insonga muhitoy bo'imagan mexanizmga aylanadi. **Bu – superliderlidir.**

Oddy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi:

- o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini-o'zi kuzatish, o'zini-o'zi rag'baltantrish, hayoliy repitisiyalar va kognitiiv tahilliar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'mak bo'luvchi sifatlar borilagini anglash;
- yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonchta olish;
- xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;
- mustaqil qobiliyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'baltantrish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;
- o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Rahbar uchun zatur bo'lgan jihatlar (4 ta "T"):



Demak, samarali boshqaruva asilda ijtimoiy ta'sirni amalgaga oshirishning eng namoyishkorona ko'rninishdir. Shu ma'noda, liderlik - avval shaxsning o'ziga, so`ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rnadigan fazilatlar majnuidir.

Asosiy tayanch tushunchalar.
Rahbar, qobiliyat, motiv/asturish, ehtiyoj, rag'bat, talab, barqarorlik, gigienik omillar, guruh, lider, superlider, avtoritet, avtoritar, demokratik, liberal, rahbarlik, boshqaruv jarayoni.

BOSHQARUV VA TASHKILOT TUZILMASI

Tashkilot boshqarish bo'yicha tadqiqotining muhim qismi boshqaruva va insoniyy munosabatlarga qaratilgan. Douglas MacGregor (1960) ilmiy menejment (iqitisoiy samaradorlikni, ayniqsa mehnat unumdarligini oshirishidan iborat asosiy maqsad bilan ish jarayonlarini tahlil qiluvchi va sintez qiluvchi boshqaruva nazarriyasi) va inson munosabatlarini yetakchilik xulq-atvori tushunchasiga birlashtirdi. Uning nazarriyasi X nazarriyasi va Y nazarriyasi deb nomlangan ikki xil uslubni ifodalaydi. Menejment X nazarriyasi yondashuvida menejerlar ko'pchilik odamlar mehnatni yoqtirmaydilar va tug'ma ravishda o'zini o'zi boshqarmaydilar, deb taxmin qilishadi.

X nazarriyasi menejerlar, xodimlarni boshqarishni va qaysi vazifalarni qachon bajarishni afzal ko'rildigan odamlar sifatida qabul qilishadi. Ularning xodimlari tashkilot maqsadlariga erishish uchun yetarlichka harakat qilishlariga ishonch hosil qilishlari uchun diqqat bilan kuzatilishi kerak. Nazariya X ish joylarida ishchilar ish joyiga kelish va ketishda ko'pincha soatni urishadi: kechikish jazolananadi.

Xodinlar emas, baki rahbarlar xodimning kechikishi kerakligini aniqlaydi va hatto bu qaror buyruqlar zanjirida yuqoriroq bo'lgan kishidan qo'shimcha

soatlami tasdiqlashni talab qiladi. X nazarriyasi rahbarlari xodimlarning samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflarini e'tiborsiz qoldiradilar va xodimlarni turibsziz gapingani uchun tanbeh berishadi. Bu rahbarlar samaradorlikdagi nosozliklarni amaldagi tizimlar yoki siyosatarga emas, balki alohida xodimlarga yuklaydi. Boshqaruva maqsadlariga vaysasa va mukofotlar emas, balki jazo va tuhidilar tizimi orqali erishiladi. Menejerlar xodimlarning motivatsiyasidan shubhalanadilar va har doim o'zlarining ishdagi xatti-harakatlari uchun xudbin motivatsiyalardan shubhalanadilar (masalan, maosh olish ularning ishlash uchun yagona motivatsiyasi).

Boshqa tomondan, Y nazarriyasi yondashuvida menejerlar ko'pchilik odamlar o'z ishlaridan ichki qoniqish va qoniqishni izlaydilar, deb taxmin qilishadi. Xodimlar rahbarlik ostida yaxshiroq ishlaydi, bu ularga shaxsiy va ish maqsadlarini belgilashda ishtirok etish va ular haqida ma'lumot berish imkonini beradi. Y nazarriyasi ostida ishtirok etadir, ular maqsad qo'yilgach, uni bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etadir; ular maqsad qo'yilgach, uni qanday amalgaga oshirishni o'zlar hal qiladigan jamoaalarga tegishli bo'lishi mumkin. Bunday ish joyida xodimlar samaradorlik va xavfisizlik masalalari bo'yicha o'z filklarini bildirishlari mumkin. Y-nazarriyaning amalidagi misollariidan biri Toyota ishlab chiqarish liniyalarining siyosati bo'lib, u har qanday xodimga nuqson yoki boshqa muammo paydo bo'lganda butun chiziqli to'xtatishga imkon beradi, bu nuqsonni tuzatish va uning sababini bartaraf etish (Toyota Motor Manufacturing, 2013). Y nazarriyasi ish joyi, shuningdek, ish jarayoni yoki boshqaruva tizimidagi har qanday o'zgarishlar bo'yicha xodimlarga mazmuni maslahat beradi.

Bundan tashqari, tashkilot xodimlarini o'z g'oyalarni qo'shishga undaydi. Douglas MacGregor (1960) X nazarriyasini Qo'shma Shtatlarda qo'llaniladigan boshqaruvning an'anaviy usuli sifatida tavsifladi. Uning takidashicha, Y nazarriyasi yondashuvni tashkilot samaradorligini va odamlarning farovonligini yaxshilash uchun zarurdir.

Boshqa bir boshqaruva uslubini Donald Kifton tariflab berdi, u o'z tuedqiqotini tashkilot shaxsning kuchli tomonlardan qanday qilib to'g'ri toydalaniishi munkinligiga qaratgan, bu yondashuvni u kuchli tomonlarga asoslangan boshqaruva deb atagan.

U va uning hamkasblari 8000 ta menejerdan intervyyu olib, insonnинг zaif tomonlariga emas, kuchli tomonlariga e'tibor qaratish muhim degan xulosaga kelishdi. Kuch - bu shaxsning o'ziga xos doimiy iste'dodi bo'lib, unga ushu iste'dod bilan bog'liq vazifalarni izhil, mukammal darajada bajarishga imkon beradi.

Kliftton ta'kidlashicha bizning kuchli tomonlarimiz o'sish uchun eng katta imkoniyatlarni beradi (Bukingem va Klifton, 2001). Kuchning namunasi - ommaviy nutq yoki muvaffaqiyatli tadbirni rejalashtirish qobiliyati. Kuchli tomonlarga asoslangan yondashuv juda mashhur, ammo uning taskilot faoliyatiga ta'siri yaxshi o'rganilmagan. Biroq, Kaiser & Overfield (2011) menejerlar ko'pincha o'zlarining zaif tomonlarini yaxshilashni e'tiborsiz qoldirishlarini va kuchli tomonlarini haddan tashqari ishatishlarini, ikkalasi ham ishashga xalqat berishini aniqladilar.

Yetakchilik boshqaruvning muhim elementidir. Etakchilik usulublari 10 tadqiqotida katta qiziqish uyg'oldi va tadqiqotchilar yetakchilikning ko'plab nazariyalarini taklif qilishi. Bass (1985) tranzaksion yetakchilik va transformatsion yetakchilik usulublari tushunchalarini ommalashtirdi va ishlab chiqdi. Tranzaksiyaviy yetakchilikda asosiy e'tibor nazorat va tashkiliy maqsadlarga qaratiladi, ularga mukofot va jazolar tizimi (ya'ni, bitimlar) orqali erishiladi. Tranzaksiya yetakchilari status-kvoni saqlab qolishadi:

Ular menejerlar. Bu transformatsion liderdan farqli o'taroq. Transformatsion yetakchilikka ega bo'lgan odamlar turli darajada to'rtta xususiyatga ega: ular xarizmatik (juda yoqadigan namunalar), ilhomlantiruvchi (maqsadga erishishda optimistik), intellektual ragbatlantiruvchi (tanqidiy fikrashni rag'batlantirish va muammoni hal qilish) va e'tiborli (Bass, Avolio, & Atwater, 1996).

Ayollar korporatsiyalarda yetakchilik rollarini o'z zimmalariga olishlari sababli, erkaklar va ayollar o'rtaсидagi yetakchilik usulublarida farq bormi degan savollar tug'ildi (Eagly, Johannesen-Schmidt va van Engen, 2003). Eagly & Johnson (1990) gender va yetakchilik usulubini o'reganish uchun meta-tahlil o'kazdilar.

Ular, bir oz, ammo sezilarli darajada, ayollarning shaxslararo yetakchilik usulubini qo'llashmini (ya'ni, u xodimlarning ma'naviyati va farovonligiga e'tibor qaratadi) va erkaklar vazifaga yo'naltirilgan usulubni qo'llashmini (ya'ni, u vazifalarni bajarishga e'tibor qaratadi). Biroq, farqlar faqat tashkiliy tadqiqotlarni ko'rib chiqqanda va laboratoriya tajribalari yoki haqiqiy taskilot rahbarlari ishtiroy etmagan so'rovlarini istisno qilganda kamroq aniq bo'idi. Yetakchilik usubi mayjud bo'lgan jinslar orasida katta farqlar kuzaitidi. Demokratik yoki avtokratik deb tasniflangan bu farqlar barcha tadqiqotlarda izchil kuzatildi.

Mutaliflarning fikriga ko'ra, yetakchilik usulularidagi jinslar o'rtaсидagi o'xshashlik tashkilot madaniyatiga mos kelishi kerak bo'lgan ikkala jinsga ham tegishli; qo'shimcha ravisida, ular jinslar bilan bog'liq farqlar har bir jinsning yetakchilik amaliyotiga olib keladigan kuchli tomonlaridagi o'ziga xos farqlarni berishini aniqladilar.

ul's etirishini taklif qildilar. Boshqa metaanalizda Eagly, Johannesen-Schmidt va van Engen (2003) yetakchilik uslubi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsadiki, ayollar transformatsion liderlarning xususiyatlarini namoyon etishadi, erkaklar esa ko'proq tranzaksion lider bo'lishadi. Biroq, farqlar mutlaq emas; masalan, ayollar tranzaksion yetakchilikning tarkibiy qismi bo'lgan erkaklarga qaranganda ko'proq mukofot berish usullaridan foydalanshlari aniqlandi. Ular topgan farqlar nisbatan kichik edi. Eagly, Johannesen-Schmidt va van Engen (2003) ta'kidlagani dek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transformatsion yetakchilik yondashuvlari tranzaksion yondashuvlarga qaraganda samaraliroqdir, garchi individual rahbarlar odatda ikkala yondashuvning elementlarini ham namoyish etadilar.

Nazorat savollari:

1. Boshqaruuv psixologiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Boshqaruuvchi shaxs tushunchasi haqida ma'lumot bering.
3. Zamonaivy rahbarga qo'yildigan talablarini ko'rsating.
4. Rahbarning boshqaruuvchilik faoliyati haqida qanday ma'lumotga ega siz?
5. Rahbarning o'ziga xos qibiliyatlari nimalarda nomoyon bo'ldi?
6. Boshqaruuv psixologiyasida motiv/lashtirishning mohiyati nimalardan iborat?
7. Boshqaruuv psixologiyasida ehtiyojlarining o'mi.
8. Boshqaruuv psixologiyasida motiv/lashtirishning qanday usullari qo'llaniladi?
9. Boshqaruuv psixologiyasida menejer xodimlarga beriladigan maslahatlar haqida tushuncha bering.
10. Rahbarlik va liderlik jihatlar haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?
11. Guruh tushunchasiga tarif bering.
12. Taskilotchilik qobiliyatining mohiyati nimada namoyon bo'ladidi?
13. Avtoritet nima?
14. Avtoritar, demokratik, liberal rahbar tushunchalarni ta'riflang.
15. Rahbar qobiliyati komponentlari haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
16. Rahbarlik sifatlariga nimalarni kiritish mumkin?
17. Liderlik va superliderlik tushunchalari haqida gapirib bering.

Shaxshararo muloqotni aniqlash testi.

"O'zgalarini tinglay olasizmi?"

Quyida berilgan savollarga keltirilgan javoblarning o'zingizga mosini tanlab belgilang.

1. Sizningcha suhbatlashishdan maqsad nima?
 - a) suhbatdoshni yaxshiroq o'rganish;
 - b) bitor masala bo'yicha o'z fikrini bildirish;
 - v) fikr almashtish va muhokama qilish.
 2. Sizga bolalar "Bulutlar qaverda ustaydi?", "Buvilar kichkina bo'lishganmi?" tarzida savollar berishadimi?
 - a) ha, tez-tez;
 - b) hech qachon;
 - v) ba'zan.
 3. Ertalab ishga yoki o'qishga ketayotib, qo'shiq xirgoysi qilasizmi?
 - a) ha, doimo bir xil ashulani;
 - b) ha, odatda har xil ashulani;
 - v) yo'q, hech qachon.
 4. Yig'ilish oxirida ma'ruzachiga savollar berasizmi?
 - a) ha, doimo nimanidir so'rashga to'g'ri keladi;
 - b) ba'zan, uning fikri bilan qo'shilmaganimda;
 - v) hech qachon.
 5. Do'stingiz yoki kasbdoshingiz bilan suhbatlashgandan so'ng o'sha muammo yuzasidan o'z qanashlariningizi o'zgartirganmisiz?
 - a) ko'pincha shunday bo'ladi;
 - b) ba'zan;
 - v) hech qachon.
 6. Kim bilandir suhbatlashayotganda:
 - a) ko'proq siz gapirasiz;
 - b) ko'proq suhbatdoshingiz gapiradi;
 - v) ikkalangiz teng gapirasiz.
 7. Narxi bir xil bo'lganda siz niman harid qilishni afzal ko'rasizz?
 - a) kitobni;
 - b) qo'shiqli diskni;
 - v) kinoga biletни.
 8. Sheringiz sizga aloqasi bo'lmagan o'z muammosi xususida gaplashmoqchi. Siz nima deb o'ylaysiz?
 - a) "qimmatli vaqtini yo'qoldim-a",
- b) "endi unga ta'sirim kuchliroq bo'ladi";
v) "unga yordam beryapman".
9. Quyidagi jum'lalarning qay biri sizing nuqtai nazaringizga to'g'ri keladi?
 - a) ayni muammo yuzasidan mutaxassisiga aniq fikrga ega bo'lishi mungkin;
 - b) chiroyli gapirishni bilgan odam xohlagan mavzusida ham gapirishi mungkin;
 - v) ko'pincha mutaxassislarga o'z muammolar va g'oyalalarini bayon etish uchun notiqlik malakasi yetishmaydi.

10. Suhbat chog'ida hayolingiz chalg'ib ketса, nima qilasiz?
 - a) gapirayotganni to'xtatib, o'sha yerni qaytarishni so'rayman;
 - b) suhbat oxirida so'rashim uchun noaniq joyini eslab qolaman;
 - v) umuman menga hamma narsa ayon.

11. Ertalab radio orqali eshitgan axborot yoki qo'shiqni qaytara olasizmi?
 - a) ha, doimo;
 - b) ha, lekin esga tushirish uchun vaqt kerak;
 - v) eslay olmayman.

12. Estrada qo'shiqchisida sizga ko'proq nima yoqadi?
 - a) ovozi;
 - b) tashqi ko'rinishi;
 - v) sahnada o'zini tutishi.

13. Konsertlarga tushish siz uchun:
 - a) qoniqish hosil qitadigan hodisa;
 - b) ko'p qatori bo'lish;
 - v) yaxshi ko'rgan xonanda bilan uchrashuv.

14. Siz mehmondasiz, u erda sizdan boshqa yana 5-6 kishi bor. Siz gap boshtaganingizda, ko'pincha:
 - a) sizni hech kim tinglemaydi;
 - b) hamma sizga maxliyo bo'ladi;
 - v) siz suhbatning tashabbuskori emassiz.

15. Siz jamiyatda ro'y berayotgan barcha hodisalardan xabardorsiz. Chunki siz:
 - a) muntazam televizor ko'rasiz;
 - b) radio eshitasiz;
 - v) gazeta o'qiyasiz.

Kalit:

Savollar	Javoblar			Savollar	Javoblar		
	a	b	v		a	b	v
1	2	1	3	9	1	2	3
2	3	1	2	10	3	3	1
3	2	3	1	11	3	2	1
4	2	3	1	12	3	1	2
5	2	3	1	13	3	1	2
6	1	2	3	14	2	3	1
7	3	1	2	15	3	3	1
8	1	2	3				

Natijalarini taʼtil qilish:


15-20 ball. Siz o’zgalarni tinglamaysiz. Balki siz o’zgalarni tinglashdan oladigan foydaming qadrini bilmassiz, lekin siz bilim va tajriba uchun bu ishning foydasini bliishingiz zatur.

25-30 ball. Siz o’rtacha tinglovchisiz. Siz uchun suhbат ma’lumot manbai va muloqot uchun yetarli asos emas. Sizdan ko’п narsani o’рганиш mumkin, lekin o’zingiz ham boshqalardan ko’п narsa olishingiz mumkinligini, tanqid va e’tirozlar ham foydali ekanligini umutmang, ko’proq boshqalarni tinglang.


35-45 ball. Sizda noyob sifat - o’zgalarni tinglash va me’yorida gapirish bor. Siz bilan suhbattashish juda yaxshi, chunki suhbatdosh sizdan doimo naf oladi. Siz o’zgalarning holatlarini tushunishga ham moyilsiz, ana shu noyob sifati saqlang.

Kichik guruhlar klassifikasiyasi

**KICHIK GURUHLAR
TURLARI**




Kichik guruuhlar psixologik strukturasi



262



Kichik guruuhlar psixologiyasining strukturasi



263

Kichik guruhdagi o'zaro munosabatlar

Guruhiy intilishlar xarakteristikasi



X. MEHNAT PSIXOLOGIVASI

REJA:

10.1. Mehnat psixologiyasi haqida tushunchcha.

10.2. Mehnat psixologiyasi metodlari.

10.3. Mehnat psixologiyasida motivlar va faoliyat diagnostikasi.

10.4. Mehnat psixologiyasi va shaxs faoliyati.

Asosiy tayanch tushunchalar: Mehnat, mehnat faoliyati psixologiyas, mehnatni insonparvarlashtirish, professiografiya metodi, professiogramma, harakatchanlik motivatsiya, mehnat muxofazasi.

10.1. Mehnat psixologiyasi haqida tushuncha

Kimdir o'z mehnatinini yaxshi ko'radi, kimir o'z ishiga toqat qiladi, kimir esa ishiga chiday olmaydi. Mehnatdan qoniqish odamlarning o'z ishlaridan zavqlanish darajasini tavsiflaydi. Bu Edvin Lokk (1976) tomonidan insonning ish tajribasini baholash natijasida yuzaga keladigan his-tuyg'u holati sifatida tavsiflangan. Ishdan qoniqish bizning ishimiz (bizning biliminiz) haqida qanday fikrda ekanligimizdan va ishimizga qanday munosabatda bo'lismizdan (bizning ta'sir qilishimizdan) kelib chiqadi (Saari va Judge, 2004), u ta'sir nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Ishdan qoniqishga ishning o'zi, shaxsiyatimiz va biz kelgan va yashayotgan madaniyatimiz ta'sir qiladi (Saari va Judge, 2004).

Bugungi kunda fan va ishlab chiqarish integrasiyasini amalgा oshirish maqsadida innovation korporativ shartnomalar va ushbu yo'nalishdagi ishlarning amalga oshirilishi – barchasi yuqori saviyadagi kadrlarni eitishtirish va ularning mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgанди. Mehnat va kasb psixologiyasini o'rganish ishlab chiqarish mahsulotligining ortishi, talmatlarning kashf etilishi, kashfiyotchiilking rivojlanishi va o'z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga yo'l ochadi.

Talabalarning mehnat faoliyatiga tayyorligini yoki ularning o'z bo'lajak kasblariga munosabatlarini psixologik jihatdan o'rganishdan maqsad talabalar muhiti, utarga ta'lim berish xususiyatlari, ularning kasb va mehnat faoliyati haqidagi tasavvurlari, mehnat jamoasi, bo'lajak mutaxassis – talaba shaxsi uchun qulay psixologik shart-sharoitlar yaratishdir.

Talabalarda mehnat faoliyatiga tayyorlik dinamikasi – ya'ni, o'sib borish jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida talabalar tafakkurining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Talabalarни o'z kasbiga tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojlar, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti hamda mehnat motivasiyasiga bog'liq bo'ladi.

Talabalarda mehnat faoliyatiga tayyorlik darajasini o'rganish uchun mehnat psixologiyasi, kasb psixologiyasi, pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, psixologik maslahat, psixologik correksiya, psixodiagnostika kabi psixologiyaning maxsus sohalarini o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Har bir talabaning o'z hayot filosafisi, yuksak hissiyotlari, olamni o'zicha qabul qilishi va o'z "Men"ini idrok etishi uning mehnat va ijodiy faoliyatida aks etadi.

Mehnat psixologiyasi – insomning mehnata munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlarini va uning rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Mehnat psixologiyasi mehnatda shaxsning faoliyati, bo'sh vaqt, dam olshuning ishlab chiqarishga ta'sirini ham o'rganadi. Mehnat psixologiyasi nemis-amerikalik psixolog G. Myunsterberning (1863—1916) "Psixologiya va ishlab chiqarish umordorligi" (1913) va "Psixotexnika asosları" (1914) kitoblari chiqqan davrdan boshtab alohida soha sifatida vujudga kelganligi e'tirof etilgan.

Mehnat psixologiyasi – kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan sifatida, bugun tom ma'noda, mehnat faoliyatining psixologik qonuniyatlarini bilish, mehnat vazifalarini ro'yoga chiqarishda inson shaxsi imkoniyatlarini va chegarasini aniqlash, inson va mehnat shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri hamda mostashuvining qonunlarini o'rganish eng muhim hisoblanadi.

Mehnat faoliyati psixologiyasi – bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usulharini ilmiy jihatdan o'rganadi. Mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalariga quyidagi muammolar bo'yicha amaliy lavsiyalarni o'rganish va ishlab chiqish kiradi:

- kasbiy faoliyat muayyan turlarining psixologik xususiyatlari (uning vositalari, mazmuni, tashkil etish va shart-sharoitlar, xatolar tahibili, kasblar klassifikasiyasini va boshqalar);
- shaxs individual-psixologik xususiyatlarini mehnat samarasi, muvaffaqiyati va xavfsizligiga ta'siri;
- shaxs kasbiy layoqati shakllanishining psixologik qonuniyatlarini (kasbga yo'naltirish, kasbiy tanlov, kasbiy tayyorlarlik, mehnatga moslashuv);
- mehnat kishisining funksional holati (toliqish, emosional zo'rirqish, stress, monotoniya va boshqalar) va ularni diagnostika, profilaktika va correksiya qilish usullari;
- inson va texnika munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini;
- yangi texnikani yaratish va qo'llash jarayonining injener-psixologik ta'minoti (tojihalash, baholash).

Mehnat faoliyatasi psixologiyasi faoliyatni takomilashtrish yo'llari, usullari va vositalarini o'rganishdan tashqari, inson psixikasining fundamental xodisalarini tadqiq etish (mehnat subyekting shakllanishi, xolat reguliyasiyi mexanizmlari, mehnat sharoitida shaxs xususiyattarining roli, kasbiy qobiliyatini shakllanishi va boshqalar)ni ham o'rganadi.

Atrof-muhitini o'zgartiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida mehnat va psixologiyaning o'zaro munosabatlari mehnat faoliyati psixologiyasi mohiyatining bir qator jiddiy holatlariga tayanadi:

- nafaqat inson mehnatini engilashtirishga, balki mehnatni yanada mahsuldar, jozibali, xavfsiz etib, zavq va iqtisodiy jihatdan naf berishiga qaratilgan;
- mehnatni insonga va insonni mehnatga moslashtirishga qaratilgan (insoning tabiat, texnika, boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilishi g'oyasini munozarali, gohidha mavhumi etadi);
- mehnat faoliyatida psixikaning shaxsga bog'liq va o'zgaruvchan xususiyatlarini turli toifadagi odamlarga xos ekanligini aks ettrivuchidir.

Mehnat psixologiyasining o'rganishda psixologiyadan tashqari boshqa fanlar ham ishtirot etadi. Bular ijtimoiy va biologik fanlar: mehnat jarayonida fiziologik mehnat gigiyenasi, mehnat huquqi, mehnat muhofazasi, mehnat tarbiyasining nazariyasi va boshqalar.


Mehnat psixologiyasi I.M.Sechenov nomi bilan uzviy bog'liqidir. I.M.Sechenov tabiyi psixologik jarayonlarni o'rganishda asosan mehnat faolyatiga, ularning roliga qaratidi va birinchib bo'shib yangi tushunchani taklif etib, yaxshii hordiq chiqamoq mehnat faoliyatini saqlab qolishi va uning o'sishiga katta omil ekanligini ko'rsatib berdi.

Mehnat psixologiyasi psixologiya fanning bir sohasi bo'lib, turi mehnat faoliyatlarning o'ziga xosligini ijtimoiy tarixiy va konkret ishlab chiqarish sharoiti, mehnat quroli, mehnat ta'imi metodlari bilan birgalikda mehnatkash shaxsning psixologik safat va xususiyatlarini o'rganadi. Mehnat faoliyatining psixologik mohiyati mehnatkash shaxs xususiyatları, ya'ni uning kasbiy qobiliyatı sifatida hamda uning ishlab chiqarish multidagi shart-sharoitlari va muhit bilan o'zaro hamkorligi mehnat psixologiyasining predmetini tashkil etadi. Mehnat faoliyatining psixologik mohiyati mehnatkashga uning kasbi taqozo qidaligan psixik xususiyatlarga, xolat va jarayonlarga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish faoliyatining turlari (kasb, ixtisosliklar) uni muvaqqiyatlama amalga oshirish uchun ishchi shaxsining turli-tuman xususiyatlarini: maqsadga

yo'naltirilganligi, tajribasi, harakteri, qobiliyati, psixik holatlari, diqqat-e'tibori, lasavvuri, xotirasasi, emotsional holati va psixomotorikasining rivojlanganligini inobatga olishi lozim.

Mehnat funksiyalari

56-shakl



Mehnat funksiyalarining samarali amalga oshishi quyidagi omillarga bog'liqidir:

- muayyan faoliyat uchun layoqatli kishilarni tanlash;
- kasbiy tayyorgartlik;
- mehnat jarayonini tashkil etish va rasional sharoitlar;
- mehnat qurollarinin qulayligi va samarali ekanligi;
- ish ko'lamiga inson imkoniyatlarining mos kelishi;
- mehnat xavfsizligi tizimi, kasbiy salomalik va umrni saqlash, ishga layoqatlikni psixologik quvvatlash.

Mehnat (mazmuni, sharoitari, maqsadlari) shaxs rivojlaniishiha xizmat qilishi, unga quvonch, baxtni keltirishi va erishgan natijalaridan qoniqish hissini tuyishiga olib kelishi kerak.

Mehnat – inson chitijojni qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat bo'lib, u inson faoliyining anglangan bir turiga kiradi. Mehnat inson uchun shaxsий va ijtimoiy hayotida o'zini ro'yoga chiqarish va ko'rsata olish vosita hamda usulidir. Bu o'z navbatida uning muomalasi, o'zini va tashqi olamni anglashi, o'zini shaxs sifatida rivojlantrishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishida aks etdi. Bu vazifalarni bajarilishi mehnatning maqsadini tashkil etadi.

Mehnat – inson imkoniyatlarining psixologik, fiziologik, kasbiy va boshqa jihatdan namoyon eta olish xususiyati bo'lib, u turli toifa odamlarda turliha bo'fadi. Asosan, yosh ko'rsatkichiga, kasbiy tayyorlik darajasiga, salomatlik holatiga bog'liq ravishda kechadi. Mehnat faoliyatini takomilashtrish

bo'yicha ko'pgina amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek shaxs psixik faoliyining asoslarini mehnat faoliyatiga bog'lilik tomonlarini o'rganish masalasi muhimdir. Mehnat faoliyatining har bir aniq turi uchun ma'lum darajada normativ tasdiqlangan bo'ladi. Bunda albatta samaraliroq va ixchamroq variant muhim mezon etib olinadi. Inson kasboni o'zlashtirish jarayonida bu yozilgan normalarni individuallashtiradi, ya'ni o'ziga, unggagina xos bo'lgan shaxsiy fazilatlar va psixologik xususiyatlarni namoyon etadi:

- faoliyat motivlari, uni harakatlantiruvchi kuchlari (moddiy, bilish, estetik va boshqalar);

- faoliyat maqsadlari, uning mazmunini shakllanitiradi va aniq kutiladigan natijalarda ifodalanadi;
- faoliyat dasturi, mazmunning aniq tasavvurini va jarayonni aks ettridi;
- faoliyatning axboroga asoslanganligi, ma'lumotlar bazasi, kasbiy bilimlargega oid predmetli va subyektiv sharotilar, ularni amalgalashishga oid ma'lumotlar;
- qarorlarni qabul qilish jarayoni, muammoli vaziyatni ko'rish, farazni, ilgari surish (muammoni echimi usullarini), bajarish tamoyilini aniqlash, hal etish variantlarini, baholashni amalga oshirish;
- psixomotor jarayonlar;

• muhim professional sifatlar, mehnat egasining psixologik xususiyatlari, aniq mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan individual-psixologik sifatlar, fazillatlar.

Mehnat psixologiyasi oldida turgan muammolar, u hal qiladigan umumiy va xususiy masalalar hamda to'plangan ilmiy material bir qancha sohalarda sistemalashtirilgan. Bundan tashqari, kelajakda mehnat psixologiyasi hal qiladigan barcha alohida masalalarni jamlash uchun bu sisternani etarli va zarur deb hisoblashga barcha asoslar mavjud. Ya'ni, mehnat psixologiyasining metodologiyasi, pedagog professiografiyasи, mehnat psixologiyasi tarixi.

Mehnat psixologiyasining vazifalariга mehnatni insonparvarashshtirish va uning ishlab chiqarishdagi o'sishi kiradi. Mehnatni insonparvarashshtirish - mehnating juda toliqiradigan darajada bo'lmasisligi, maxsus kasallardan ehtiyoj bo'lish, ishlab chiqarishda jarohatlanishdan ehtiyoj bo'lish, mehnatkashlarning ishlashga qulay sharoitini yaratishdan iboradir. Mehnat psixologiyasining asosiy vazifalari - kasb tanlashega yo'naltirish, konsultatsiya berish, kasbya layoqati yoshlarini tanlash hamda ularning hunar-teknika bilim yurtlari o'quvchilarida kasby qobiliyat va qiziqishni shakkantirishni psixologik o'rganish va tafsiflashdir. Bu vazifa mehnat psixologiyasi bo'limlaridan biri bo'lgan psixologik

professiografik tomonidan hal qilib, muammoni ishlab chiqishda psixologlar va pedagoglar ishtirot etadir. Shular qatorida yana bir vazifa - u yoki bu kasbdan ishlashni mo'jallyayotgan yoki ishlayotgan kishilarning kasbyi qobiliyatining moniyatini tushunish maqsadida ular qobiliyatini o'rganishdir.

Mehnat psixologiyasi psixologiyaning asosiy metodlaridan foydalanaadi, ammo insonlar mehnat jarayonidagi psixik faoliyati o'ziga xos bo'lgani uchun, u o'z metodlariga ega. Mehnat psixologiyasi metodlari qanday maqsadlar uchun qo'llanilishi qarab 4 xil bo'lishi mumkin:

- ilmiy tekshirish institutlarda malakali psixologlar tomonidan bajariladigan maxsus ilmiy-tadqiqot metodi;

- hunar-tehnika bilim yurthari o'qituvchilarini va ishlab chiqarish ta'limi murabbiylari tomonidan ishlab chiqarishda mustaqil ravishda yoki ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari bilan hamkorligida o'quv - tarbiya ishlari metodikasini takomillashtirishda foydalananadigan psixologik metodlar;

- mehnat unumдорligini oshirish maqsadida ishlab chiqish injenerlari va malakali ishchilar hamda ishlab chiqarish novatorlari amalga oshiradigan ilmiy-

amaliy ishlar metodi;

• dastlab faqat ilmiy-amaliy tekshirish ishlari uchun qo'llaniladigan, ammo asta-sekin sinov ishlarini o'tkazish jarayoniga ko'chadigan bir qator metodlar.

Mehnat psixologiyasining amaliy vazifalarini hal qilish, jumladan kishilar qobiliyatini aniqlash va normalashda qo'llaniladigan sinov ishlari qat'iy ilmiy asosga ega bo'lishi va o'rgatilayotgan psixik hodisa tabiatiga mos kelishi lozim.

Mehnat psixologiyasini amaliy qo'llanishiga oid bir qator asosiy talablar mavjud. Birinchi navbatda ular o'zini vujudga keltingan nazariya yordamida hal qilinadigan vazifalar va ularga mos sharotilar.

Har bir mehnat faoliyati, har bir ishchi shaxsida bo'lganidek, mehnat psixologiyasi o'zining psixologik strukturasiga ega bo'lib, turli xil metodlar bilan o'rganiladi, konkret mehnat faoliyati yoki shaxsning barcha psixologik strukturalarini teng emas, ularning ayrim kasb uchun komponentlari faoliyatni eng so'ngi samarasini sezilarli ta'sir qiladi, boshqalari esa mutlaqo ta'sir qilmasligi mumkin.

Mehnat psixologiyasida mehnat unumдорligi quyidagilarga bog'liq:

- ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-psixologik muhiiga;
- ishlab chiqarishdagi tashqi muhit, moddiy sharot va ish sharoitiiga;
- mehnat va dam olishning davomiyligiga va intensivligiga;
- "kollektiv-inson-mashina" o'zaro hamkorlik xususiyatlariga, mehnat xavfisizligining ta'minlanishiiga bog'liq.

Mehnatiň ilmiy tashkili etish - muayyan tadbirlar amaly va joriy etilishi uchun oldin mehnat jarayonlari va ularning bajarilish sharoitlari tahlil qilinadi. A maliy tadbirlarning o'zi esa hozirgi zamон fani va ilg'or tajribaga asoslanadi. Mehnatiň tashkili etisiga ilmiy yondoshish - ishchilarda mehnat unumdarligini oshirish uchun doim intilish va ishning yangi eng qulay usullari, yangi novatorlik faoliyatini tashkili etish va analga oshirish psixologiyasiga tayanadi. Islda yangi foydali tomonlarni izlash, o'quv va ishlab chiqarish mehnatida qo'llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanim, o'quv yurtlari yoki ishlab chiqarishda ilgari bo`magan narsalarni yaratish demakdir.

Mehnattan qoniqish

